

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SULTANMURATOVA DILRABO SHAYLAVBEKOVNA
TIJORAT BANKLARIDA RESURS BAZASI VA UNI MUSTAHKAMLASH
YO'LLARI

Ixtisoslik: 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

iqtisodiyot falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun
DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. A.Norov

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I	TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASI VA UNI	
BOB.	MUSTAHKAMLASHNING MOHIYATI VA NAZARIY	
	ASOSLARI.....	11
1.1-§.	Tijorat banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlash xususida ilmiy-nazariy yondoshuvlar.....	11
1.2-§.	Tijorat banklar resurs bazasini iqtisodiy mohiyati va tarkibiy tuzilishi.....	24
1.3-§.	Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlashning xorij tajribasi.....	40
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	55
II	TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINING AMALIY	
BOB.	HOLATI TAHLILI.....	56
2.1-§.	Tijorat banklarning resurs bazasini shakllantirish manbalari va uning tahlili.....	56
2.2-§.	O'zbekistonda tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligi darajasining tahlili.....	71
2.3-§.	Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlashning ekonometrik tahlili.....	76
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	86
III	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI	
BOB.	RESURS BAZASINI RIVOJLANTIRISH VA UNI	
	MUSTAHKAMLASH ISTIQBOLLARI.....	88
3.1-§.	Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	88
3.2-§.	Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash istiqbollari.....	99
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	109
	XULOSA.....	113
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	116

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro bank amaliyotida bank tizimining resurs bazasi hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish va har bir mamlakatning kelgusi rivojlanishi to'g'risida muhim strategik qarorlarni qabul qilish uchun zarurdir. Ko'plab tijorat banklar uchun resurslarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ularning manbalar tarkibi va hajmi to'g'ridan-to'g'ri banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirish ko'lamini kengaytiradi hamda kelgusida ularning foyda ko'rishlari bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining kaliti bo'lib hisoblanadi. "Ushbu jarayonlar banklardan o'zlarining yetarli miqdordagi resurs bazasini yaratishni, tuzilmani optimallashtirishni va uni mustahkamlashni talab qiladi"¹. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda yuzaga kelgan bank inqirozlari paytida bank resurs bazasi ularning barqarorligini ta'minlashning eng asosiy omili hisoblanadi. Ilmiy izlanishlarda banklar resurs bazasining eng maqbul manbalari sifatida boshqa banklarining mablag'lari (bankrotlik darajasi 5,7 foiz), yuridik shaxslarning mablag'lari (bankrotlik darajasi 8,0 foiz) va jismoniy shaxslarning mablag'lari (bankrotlik darajasi 28,5 foiz) e'tirof etilgan². Inqirozlar davrida banklarni bankrotlikdan saqlash juda muxim jarayonligini hisobga olib, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va resurs bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish taqozo etiladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarning Markaziy banklari, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Bazel qo'mitasi kabi qator moliya tashkilotlari tomonidan banklarning resurs bazani shakllantirish va uni boshqarish, ularning resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda, tijorat banklari moliyaviy resurslari manbalari, ularni kapitallashuv darajalari, resurs bazasini samarali boshqarish usullari o'rganilgan. Biroq, tadqiqotlarda, aynan xususiy banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlash masalalari, ularning kapitallashuv darajasi va resurs

¹ Tsyhanyuk, D. Effective ways to making strong resource base for Ukrainian banks in terms of unstable economy // *Středoevropský věstník pro vědu a výzkum*. – 2014. – №7. – P. 94-106 <https://www.essuir.sumdu.edu.ua/bitstream-download/123456789/52435/7>

² Aleksey Mints, Viktoriya Marhasova, Hanna Hlukha, Roman Kurok and Tetiana Kolodizieva // Analysis of the stability factors of Ukrainian banks during the 2014–2017 systemic crisis using the Kohonen self-organizing neural networks. // *Banks and Bank Systems*, Volume 14, Issue 3, 2019, 86-98. doi:10.21511/bbs.14(3).2019.08 - <https://www.researchgate.net/publication/335670166>

bazasi yetarli emasligi, muddatli va jamg'arma depozitlarni jalb qilish hamda hajmini oshirish darajasining zaifligi, ular tomonidan subordinar qarz majburiyatlarni jalb etishning sustligi kabi jihatlari yetarlicha ochib berilmagan. Xususan, banklarning resurs bazasini mustahkamligini ta'minlashda ularning kapitallashtirish darajasini oshirish, barqaror resurs bazasini ta'minlash, resurs salohiyatini yanada mustahkamlash bilan bog'liq masalalar dolzarbligini saqlab turibdi. Albatta, mazkur masalalar banklarning resurs bazasini kengaytirish va barqarorligini mustahkamlash yuzasidan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi ham respublikamiz banklarining resurs bazasini mustahkamlashga, banklarni kapitallashuv darajasini oshirishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan. Jumladan, "2025 yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd so'mgacha yetkazish masalasi"³ va "bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish, depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash vazifalari"⁴ belgilab berilgan. Mamlakatimizda "2020–2025 yillarga mo'ljallangan respublikaning bank tizimini isloh qilish strategiyasida 6 ta bankdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish"⁵ nazarda tutilgan. Bu islohotlar provardida xususiy banklarning ulushini yanada oshirish hamda ularning resurs bazasini mustahkamlashni talab etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish staregiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni

⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 sonli "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni

isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 21-maydagi PQ-4325-sonli "Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-yanvardagi 30-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qarori (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi PQ-4071-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori) hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklar resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan masalalarning ayrim nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar – B.Vernerfelt, K.Praxalad, G.Xemel, D.Polfreman, F.Ford, Ye.Jukov, N.Eriashvili, T.Kosterina, L.Krolivetskaya, V.Kiselev, Ye.Shershneva, Ye.Kondyukova, O.Lavrushin, R.Kotter, E.Dolan, E.Pill, E.Rid⁶larning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

⁶ Wernerfelt B. 1984. A Resource-Based View of the Firm // Strategic Management Journal. No. 5 (2). P. 171–180. Prahalad, C.K., Hamel, G., (1990) The core competence of the corporation, Harvard Business Review, vol. 68, no. 3.- PP.79-91.; Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дело. Перевод с англ. Москва инфра 1996 г. стр.-102.; Банковское дело. Под редакцией Е.Ф. Жукова, Н.Д.Эриашвили. 4-е изд., перераб. и доп. - М.ЮНИТИ-ДАНА,. 2018. стр.572; Банковское дело: учебник для СПО/ Т.М.Костерина. – 3-е изд., перераб.и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019 г. – 332 с ; Деньги, кредит, банки: Учебник/ коллектив авторов; под ред. Л.П.Кроливецкой. - Москва: КРОНУС, 2019. - 414 с.; Киселев, В. В. Управление банковским капиталом (теория и практика) – М.: Экономика, 1997. – 256 с.; Банковский менеджмент: Учебное пособие / Е.Г. Шершнева, Е.С. Кондюкова. - Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2017 - 312 с.;Долан Э. Дж., и др. Деньги, банковские дело и денежно кредитная политика. Пер. с англ. -Москва-Ленинград: 1991.-446 с.; Рид Э., Коттер Р., и другие. Коммерческие банки. Пер. с англ. под ред. Усоскина В.М. 2-е издание .-М.: Космополис, 1991. -478 с.; Банковское дело. Под редакции О.И. Лаврушина м.крупнос. 2019 г. 648 с;

Dissertatsiya mavzusining ba'zi yo'nalishlari va alohida jihatlarini mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan – B.Shermuxammedov, Sh.Saipnazarov, A.Norov, U.Azizov, F.Mirzaev, B.Babaev, O.Ortiqov, U.Ortiqov, Sh.Ro'zmetov, A.Rahimov, N.Shamsiev⁷ kabi mualliflar o'z ishlarida yoritib berganlar.

Xususan, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlari va tadqiqot ishlarida tijorat banklar kapitallashuv darajasini oshirish, bank resurslarini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish, ularni boshqarish hamda depozit bazasini kengaytirish va mustahkamlash masalalari tadqiq qilingan.

Lekin, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan aynan tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash yuzasidan ilmiy izlanishlar yaxlit, kompleks tarzda tadqiqot ob'ekti sifatida umuman o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy ish rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lib, tijorat banklarida resurs bazasi va uni mustahkamlashni takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Tijorat banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlashning nazariy asoslarini tadqiq qilish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;

⁷ B.Shermuxamedov "Tijorat banklarida depozit siyosati metodologiyasini takomillashtirish" i.f.d. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati.2024-yil; Saipnazarov Sh. "Bank resurslari va ularni boshqarish".-Monografiya.-T.: "Iqtisod-moliya".-2022.-.114 b.; Norov A.A. Tijorat banklarining kredit amaliyotini takomillashtirish masalalari. PhD.,. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2019. -38 b.; Mirzaev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, –T.: BMA, 2009. 24 b. Ortiqov O.A. Banklararo raqobat muhiti sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati - T.: 2009. – 26 b.; B.B.Babaev. Voprosy formirovaniya resursov kommercheskix bankov i ix effektivnoe ispolzovanie. Avtoreferat k.e.n. BFA ResUz. –T., 2002.-21 s. Ortikov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. O'zR BFA. – 19.09.2008. –T., 2008. -20 b. Ro'zmetov Sh.B. O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. O'zR BMA.–T., 2009. -26 b. Rahimov A.M. Tijorat banklari depozit bazasi va uni kengaytirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati,–T.: "iqtisod-moliya", 2019. -54 b. Shamsiev N.M. Tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: "Innavatsion" nashriyoti 2024. -18 b.

mamlakatimiz tijorat banklarning resurs bazasini shakllantirish borasidagi faoliyatining zamonaviy holatini tahlil qilish va mavjud tendentsiyalarni aniqlash;

tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlashning jahon tajribasini o'rganish va ulardan O'zbekiston bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

tijorat banklarning resurs bazasini optimallashtirish yo'llarini aniqlash;

tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularning yechimlari yuzasidan tavsiyalar berish;

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari resurs bazasi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida guruhlash, taqqoslash, iqtisodiy-statistik usullar, ekspert baholash, ekonometrik tahlil, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "tijorat banklarida resurs bazasi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni tijorat bank tomonidan o'zining asosiy funksiyalarini amalga oshirish uchun jalb qilingan va shakllantirilgan moliyaviy resurslarning yig'indisini uning tarkibi, manbalari va strukturasini iqtisodiy hamda institutsional yondashuvlarga ko'ra tadqiq etish orqali takomillashtirilgan;

tijorat banklarida kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar ko'rsatkichini aktivlarga nisbatan 1,5-2,0% darajadan kamaytirish orqali bank resurs bazasi hajmining yillik 8-12% gacha kengayishiga erishish hamda kreditlash faoliyatining samaradorligini oshirish asoslangan;

tijorat banklarida depozit resurslari, jumladan, muddatli va jamg'arma depozitlari hajmini yillik 10-15% oshirish, xorijiy va mahalliy banklararo kreditlarni

jalb qilishni 5-7% ga kengaytirish hamda bankning xususiy kapitalini har yili 7-10% ga mustahkamlash orqali resurs bazasini barqaror rivojlantirish taklifi ishlab chiqilgan.

O'zbekistondagi tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari resurslari hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklar resurs bazasiga mualliflik yondoshuvi shakllantirilgan;

kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarning aktivlarga nisbati pasayishi bankning moliyaviy barqarorligini oshirishga va uning resurs bazasini kengaytirish zarurligi asoslandi;

tijorat banklar resurs bazasini samarali boshqarish orqali kreditlash va investitsiyadan yuqori daromad olish imkoniyati daromadlar kapitalni rivojlantirishga yo'naltirilib, bankning barqarorligi ta'minlanishi taklifi shakllantirilgan;

2030-yilgacha tijorat banklarining resurs bazasi hajmini oshirish orqali kreditlash xajmi kengayishi, banklarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanishi, natijada iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishi va bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishi asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda rasmiy statistik ma'lumotlarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari amaliy ma'lumotlarining tahlillari natijalariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishini bajarish davomida olingan ilmiy natijalar, xulosa va takliflardan tijorat banklari resurs bazasining nazariy asoslarini rivojlantirish va mazmunan boyitish, uning uslubiy asoslarini takomillashtirish va nazariy-uslubiy bilimlar doirasini kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan tijorat banklari resurs bazasi mustahkamlash hamda

takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlash masalalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra «tijorat banklarida resurs bazasi» tushunchasining bank tomonidan o'zining asosiy funktsiyalarini amalga oshirish uchun jalb qilingan va shakllantirilgan moliyaviy resurslarning yig'indisi bo'lib, ularning tarkibi, manbalari va strukturasini iqtisodiy hamda institutsional yondashuvlar orqali o'rganish jarayoni takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan "Portfel menejment" nomli o'quv qo'llanma darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-yanvardagi 21-sonli buyrug'i). Mazkur tushunchaning oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun yangi mazmunda kiritilishi bo'lg'usi mutaxassislarning resurs bazasi hamda uni moliyalashtirish borasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirish imkonini yaratgan;

tijorat banki kreditlarining daromadlilik va risklilik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash taklifi «Mikrokreditbank» Aktsiyadorlik tijorat banki amaliyotiga joriy qilindi (ATB «Mikrokreditbank»ning 2024-yil 27-sentyabrdagi № 05-16/26446-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida «Mikrokreditbank» Aktsiyadorlik tijorat banki 2024-yilda 2023-yilga nisbatan kreditlardan olingan foizli daromadlar miqdori 31,5 foizga oshgani holda, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 0,27 foizli punktga pasayishiga erishilgan;

tijorat banklarda resurslarni jalb qilish holatini tahlil qilish asosida ularning resurs bazasini kredit, qarz, depozit mablag'larni jalb qilish hamda bank kapitalini oshirish yo'li orqali mustahkamlash bo'yicha samarali mexanizmi taklifi «Mikrokreditbank» Aktsiyadorlik tijorat bankini o'rta muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda inobatga olingan va amaliyotga joriy etilgan (ATB «Mikrokreditbank»ning 2024-yil 27-sentyabrdagi № 05-16/26446-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024-yil

yakuni bo'yicha bankning resurs bazasi hajmini 59,1 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistondagi tijorat banklarining resurslarni samarali boshqarishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari depozitlari hajmining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari "Mikrokreditbank" ATB tomonidan 2030-yilga mo'ljallangan bank umumiy strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan va amaliyotga joriy qilingan (ATB «Mikrokreditbank»ning 2024-yil 27-sentyabrdagi № 05-16/26446-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi "Mikrokreditbank" ATBning uzoq muddatli istiqboldagi resurs hajmi hamda u bilan bog'liq asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini aniqlashtirish hamda o'zaro muvofiqlashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 10 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokamadan o'tkazilgan va yaxshi baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

I BOB. TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASI VA UNI MUSTAHKAMLASHNING MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Tijorat banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlash xususida ilmiy-nazariy yondoshuvlar

Umuman, banklar resurs bazasining tarkibini tadqiq qilishdan oldin resurs tushunchasini nazariy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Resurs va uning bazasi xususidagi nazariyalar dastlab klassik iqtisodchilar B.Vernerfelt, R.Ramelt, D.Tis, Dj.Barni, M.Peteraf, K.Konner, K.Praxalad, G.Kleyner, G.Asxauer, D.T.Kox, F.Sinki, P.Rouz va boshqa olimlarning ilmiy izlanmalarida chuqur tadqiq etilib, XXI asr boshlarida iqtisodiy tahlil metodologiyasi va turli maqsadlar sharoitida iqtisodiy bilimlarni boshqarishni o'zida qamrab olgan kuchli intellektual oqimga aylandi.

Resurs - frantsuzcha «ressourse»⁸ so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi mablag', imkoniyat, zaxira, mablag' va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi. Resurs bazasi - (ingliz tili iqtisodiy adabiyotlarida *resource-based view* (RVV) V.S.Katkaloning fundamental monografiyasida ““resurs kontseptsiyasi” deb nomlanadi) ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektning tashqi holati (turli vaziyatlarda bunday holat turli xil reytinglar, afzalliklar, raqobatbardoshlilik ko'rsatkichlari, sub'ektning “bozor salohiyati”, investitsion jozibadorlik, bozor ulushi ko'rsatkichlari, qiymat, samaradorlik, rentabellik va boshqa ko'rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin) uning ichki holati bilan strategik bog'liqligiga asoslanganligi to'g'risidagi qarash bo'lib hisoblanadi”⁹.

Resurs bazasi nazariyasining bir bo'lagi sifatida “iqtisodiy sub'ekt faoliyatining imkoniyat darajasi (qobiliyati) nazariyasi D.Tis, R.Makadok, R.Grant va boshqa

⁸ Финансово-кредитный словарь М. Финансы и статистика 1986 г. 368 с.; Узбекско-русский словарь, гос. изд-во иностранных и национальных словарей. М.: 1959 г. 343 с.

⁹ Каткало В.С. Эволюция теории стратегического управления. -Высшая школа менеджмента СПбГУ. - 3-е изд.-СПб.: -Издательство «Высшая школа менеджмента»; Издат.дом С.Петербур. -гос.ун-та.-2011.-С.548.

olimlarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan"¹⁰.

B.Vernerfelt, K.Prahalad va G.Xemelning ilmiy izlanmalarida “resurs bazasi xususidagi nazariyalar bir-biriga yaqin bo'lib, ular diqqat markazida asosiy e'tibor iqtisodiy sub'ektning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan (“ichkaridan tashqariga” asoslangan qarash, ularga qarama-qarshi qarash ya'ni, “tashqaridan ichkariga” asoslangan yondashuv M.Porterga tegishli bo'lib hisoblanadi)”¹¹.

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan yozilgan nazariy manbalar hamda amaliyotchilar iqtisodiy tahlillarini o'rganar ekanmiz, shu narsaga amin bo'ldikki, «bank resurslari» tushunchasiga katta e'tibor berilgan. Masalan, “E.Rid, R.Kotter, E.Pill va R.Smitlarning”¹² muallifligi ostida chop qilingan «Kommercheskie banki» kitobida bank balansini guruhlashtirilgan holda ko'rish mumkin va unda pul mablag'larining manbalariga alohida e'tibor berilganligi hamda ularni tadqiq etishda banklarning passiv operatsiyalarini chuqur tahlil qilish zarurligi uqtirilganligiga guvohi bo'ldik.

Bank faoliyati masalalari bo'yicha tadqiqotlarning ko'pligiga qaramasdan “bank moliyaviy resurslari” tushunchasining yagona izohi ilmiy ishlarda mavjud emas. Ayniqsa, Rossiya va G'arb iqtisodchilari o'rtasidagi qarama-qarshi fikrlar ko'p kuzatiladi. “Bankning moliyaviy resurslari” atamasi G'arb olimlari ilmiy ishlarida qo'llanilmaydi. “Edvin Dj.Dolan, Kolin D.Kempbell va Rozmari Dj.Kempbell bank tashkilotlari pul mablag'lari manbasini tahlil qilgan holda, depozitlar, qarz mablag'lari va bankning aktsiyadorlik kapitalini o'zida aks ettiruvchi bank passivlarini e'tiborga olish muhim deb hisoblaydilar”¹³.

“Tijorat banklari” darsligi mualliflari Ye.Gill, G.Kotter va Ye.Rodlarning tahliliga ko'ra, “bank ishi asoslarini tushunish uchun eng avvalo bank balansi

¹⁰ Катяло В.С. Эволюция теории стратегического управления. -Высшая школа менеджмента СПбГУ. - 3-е изд.- СПб.:Издательство «Высшая школа менеджмента»; Издат.дом С.Петербур.-гос.ун-та.-2011.-С.548.

¹¹ Wernerfelt B. 1984. A Resource-Based View of the Firm // Strategic Management Journal. No. 5 (2). P. 171–180. Prahalad, C.K., Hamel, G., (1990) The core competence of the corporation, Harvard Business Review, vol. 68, no. 3.- PP.79-91.

¹² Э.Рид, Р.Коттер, Э.Пилл ва Р.Смит «Коммерческие банки» перевод с англ. М. Космополис 1991г. стр.-16

¹³ Долан, Э. Дж. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. пер. с англ. В. Лукашевича и др.; под общ. ред. В. Лукашевича, М. Ярцева. – СПб. «Санкт-Петербург оркестр», 1994. – 496 с.

moddalarini ko'rib chiqish muhimligi belgilangan. Pul mablag'larining asosiy manbasi sifatida balans passiv tuzilmasi keltiriladi, ayniqsa tijorat banklari passiv operatsiyalarini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan savollarga urg'u berilgan"¹⁴.

Yana bir guruh ingliz olimlari D.Polfreman va F.Ford¹⁵ "bank moliyaviy resurslari" kategoriyasidan foydalanmaydilar, ular bank faoliyatini tahlil qilishda bank resurslarini bank passivlari deb ko'rib chiqishgan hamda ular bank aktsiyadorlari mablag'lari va jamg'armachilarining mablag'laridan tashkil topgan, degan fikrni bildirishgan. Ko'rinib turibdiki, xorijlik mualliflar bank resurslarini o'z qarashlari orqali ifodalab ularning shakllanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan ko'ra, banklarning passivlariga kengroq e'tibor berishgan. Bu holatni bir jihatdan ijobiy baholash mumkin, ya'ni xorijiy banklar faoliyatida avvalambor, banklarning majburiyatlari va ularning bajarilishi, bizning fikrimizcha, old vazifa qilib belgilab olingan. Bu qarashning ikkinchi jihati shundaki, banklar shu resurslarni majburiyatlarni bajarishi uchun mukammal joylashtirishni afzal ko'radi va shu orqali resurslardan yuqori samara olish uchun qattiq kredit siyosatini olib boradi hamda banklarning faoliyati mijozlari oldida olgan majburiyatlarini bajarishga qaratilgan bo'ladi. Biz xorijlik olimlar D.Polfreman va F.Fordlarning fikrlaridan farqli ravishda shuni ta'kidlamochimizki, bankning passivlari va uning resurslari tushunchasi bir xil tushuncha emas. Bizning fikrimizcha, bank passivlari bank resurslarini tashkil qilish manbai bo'lib, ularning hajmi bir necha omillarga bog'liqdir.

Rossiyalik taniqli iqtisodchi olim O.I.Lavrushinning fikriga ko'ra, "bank resursi yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, u aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi"¹⁶. Shu boisdan fikrimizcha, banklar resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish lozim.

¹⁴ Э.Рид, Р.Коттнр, Э.Пилл ва Р.Смит «Коммерческие банки» перевод с англ. М. Космополис 1991г. стр – 501 с.

¹⁵ Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дело. Перевод с англ. Москва инфра 1996 г. стр.-102.

¹⁶ Банковское дело. Под редакции О.И. Лаврушина М.КРУНОС. 2019 г. стр.192

M.Porterning resurs nazariyasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida imkoniyat va resurslar gomogen (tarkibi va kelib chiqishi bir xil bo'lgan resurslar) bo'lgan bir xil sharoitda tashqi faktorlar (soha va bozor) ning ta'siri yetakchi o'rinda qaralgan holda ular ayni strategiyani tanlashlari isbotlangan. Shuningdek, resurslarning barcha turlari harakatchan emas, shuning uchun xo'jalik yurituvchi sub'ekt resurslarning geterogen (tarkibi va kelib chiqishi har xil bo'lgan resurslar) ligi nisbatan barqaror bo'lib hisoblanadi. "Bozorlarda erkin aylanmada bo'lgan resurslar, ularning harakatchanligini belgilovchi oxirgi chegara ko'rsatkichi degan tushuncha ilgari yetakchi tushuncha bo'lib hisoblanar edi"¹⁷.

Shu bilan bir qatorda, M.Porterning nazariyalarida "strategik faoliyatning uch asosiy varianti, ya'ni kam xarajatlilik, farqlilik (differentsiatsiya) va mo'ljalni (yo'nalish) aniqlab olish kabi strategik yetakchilik qilish g'oyalari ilgari suriladi"¹⁸.

Resurs nazariyasining ahamiyatga molik tomonlaridan biri shundaki, mavjud sharoitda iqtisodiy sub'ektlar muvaffaqiyatlarining sabablarini, iqtisodiy sub'ekt faoliyatini rivojlantirishning raqobatbardosh strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotda o'zlarining vakolatlari doirasidagi yondashuvlarini qo'llashdan iborat.

"O.I.Lavrushin tomonidan tijorat banklari resurs bazasini samarali tashkil etishda asosiy urg'u o'z kapitali va uning maqbul tarkibiy tuzilishiga qaratilib, banklar kapitalizatsiya darajasiga ta'sir etuvchi quyidagi ichki omillar sanab o'tiladi"¹⁹:

- inflyatsiya;
- iqtisodiyotdagi holat;
- kapitalni shakllantirishda xarajatlarning o'sib borishi;
- investorlarning kapitalga talabi;
- boshqaruvchilarning kapitalga talabi.

Shu bilan bir qatorda, bank resurs bazasi mustahkamligini ta'minlash nazariyasi tashqi tahlillarga ham asoslanadi. Bunda jamiyat rivojlanishining makroiqtisodiy

¹⁷ Сергеев И. Пономаренко Т. Методологические аспекты ресурсного подхода в стратегическом управлении. Management theory and studies for rural business and infrastructure development. -2011.-№4(28). -С.118-126.

¹⁸ Жировов В.И. Стратегии ва современные модели управления в сфере денежно-кредитных отношений. -Вестник ВГУ Серия.: Экономика и управление. -2015. -№1. -С.105.

¹⁹ Лаврушин О.И. Роль кредита и модернизация деятельности банков в сфере кредитования. -Монография / коллектив авторов. -М.: КНОРУС, 2012-С.117-118.

ko'rsatkichlari, bank moliyaviy natijalari ko'rsatkichlari, bank aktsiyadorlari, nazorat qiluvchi organlar siyosati (Markaziy bank), xalqaro standartlar va tavsiyalar, tashqi auditorlar xulosalari, tashqi risklar, retrospektiv tahlillar nisbiy ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, bank resurs bazasi mustahkamligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni aniqlash qonuniylilik va ma'muriylikka asoslanadi. Ba'zi, ilmiy ishlarda "resurs baza" deganda, xususiy banklar passivlariga qo'shilgan mablag'lar tushuniladi. Deyarli, "resurs bazasi" va "bank resurslari" tushunchalarini bir xil qarash yuzaga keladi²⁰. Fikrimizcha, bankning resurs bazasi foydalanish jihatidan bank resurslariga nisbatan kenroq tushuncha hisoblanadi. Muallif o'z ishida bu jihatiga e'tibor bermagan hisoblanadi.

Bundan tashqari, Ye.F.Jukov, N.D.Eriashvili tahririyati ostida yozilgan "bank ishi" darsligida ham yuqoridagi qarash mavjud. Ya'ni passiv operatsiyalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga bevosita bankka tegishli bo'lgan va qaytarishni talab qilmaydigan o'z resurslarini yaratish bo'yicha operatsiyalar kiradi. "Ikkinchi guruh operatsiyalari yordamida bank mablag'larni bir muddatga jalb qiladi, ya'ni qarz resurslarini tashkil qiladi"²¹. Fikrimizcha, mualliflar bu yerda e'tiborni bankning passiv operatsiyalariga qaratgan va uni ikki guruhga ajratgan. Aslida bankning resurs bazasini kengroq yoritib bersa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bundan tashqari, majburiyatlarni yanada kenroq yoritish kerak deb hisoblaymiz.

Rossiyalik olim "T.M.Kosterinaning fikriga ko'ra, bankning resurslari - bu aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan o'z mablag'lari (kapital) va majburiyatlari (jalb qilingan mablag'lar) jamlanmasidir. Bankning resurs bazasi uning kredit salohiyatini shakllantirish uchun asosdir"²². Shu boisdan fikrimizcha, banklar resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish

²⁰ Сыроижко, В. В. Содержание, формы и виды регулирования экономики. Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. – 2012. – № 2. – С. 53–66.

²¹ Банковское дело. Под редакцией Е.Ф. Жукова, Н.Д.Эриашвили. 4-е изд., перераб. и доп. - М.ЮНИТИ-ДАНА., 2018. стр.163-164

²² Банковское дело: учебник для СПО/ Т.М.Костерина. – 3-е изд., перераб.и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019 г. – 332 с

lozim.

Rossiyalik olim L.P.Krolivetskaya tahrir ostida chop etilgan “Pul, kredit va banklar” darsligida esa bank resurslarini o‘z va qarz mablag‘lariga yoki bankning o‘z kapitali va majburiyatlariga bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. “Darslikda bankda resurslarni shakllantirishga alohida e‘tibor berilishi, buning sababi sifatida esa bank resurslarining hajmi, barqarorligi, narxi, tuzilishi va boshqa xususiyatlari kredit muassasasi tomonidan qanday aktiv operatsiyalar amalga oshirilishi va natijada qanday moliyaviy natija olinishi mumkinligini belgilanishi keltirilgan”²³.

Umuman olganda, xorij olimlari bank resurslarini o‘z qarashlari orqali ifodalab ularning shakllanishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan ko‘ra, banklarning passivlariga kengroq e‘tibor berishgan. Bu holatni bir jihatdan ijobiy baholash mumkin, ya‘ni xorijiy banklar faoliyatida avvalambor, banklarning majburiyatlari va ularning bajarilishi, bizning fikrimizcha, asosiy vazifa qilib belgilab olingan.

Klassik iqtisodchilarning resurs yoki resurs bazasi xususidagi nazariy qarashlarini umumlashtirgan holda, ularning nazariy qarashlarida asosiy tushunchalar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- strategik yondashuvga asoslanish;
- barqaror raqobatbardoshlikni ta‘minlash;
- barqaror (strategik ahamiyatga ega) resurslarni jalb qilish va ularning nazoratini ta‘minlash;
- resurslarni samarali joylashtirish (transformatsiya qilish);
- yangi mahsulotlarni yaratish;
- innovatsiyalarni joriy etish;
- boshqaruvni tahlil qilish va muhim qarorlar qabul qilish va boshqalar.

Rossiyalik olimlar Ye.G. Shershneva, Ye.S. Kondyukovalarning fikriga ko‘ra bank resurs bazasini shakllantirish bo‘yicha bank operatsiyalarini 2 ga ajratib o‘rganilgan:

²³ Деньги, кредит, банки: Учебник/ коллектив авторов; под ред. Л.П.Кроливцевой.— Москва : КРОНУС, 2019.— 414 с.

1. O'z resurslarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalar;
2. Jalb qilingan resurslarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalar.

Bunda bankning o'z mablag'larini (kapitalini) shakllantirish operatsiyalariga ustav kapitali, turli fondlar va foydani shakllantirishni o'z ichiga olish nazarda tutilgan. O'z mablag'larining tuzilishi asosan bank faoliyatining davomiyligiga, uning tashkiliy-huquqiy shakliga va resurs siyosatiga bog'liqligi ta'kidlangan.

Bankning jalb qilingan resurslari ularni to'lovlilik, muddatlilik va qaytarishlilik tamoyillari asosida shakllantiriladi. Bankning depozit resurslari deganda joriy (hisob-kitob) hisobvaraqlari, talab qilib olinguncha omonatlari, muddatli omonatlar, jamg'arma sertifikatlar va xususiylashtirilgan metall hisobvaraqlari tushuniladi. "Bankning nobarqaror resurslari tijorat banklari tomonidan pul bozorida o'zining uzoq muddatli qarz majburiyatlarini sotish yoki boshqa banklardan, shu jumladan, Rossiya bankidan kredit olish yo'li bilan shakllantiriladigan resurslar bo'lib hisoblanadi- degan ta'riflarni shakllantirgan"²⁴. Biz mazkur mualliflar fikrlarini o'rgana turib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, umumiy holda berilgan ta'riflar bank amalga oshiradigan faoliyatlar xususiyatlaridan kelib chiqib yoritilgan. Lekin shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bizning xususiy banklari resurs bazasi shakllantirishda kengroq yondashish talab etiladi.

Resurs bazasi tushunchasiga qaytar ekanmiz, uni bank tashkilotining aylanmasida bo'lgan resurslarning yig'indisi sifatida tushunish an'anaviy hisoblanadi.

Ammo "resurs bazasi" kategoriyasi deganda bank mablag'larini oshirishi uchun foydalanadigan mablag'lar yig'indisi deb ham tushunish mumkin. Shuning uchun resurs bazasini tahlil qilayotganda, uni nafaqat hamma qabul qilgan bank ixtiyorida bo'lgan pul mablag'lari yig'indisi nuqtai nazaridan, balki "bankning resurs bazasi" kategoriyasiga bankning raqobatbardoshligini ta'minlash va qo'shimcha resurslarning kelishini rag'batlantiruvchi, bank tashkilotlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, tashkiliy resurslar (filiallar tarmog'i, banklarning kadr salohiyati, moddiy texnik bazasi)ni kiritish orqali tahlil qilishimiz mumkin.

²⁴Банковский менеджмент: Учебное пособие / Е.Г. Шершнева, Е.С. Кондюкова. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2017. — 112 с.

V.V. Kiselev ushbu tushunchani shunday talqin qiladi: “tijorat banklari resurs bazasi- bu bank tashkilotlari tomonidan xususiy kapital va jalb qilingan mablag’larni oshirish uchun olib boriladigan siyosat jarayonida vujudga keladigan va jamiyat va shaxsiy manfaatlarni qondirish maqsadida aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda qo’llaniladigan jami kapital”²⁵.

Bank resurs bazasining mohiyatini nisbatan yaxshi tushunish uchun uning tashkil topish manbalarini, ya’ni tarkibini tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin. Biz mazkur nazariyalarni o’rgana turib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bu nazariyalar asosan firma yoki xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatlari xususiyatlaridan kelib chiqib yoritilgan. Lekin shu o’rinda ta’kidlash lozimki, banklar va korxonalar faoliyat nuqtai-nazaridan tijorat hamda xo’jalik faoliyatiga asoslangan bo’lib hisoblanadi. Garchi, tijorat banklari bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan shug’ullanuvchi muassasa hisoblanmasada, tijorat banklari resurs bazasi xususiyadagi nazariyalarni shakllantirishda kengroq yondashish talab etiladi. Shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy operatsiyalari ko’lami firma yoki xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga qaraganda kengroq bo’lib hisoblanadi. Eng asosiysi shuki, jamiyatda ular faoliyatining barqarorligi bir-biriga chambarchas bog’liq.

Yuqorida ta’kidlangan resurs xususidagi nazariy qarashlardan kelib chiqib, banklarning resurs bazasi xususidagi nazariy qarashlarni shakllantirishga va ularning asosiy tamoyillarini yoritib o’tish joiz.

Tijorat banklarning resurs bazasi nazariyasi erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlikni ta’minlash maqsadida banklarning vakolatlari doirasida barqaror resurslarni jalb qilish va ularni samarali joylashtirishni ko’zda tutuvchi strategik yondashuv bo’lib hisoblanadi. Umuman olganda, iqtisodiy nazariya nuqtai-nazaridan tijorat banklari resurs bazasi iqtisodiyotda bank resurslariga bo’lgan ehtiyojning cheksizligi va cheklangan resurslar o’rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni hal etishga qaratilishi kerak.

O’zbekistonda bozor mexanizmlarining tobora keng joriy etilishi sababli bank

²⁵ Киселев, В. В. Управление банковским капиталом (теория и практика) / В. В. Киселев. – М.: Экономика, 1997. – 256 с.

resurslarini jalb qilishni markazdan rejalashtirish sharoitida qo'llanilgan rejali usullar amalda o'zining ahamiyatini yo'qotdi. Natijada, tijorat banklarda moliyaviy jihatdan barqaror va arzon resurs bazasini yaratish masalasi asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda «resurs bazasi» tushunchasi xorijlik olimlar, mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va tegishli ta'riflar berilgan. Umuman olganda, tijorat banklari resurslariga oid tadqiqot ishlarida “resurs” yoki “resurs bazasi” nazariyalariga oid tadqiqot qoidalarining ma'lum bir jihatlarini uchratishimiz mumkin. Shuningdek, G'arb olimlari bank resurslari mustaqil nazariy ahamiyat kasb etmaydi deb hisoblashsa, MDH va respublikamiz olimlari esa, tijorat banklari resurs nazariyalarini shakllantirishda asosan resurslar tarkibi nuqtai-nazaridan kelib chiqib yondashgan, shu bilan bir qatorda, ayrim respublikamiz olimlarining tadqiqot ishlarida tijorat banklari resurs nazariyalari asosan pul nazariyalariga asoslanadi. Tijorat banklarning resurs bazasi nazariyasini ayrim tamoyillari xorijiy, MDH va respublikamiz olimlari tomonidan o'rganilganligini quyida asoslab o'tishga harakat qilamiz.

Rossiyalik va O'zbekistonlik olimlar hamkorligida O.I.Lavrushin tahrir ostida chop etilgan “Bank ishi” darsligida “kredit tashkilotlarining resurslari-bankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, u aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi”²⁶. Bank resurslari kredit tashkilotlarining balans passiv qismida aks etadi”- deyilgan. Shu boisdan fikrimizcha, banklar resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil topganligini e'tiborga olish, balki bu resurslar bankning asosiy faoliyati uchun muhimligini va ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish lozim.

Mahalliy olimlarimizdan B. Shermuxammedov tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va samarali boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, banklarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Depozit bazasini kengaytirish: Mijozlar omonatlarini jalb qilish orqali banklar

²⁶ Банковское дело. Под редакцией О.И. Лаврушина М.КРУНОС. 2019 г. стр.192

o'z resurslarini ko'paytirishi mumkin.

Kredit siyosatini takomillashtirish: Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish lozim.

Investitsion faoliyatni rivojlantirish: Banklar investitsiya loyihalarida ishtirok etish orqali daromad manbalarini ko'paytirishi mumkin.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish: Yangi texnologiyalar va xizmatlarni tatbiq yetish orqali mijozlar bazasini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Albatta, muallif tomonidan berilgan ta'rifni qo'llab-quvvatlagan holda, bankning resurs bazasiga ham alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lardi deb hisoblaymiz.

Yana bir olimimiz Sh.Sh. Saipnazarov bank resurslari to'g'risida shunday fikr bildirgan: "bank resurslari — bu bankning siyosiy strategiyalari doirasida faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan moddiy va moliyaviy mablag'larning majmuasi bo'lib, ular bankning o'z kapitali hamda jalb etilgan resurslardan tashkil topadi. Ushbu resurslar bankning iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishda asosiy baza sifatida xizmat qilishi bilan birga, daromad keltiruvchi manbalar va iqtisodiy imkoniyatlarni ta'minlovchi zaxira vositalaridan iboratdir"²⁷.

Bizning fikrimizcha, banklarning resurslariga beriladigan ta'riflarda ularning shakllanish manbasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki bozor munosabatlari sharoitida bank resurslarini shakllantirish, ya'ni ularning manbalarini izlab topish birlamchi vazifaga aylanib bormoqda.

Professor A.R.Norov muallifligida chop etilgan "Bank ishi asoslari" darsligida tijorat banklari resurslarini boshqarishda makromuhit va mikromuhit konseptsiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotlarga ko'ra, makromuhit bankning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarini va iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqadigan omillarni ifodalaydi. Mikromuhit esa bankning ichki muhitida, xususan, mijozlarning roli va ularning ahamiyati bilan bog'liq. "Mijozlar tarkibi va ularning bank uchun iqtisodiy samarasini tahlil qilish moliyaviy resurslarni jalb qilish va ularni samarali taqsimlash

²⁷ Sh.Sh.Saipnazarov "Moliya va investitsiyalar" o'quv qo'llanma. TDIU – 2023-y. 57-b.

imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, mijozlar bilan strategik munosabatlar bankning faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi”²⁸. Bundan tashqari, professor A.R.Norov va Sh.Sh.Saipnazarovlar o’zlarning “Tijorat banklarida moliyaviy injirining metodologiyasini takomillashtirish” hammuallifligida chop etilgan monografiyasida “banklar tomonidan tashkil qilingan resurs baza turli xil kreditlar berish va moliyaviy injiniring orqali investitsiyalarni moliyalashtirish va boshqa aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun yo’naltirilishi mumkin. “Tijorat banklari resurs bazasi uning kredit potentsiali darajasini belgilaydi”²⁹, - degan fikrni berganlar. Aslida, banklarning resurs bazasi faqatgina bankning kredit potentsiali darajasi bilan belgilanmaydi. Aksincha, bankning barcha aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun manba hisoblanadi.

Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) N.M.Shamsiev tomonidan nashr etilgan “Tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish istiqbollari” nomli monografiyasida “Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo’yicha bankning o’z mablag’lari, ularga tenglashtirilgan mablag’lar hamda jalb qilingan mablag’larga ajratilgan”³⁰. Fikrimizcha, yuqoridagi N.M.Shamsiev tomonidan bank resurs bazasi xususidagi qarashlarida o’z mablag’lariga tenglashtirilgan mablag’lar tarkibini kengroq yoritib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bank resurslari to’g’risida i.f.n. B.Babaev “o’zining ilmiy tadqiqot ishida bank resurslarining mohiyati, tarkibi, resurslarni shakllantirish bilan bog’liq muammolar hamda ularni bartaraf etish yo’llarini keng ochib berishga harakat qilingan”³¹. Biroq, bizning fikrimizcha, bank resurslari va uning bazasini mustahkamlash bilan bog’liq muammolar mazkur muallifning ishida o’zining to’liq ifodasini topmagan.

F.I.Mirzaevning tadqiqotlarida Benchmarking kontseptsiyasi asosida bank mijozlarini doimiy ravishda nazorat qilishda BSC (balansda ushlab turish) usulidan

²⁸ A.R.Norov “Bank ishi asoslari”.-darslik.-TDIU.: -2022.-157b.

A.R.Norov., Sh.Sh.Saipnazarov “Tijorat banklarida moliyaviy injirining metodologiyasini takomillashtirish”. Monografiya.-T.: TDIU, 2023-yil, 98-b.

³⁰ N.M.Shamsiev “Tijorat banklarida depozit operatsiyalari samaradorligini takomillashtirish istiqbollari” monografiya. TDIU.: “Innovatsion nashriyot” 2024-yil 87-b.

³¹ Б.Б.Бабаев “Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использования”. Дис. на соиск уч. ст. к.э.н.-Т.: БФА.,2002.

foydalanishning afzalliklari asoslangan. “Banklarning yirik sarmoyali mijozlarining aylanma mablag’lari, kredit portfelidagi, passivlardagi va pul oqimidagi ulushi 25 foizdan tushib ketsa, zudlik bilan tahlil etilishi zarurligi asoslanib, ushbu holat mijozni doimiy nazorat qilish imkonini berishi ta’kidlab o’tilgan”³². Shuningdek, tijorat banklari resurs nazariyasini tadqiq etish bank resurs bazasi mustahkamligini ta’minlashning ichki tahlillariga asoslanadi. Bunda jamiyatdagi moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning ta’siri, bank rentabelligi ko’rsatkichlari, bank moliyaviy holati ko’rsatkichlari, bank boshqaruvi samaradorligi, bank boshqaruvchilari va menejerlari, ichki auditorlari, nazoratchilari, mutaxassislarning darajalari (inson omili), boshqaruv organlarining qarorlari, milliy me’yoriy-huquqiy normalar, ichki risklar, joriy, retrospektiv, istiqbolli tahlillarni nisbiy va mutloq ko’rsatkichlar yordamida amalga oshirish lozim. Shuningdek, bank resurs bazasi mustahkamligiga ta’sir etuvchi ichki omillarni aniqlash ob’ektivlik, muntazamlilik va intizomiylikka asoslanadi.

O.A.Ortiqovning ilmiy ishlarida “tijorat banklarining depozit xizmatiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarning mavjudligi asoslanib, unda respublikamizning yirik tijorat banklarida talab qilib olinadigan depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog’ining 50 foizdan yuqori ekanligi, aholining bo’sh pul mablag’larini jamg’arma depozit hisobvaraqlariga jalb etish darajasining pastligi ko’rsatib o’tilgan”³³.

O’zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.A.Omonov bank depozitlarini iqtisodiy mazmuni va muddatiga qarab to’rtta guruhga ajratish maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi. “Bank depozitlariga «talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvaraqlardagi depozitlar, muddatli depozitlar, jamg’arma depozitlar va boshqa depozitlar» kirishini ta’kidlaydi”³⁴.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarini bu tartibda guruhlanishi ularni moliyaviy jihatdan barqaror va nobarqaror mablag’larga hamda to’lovliligi jihatidan qimmat va arzon depozit mablag’lar sifatida tasniflashda muhim ahamiyat kasb etadi.

³² Mirzaev F.I. O’zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati - T.: 2009.-B.11

³³ Ortiqov O.A. Banklararo raqobat muhiti sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo’llari. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati - T.: 2009.-B.5-8.

³⁴ Omonov A.A. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. Monografiya. –Toshkent, Fan va texnologiya. – 2008. –257 b.

Mablag'larni tashkil topishi jihatidan qimmatli yoki arzon mablag'lar guruhiga ajratish mumkin. Bu erda asosiy e'tibor, depozit operatsiyalari natijasida vujudga keladigan mablag'larga qaratilib, yuqorida qayd etilgan nisbatan barqaror mablag'lar tijorat banklari uchun qimmat resurs manbalarini tashkil etadi. Arzon bank resurslari guruhiga esa, o'z – o'zidan aniqki nisbatan nobarqaror xususiyatga ega mablag'lar kiradi.

“Bank resurs bazasi” tushunchasi bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning turli yondashuvlari ustida o'tkazilgan tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, iqtisodiy adabiyotlarda resurs bazasining yagona ta'rifi mavjud emas, ammo olimlarning talqinlari bir-biriga o'xshash.

Mualliflarning kelgusida safarbar qilinadigan resurslarni ham resurs bazasiga kiritish maqsadga muvofiq degan tushunchasiga to'liq qo'shila olmaymiz, sababi, ma'lum qayd qilingan vaqt oralig'ida bank tashkilotlari ixtiyorida bo'lgan o'sha resurslarni tahlil qilish va baholashda “banklarning resurs bazasi” tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yuqorida aytib o'tilganlarni hisobga olgan holda xulosa qilish mumkinki, bank tashkilotlari faoliyatida resurs bazasining roli ahamiyatli, sababi banklarning bozor raqobatbardoshligi darajasi, bundan tashqari mamlakatning bank tizimining rivojlanishi, bank faoliyatining muvafaqqiyati unga bog'liq bo'ladi.

“Resurs bazasi” deganda bank tomonidan mulk va qarz majburiyatlari vujudga kelgan sharoitda foyda olish maqsadida bank resurslariga ehtiyoji bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida joylashtirish uchun safarbar qilingan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning va aholining oborotdan chiqarilgan pul mablag'lari.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, aynan tijorat banklarning resurs bazasi xususida quyidagicha mualliflik yondashuvini ishlab chiqdik. Tijorat banklarning resurs bazasi - o'z mablag'lar manbalari, bundan tashqari, raqobatbardoshlikning yuqori darajasini va ijobiy imidjini saqlash, daromad olish va balans likvidliligini ta'minlash maqsadida kelgusida moliyaviy resurslardan foydalanish salohiyatini oshirish va aktiv operatsiyalar hajmini kengaytirishda ishlatiladigan yuridik hamda

jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'lari hisobiga qaytarishlik sharti bilan bank tomonidan jalb qilinadigan mablag'lar yig'indisidir.

1.2-§. Tijorat banklar resurs bazasini iqtisodiy mohiyati va tarkibiy tuzilishi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning resurslari haqida fikr yuritganda "resurs bazasi" tarzida so'z ko'p qo'llaniladi. Banklarning resurs bazasi, makroiqtisodiy omil sifatida ularning likvidligini ta'minlashga va to'lov qobiliyatini mustahkamlashga bevosita ta'sir qiladi. Iqtisodiyotni boshqarishning markazdan rejalashtirish tizimida mijozlarning banklarga biriktirib qo'yilishi, banklarning esa hisob – kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirishda monopol huquqqa egaligi, shuningdek ularning harajat va daromadlari chegarasi yuqoridan belgilab berilganligi banklarda moliyaviy resurslarni jalb qilish, bank xizmatlari hajmini kengaytirish va ularni takomillashtirib borishdan manfaatdor bo'lmasligini keltirib chiqargan.

Tijorat banklari mamlakat moliyaviy tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, ularning samarali faoliyat yuritishi bevosita resurs bazasining hajmi va sifati bilan bog'liq. Bank resurslari – bu bankning o'z majburiyatlarini bajarishi va aktiv operatsiyalarni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar yig'indisidir.

Resurs bazasi tarkibiy jihatdan quyidagi asosiy manbalardan iborat:

1. Bank kapitali – bankning o'z mablag'lari bo'lib, ustav kapitali, zaxira fondlari va taqsimlanmagan foydadan tashkil topadi.
2. Jalb qilingan mablag'lar – mijozlarning depozitlari, jamg'arma hisobvaraqlari va muddatli omonatlaridan iborat bo'lib, bank faoliyatida asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.
3. Qarz mablag'lari – boshqa moliya institutlaridan, markaziy bankdan yoki xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilingan kredit hamda qarzlar.

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash barqarorlik hamda likvidlikni oshirish, shuningdek, investitsion imkoniyatlarni kengaytirish uchun muhim

omildir. Shu sababli, banklar resurslarni diversifikatsiya qilish va samarali boshqarishga alohida e'tibor qaratadilar.

Bizning nazarimizda, xususiy banklarning resurs bazasini iqtisodiy mohiyati xususida so'z yuritishdan oldin, "xususiy bank" atamasini aniqlab olish juda muhim. Xususiy bank bu - alohida shaxs yoki cheklangan umumiy sheriklar tomonidan tashkil etiladigan bank hisoblanadi. "O'zbekiston bank amaliyotida, xususiy banklar ustav fondida (ustav kapitalida) muassislar (ishtirokchilar) bo'lgan jismoniy shaxslarning ulushi kamida ellik foizni tashkil etishi lozim bo'lgan banklar va boshqa kredit tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, shuningdek faqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi o'zga yuridik shaxslardir",³⁵. Bunday banklar korporatsiya ko'rinishida bo'lmaydi. Bu banklarning tarixi Shvetsariya va Buyuk Britaniyaga borib taqaladi.

Yevropada ko'plab xususiy banklar bor edi, lekin ularning aksariyat qismi korporatsiyaga aylantirilgan, shuning uchun ham bu termin (atama) o'z kuchini yo'qotmoqda. Bugungi kunda "xususiy bank" atamasi deganda, yuqori foydaga ega alohida shaxslar (high-net-worth individuals (HNWI) yoki private banking) uchun moliyaviy maslahatlar va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan moliyaviy institutlar tushuniladi³⁶.

Xususiy bank faoliyati (private banking) bu banklar tomonidan yirik miqdordagi aktivlarni sarmoya qiluvchi alohida shaxslarga investitsiya va boshqa moliyaviy xizmatlarni ko'rsatilishidir. Xususiy bank faoliyati bankni tashkil etish usuli bo'lib, Venetsiyada ilk banklar boy oilalarning shaxsiy moliyasini boshqarishga asoslangan. Tarixan, xususiy banklar Yevropada rivoj topgan. Yevropada ba'zi banklar qirollik oilasining aktivlarini boshqarish bilan shug'ullangan. Masalan, Lixtenshteynning Printsely oilasi mulki LGT Group³⁷ (1920 yilda tashkil topgan) tomonidan, Britaniya qirollik oilasining mulki esa Coutts tomonidan boshqarilgan. Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri bu ularning barqaror hamda yuqori darajadagi moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligidir. Xususiy banklarning

³⁵ O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 17-dekabrda "Xususiy banklar va moliya institutlari hamda ularni faoliyatini kafolatlash to'g'risida"gi Qonuni

³⁶ Youssef Cassis, Philip Cottrell // The World of Private Banking // Ashgate Publishing, Ltd., 2009 – pp 32

³⁷ Youssef Cassis, Philip Cottrell, Iain L. Fraser// The World of Private Banking. Studies in Banking and Financial History //. Routledge, 2016 – pp 48

mustahkam va barqaror resurs manbai ularning yuqori rentabellikka erishishi yoki aktiv operatsiyalarining sifatini hamda uning ko'lamini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi, sohalarning taraqqiy etishi natijasida bankning moliyaviy xizmatlariga bo'lgan talab ham oshib boradi. Shundan kelib chiqqan holda, banklar ushbu talablarni qondirish maqsadida o'z mablag'laridan hamda jalb qilingan mablag'lardan foydalanishadi. O'z mablag'lari miqdorini doimiy ravishda kengaytirish imkoniyati cheklanganligi bois, banklar uchun asosiy moliyaviy resurs manbai bo'lgan jalb qilingan mablag'laridan foydalanishadi. Jalb qilingan mablag'larining muddatlari, miqdorlari hamda ularning sifatini nazorat qilish, banklarning joriy va strategik rejalarini belgilash shuningdek, likvidlilik, to'lovga layoqatlilik va moliyaviy barqarorlilik ko'rsatkichlarini nazorat qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda moliyaviy resurslar taqchilligi muammosi o'zgacha dolzarblik kasb etib, xususiy banklarning resurs bazasi shakllanishi jarayoni va uning hajmini oshirilishi, tarkibini mustahkamlash va uni boshqarish usulini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Umuman oladigan bo'lsak, xususiy banklarning resurs bazasini shakllantirish ma'lum – iqtisodiy, moliyaviy (iqtisodiy monetizatsiya darajasi, soliq siyosati xususiyatlari, mamlakatda xorijiy investitsiyalarning o'sishi, nobank moliya-kredit vositachilarning faoliyati, davlat kreditlari, bozor konyukturasi, iqtisodiy o'sish sur'ati va boshqa) omillar ta'siri ostida yuzaga keladi.

Tijorat banklarning resurs bazasini shakllantirishda moliyaviy, demografik, siyosiy va ijtimoiy omillar ta'siri ostida jamlangan aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning jamg'armalari katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda, banklarning resurs bazasini shakllantirish mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bank sektori o'z tasarrufida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatidagi joriy ehtiyojlarni kreditlash, bundan tashqari investitsion faoliyatni rag'batlantirish, kerakli zaxiralarni yaratish va likvidlilik darajasini ushlab turish bilan bog'liq operatsiyalar uchun yetarli mablag'lar hajmiga ega bo'lishi zarur. Bank resurs bazasining yetarli hajmi aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkasi darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklarning resurs bazasi uning aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda o'ziga xos moliyaviy element hisoblanadi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyotining hozirgi sharoitida resurslarni izlash va jalb qilish muammosi banklar jadal rivojlanishi uchun birinchi darajadagi ahamiyatga ega. Tijorat bank resurs bazasining mohiyatini nisbatan yaxshi tushunish uchun uning tashkil topish manbalarini, ya'ni tarkibini tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin.

Bank faoliyatini tashkil qilishning ilk bosqichi, bank resurslarini shakllantirishdan iborat. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar qatori, tijorat banklar ham mustaqil faoliyat yurituvchi sub'ekt sifatida o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur bo'lgan talablardan biri, bu bankning talab darajasidagi minimal kapitaliga ega bo'lishidir. Shu bois, banklar faoliyatini olib borish avvalo, yetarli miqdordagi bank resurslarining mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bank resurs bazasining mukammal tashkil qilinishi va tejamli ishlatilishi har qanday bank faoliyatining samarali olib borilishiga zamin yaratadi. Hosil qilingan resurslar banklarning tijorat va xo'jalik faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank resurs bazasini shakllantirish, ular sifatini oshirish va oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarning resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o'zgartirib turishni ham o'z ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda albatta, tijorat banklarning faoliyatiga ham alohida e'tibor berish kerak. Tijorat banklarning resurs bazasini shakllanishiga mamlakatning moliyaviy tizimida tutgan o'rni ta'sir ko'rsatadi:

- pul bozorida vositachi sifatida;
- moliyaviy tavsifga ega yuqori darajadagi risk bilan o'z faoliyatini amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlar sub'ekti sifatida;
- daromad olish maqsadida o'z faoliyatini tijorat bilan boshlagan xo'jalik yurituvchi sifatida.

Bunga qaramay, bank tashkilotlari o'z resurs bazasini shakllantirishni quyidagicha amalga oshiradi:

1. Bank o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarishi, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash maqsadida o'zining xususiy kapitalini shakllantiradi;

2. Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni safarbar etishni va ularni kapitalga aylantirishni amalga oshiradilar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslardan jalb qilingan pul mablag'larini o'zining nomidan tavakkalchilik asosida joylashtiradilar, bank hisobvaraqlarini ochadilar va xizmat ko'rsatadilar.

3. Qarz qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish va sotish orqali mablag'larni o'zlashtiradilar, mustaqil kredit tashkilotlaridan va boshqa banklardan kredit ko'rinishida mablag'lar oladilar.

Ma'lumki, banklar zarur miqdorda resurslar bilan ta'minlanishi bir tomondan ularning passiv operatsiyalarini samarali tashkil etish va boshqarishni talab etsa, ikkinchi tomondan, mijozlarni shu resurslar doirasida pul mablag'lariga bo'lgan qisqartirishni talab etadi. Shu bois, xususiy banklar resurs bazasini mustahkamlashda asosiy e'tibor bank balansi passividagi mablag'lar manbalariga qaratiladi. Ushbu mablag'lar ikki yirik guruhga: bankning o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'larga bo'linadi. Buni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.

Depozitlar		
Muddatli depozitlar	Talab qilib olinguncha	Jamg'arma depozitlar
3 oygacha	LORO	Muddatli
	Kontokorrent	Muddatli (qo'shimcha quyilmalar bilan)
3-6 oygacha	Overdraft	Shartli
6-9 oygacha		Shaxsiy talab qilib olinguncha
9-12 oygacha	NOSTRO	Talab qilib olinguncha
		Joriy hisob raqamda

1.1-rasm. Tijorat banklarning depozit tarkibi³⁸.

“Jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning ahamiyati juda katta bo'lib, jami resurs bazasi tarkibida jalb qilingan mablag'lar 70-80 foizni

³⁸ Nazariy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

tashkil qiladi”³⁹. “Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo’sh pul mablag’laridan foydalanish orqali, banklar ular yordamida yuridik shaxslarning va aholining qo’shimcha aylanma mablag’larga bo’lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi”⁴⁰.

Umuman olganda, bankning asosiy vazifalaridan biri bo’sh pul mablag’larini imkon qadar ko’prok jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat. Shundan kelib chiqib, resurslar bank faoliyatini keng olib borishga asos bo’lib, bankka ma’lum miqdorda daromad keltira olish qudratiga ega bo’lgan zaxira va imkoniyatdir. Banklar o’zining kredit siyosatini ishlab chiqqanda yoki uzoq davrga o’z faoliyatining startegik yo’nalishlarini belgilaganda shu zaxira va imkoniyatlarning ko’lamini keng ko’rib chiqishi va resurslarni o’z faoliyat yo’nalishlarining daromad manbalari sifatida nazarda tutishi lozim.

Tijorat banklarning o’z mablag’lari - bu bankka tegishli bo’lgan mablag’lar bo’lib, ularga bank kapitali, taqsimlanmagan foyda, kelgusi davr daromadlari va hisob-kitoblar tizimidagi o’z mablag’lar kiradi. Demak, bankning o’z mablag’lari deb - tijorat faoliyatidagi moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun hosil qilingan turli fondlar hamda o’tgan va joriy yil faoliyatidan olingan daromadni tushinish kerak.

Bankning o’z mablag’lari xususiy banklar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ustav kapitali;
- zahira kapitali;
- maxsus fondlar;
- moddiy rag’batlantirish fondi;
- taqsimlanmagan foyda.

Banklarning zaxira kapitali yoki zaxira fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo’ladi va ko’zda tutilmagan zararlar hamda qimmatbaho qog’ozlar kursining tushishi natijasidagi yo’qotishlarni qoplash uchun mo’ljallangan.

³⁹ Банковское дело. Экспресс-курс: учебное пособие/кол. авторов; под ред. О.И.Лаврушина. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2016.-352с.

⁴⁰ О.И.Лаврушина. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2016.-354с.

Taqsimlanmagan foyda – zaxira fondiga ajratmalar va dividendlar to'langandan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir.

Shuning uchun ham dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan majburiy talab o'rnatilgan.

1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari ustav kapitalini minimal miqdoriga qo'yilgan talablar⁴¹

Yillar	Aksiyadorlik tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1998	1,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1999	2,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
2000	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
2002	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	1,25 mln AQSh dol. ekv. so'mda
2005	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	2,5 mln AQSh dol. ekv. so'mda
2008	5,0 mln.evro ekv. so'mda	5,0 mln.evro ekv. so'mda	2,5 mln.evro ekv. so'mda
2009	10,0 mln.evro ekv. so'mda	10,0 mln.evro ekv. so'mda	5,0 mln.evro ekv. so'mda
2017	100 mlrd.so'm		

Bankning ustav kapital summasi bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Agar tijorat banklar resurs bazasi iqtisodiy mohiyati va tarkibiy tuzilishi bank aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil qilinsa, ustav kapitali aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li bilan shakllantiriladi. Banklarning ustav kapitalining maksimal summasi qonun yo'li bilan cheklanmagan bo'lsa-da, Markaziy bank tomonidan uning minimal miqdori belgilanadi. Bu talab bank tizimining barqarorligini ta'minlash va moliyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida joriy etilgan. Ustav kapitalining hajmi bankning risklarga chidamliligini oshirish bilan bir qatorda, uning moliyaviy mustahkamligini ta'minlovchi muhim omil sifatida ham namoyon bo'ladi.

⁴¹ www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi uchun ularning resurs bazasining tarkibi diversifikatsiyalangan bo'lishi lozim. Bu jarayonda ustav kapitali bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklardan himoyalaniş vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Bank kapitaliga faqatgina moliyalashtirish manbai sifatida emas, balki xavflarni minimallashtiruvchi himoya vositasi sifatida qarash lozim. Shu boisdan, bank kapitali tarkibini barqaror resurslardan shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalar bevosita yoki bilvosita bank kapitalining yetarliligi va sifati bilan uzviy bog'liqdir. Har qanday tijorat bankining moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobiliyatini baholashda kapital yetarliligi muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Yetarli miqdordagi kapitalga ega bo'lish tijorat banklariga likvidlikni ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va operatsion faoliyat davomida yuzaga keladigan risklardan samarali himoyalaniş imkoniyatini beradi.

“Kapital yetarliligi” tushunchasi bankning umumiy ishonchliligiga baho beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari uchun kapital yetarliligi bo'yicha jahon standartlariga mos keluvchi talablarni joriy etish strategik maqsadlarga aylangan. Kelgusi yillarda ushbu me'yorlarning yanada oshirilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, xususiy banklar uchun asosiy kapital yetarliligi ularning faoliyatiga nisbatan qo'llaniladigan iqtisodiy normativlarni aniqlashda muhim iqtisodiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, xususiy banklarning regulyativ kapitali tarkibini batafsil o'rganish maqsadga muvofiqdir. Regulyativ kapitalning yetarli darajada shakllanishi tijorat banklarining risklarga bardoshlilikini oshiradi va moliyaviy inqirozlar sharoitida barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, bank kapitalining tarkibiy tuzilishini yanada takomillashtirish va ularning moliyaviy resurslarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, tijorat banklarining kapital yetarliligi oshib, bank tizimining umumiy barqarorligi va ishonchliligi ta'minlanadi.

Regulyativ kapital — “bank faoliyatini tartibga solish va prudentsial normativlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisob-kitob qilish yo’li bilan aniqlanadigan bank kapitali”⁴².

Regulyativ kapital = I darajali kapital + II darajali kapital

I darajali kapital I darajali asosiy kapital va I darajali qo’shimcha kapitalni o’z ichiga oladi.

1.2-jadval

Tijorat banklarning I darajali kapital tarkibi⁴³

№	I darajali asosiy kapital	№	I darajali qo’shimcha kapital
1	Bankning to’liq to’langan oddiy aksiyalari	1	Nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar
2	Qo’shilgan kapital — oddiy aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to’langan summa;	2	Qo’shilgan kapital — imtiyozli aksiyalarni birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to’langan summa;
3	Ozchilik ulush egalarining bank yig’ma balansiga birlashadigan korxonalaridagi ulushlari. Bu ulush sho’ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi;	3	I darajali qo’shimcha kapitalga qo’shilish shartlariga javob beruvchi sho’ba korxonalarning ishtirok etish ulushi (sho’ba korxonalari tomonidan chiqarilgan va uchinchi shaxslar ixtiyorida bo’lgan kapitalga tenglashtirilgan vositalar).
4	Taqsimlanmagan foyda		
5	Devalvatsiya zaxirasi		

1.2-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, xususiy banklarning I darajali kapitalining asosini I darajali asosiy kapital tashkil etadi. Sababi har qanday bank I darajali asosiy kapitali shakllanmagan bo’lsa, o’z faoliyatini to’liq tashkil eta olmaydi.

⁴² O’zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr. 3-modda.

⁴³ O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 6-iyuldagi “Tijorat banklari kapitali monandligiga qo’yiladigan talablar to’g’risida” gi 2693-sonli Nizom ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ko'pchilik adabiyotlarda regulyativ kapital deganda I darajali va II darajali kapital yig'indisidan iborat deb ta'kidlashadi. Lekin birinchi darajali kapital tarkibidan bir nechta elementlar chegirilgandan keyin ikkinchi darajali kapital bilan qo'shilib regulyativ kapitalni hosil qiladi. Bundan tashqari, I darajali kapitalni hisoblab chiqarishda I darajali asosiy kapital va I darajali qo'shimcha kapital yig'indisidan quyidagilar chegiriladi:

- nomoddiy aktivlar;
- birlashmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kapitaliga barcha investitsiyalar summasi, shu jumladan bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kapitalini tashkil qiluvchi qarz majburiyatlari;
- boshqa banklarning kapitaliga qilingan investitsiyalar.

Tijorat banklarning II darajali kapitali tarkibiga esa quyidagi 1.3-jadvalda ko'rish mumkin.

1.3-jadval

Tijorat banklarning II darajali kapital tarkibi⁴⁴

№	II darajali kapital tarkibi
1	Joriy yildagi sof foydasi
2	Chegirmalardan so'ng tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasining 1,25 foizidan yuqori bo'lmagan miqdordagi standart kreditlarga (aktivlar) yaratiladigan zaxiralar;
3	Chegirmalardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aktsiyadorlik va qarz kapitali xususiyatlariga ega bo'lgan vositalar).
4	Subordinar qarz
5	Aktivlarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasining 45 foizi miqdori.

1.3-jadval ma'lumotlaridan e'tibor berishimiz kerak bo'lgan "subordinar qarz" tushunchasi mavjud. "Subordinar qarz - bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali kapitalning

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 6-iyuldagi "Tijorat banklari kapitali monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi 2693-sonli Nizom ma'lumotlari asosida tuzilgan.

uchdan bir qismidan oshmasligi kerak”⁴⁵. Demak, subordinar qarz xususiy bank uchun majburiya hisoblanar ekan. O’z navbatida esa, II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

birinchidan, garov ta’minotiga ega bo’lmasligi;

ikkinchidan, xususiy bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo’yicha talablar depozitorlar va bankning boshqa kreditorlari talablari qondirilganidan so’ng amalga oshirilishi;

uchinchidan, boshlang’ich to’lov muddati 5 yildan keyin bo’lishi;

to’rtinchidan, qarzdor bank yoki unga aloqador shaxslar tomonidan boshqa aktivlarga kafolat va ta’minot sifatida qo’yilmagan, ya’ni bank depozitorlari va kreditorlari talablariga tenglashtirilmagan bo’lishi;

beshinchidan, muddatidan avval O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan qaytarilishi.

Yuqoridagi holatlarga javob bergan subordinar qarzlarinigina bank kapitali tarkibiga qo’shishimiz mumkin.

“I darajali kapital regulativ kapitalning 75 foizidan kam bo’lmasligi lozim. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdorining uchdan bir qismidan oshib ketsa, oshgan summa regulativ kapital tarkibiga kiritilmaydi”⁴⁶.

Tijorat banklarning resurs bazasining asosiy manbai sifatida salmoqli qismini jalb qilingan mablag’lar tashkil qiladi. Jalb qilingan resurslar tarkibini o’rganishda ularni turli xil nuqtai nazar bilan ko’rib chiqish mumkin: mijozlar turi bo’yicha, jalb qilish muddati va shartlari bo’yicha, bahosi bo’yicha, barqarorligi va boshqalar⁴⁷.

Jalb qilingan resurslar depozit va nodepozit asosda shakllantirilishi mumkinligini yuqorida ta’kidlab o’tgan edik. Jalb qilingan mablag’ manbasini tasniflashning asosiy belgisi bo’lib, ushbu operatsiyani tashabbuskori kim ekanligi

⁴⁵ O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 6-iyuldagi “Tijorat banklari kapitali monandligiga qo’yiladigan talablar to’g’risida” gi 2693-sonli Nizom ma’lumotlari asosida tuzilgan.

⁴⁶ O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 6-iyuldagi “Tijorat banklari kapitali monandligiga qo’yiladigan talablar to’g’risida” gi 2693-sonli Nizom ma’lumotlari asosida tuzilgan.

⁴⁷ Holov N.Q. “Tijorat banklari barqarorligini mustahkamlash metodologiyasini takomillashtirish” 2025-yil i.f.d. dis. Avtoreferati TDIU.:2025-yil. 22-b.

hisobga olinadi. Depozit resurslari tarkibiga bankka mijozning xohishiga ko'ra joylashtirilgan pul mablag'lar kiradi.

Nodepozit xarakterdagi resurslar bankning tashabbusiga ko'ra jalb qilingan mablag'larni ifodalaydi. Nodepozit xarakterdagi resurslar banklar o'zlarining qimmatli qog'ozlarini (depozit sertifikat, obligatsiya) chiqarish va banklararo bozorda sotib olishi natijasida hosil bo'ladi. Banklararo bozorda resurslarni tijorat banklaridan yoki Markaziy bankdan sotib olish mumkin.

Resurslarni jalb qilish shartlariga bog'liq holda ularni egalari olish imkoniyatiga ko'ra muddatli va talab qilib olingungacha depozitlarga ajratiladi.

Markaziy bank tomonidan taqdim qilish shartiga ko'ra resurslar maqsadli bo'lishi mumkin va ma'lum loyihalarni hamda mijozlarni kreditlash uchun foydalaniladi.

Bank mablag'lari manbasi uning resurs bazasini tasniflashni asosiy belgisi hisoblanadi, biroq bank resurs bazasini boshqa belgilari bo'yicha ham tasniflash mumkin, masalan, resurslar bahosi bo'yicha, u yoki bu resursning bankning likvidligi va daromadligiga ta'siriga ko'ra tasniflash mumkin. Bank resurslari qiymatini e'tiborga olib, shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: bepul, arzon va qimmat resurslar. Bepul resurslarga asosan ortib borish manbasi foyda bo'lgan o'z mablag'larining ma'lum qismi kiradi.

Bepul resurslarga mijozlar hisobvaraqlar bo'yicha foizlar hisoblash ko'zda tutilmagan qoldiqlar bo'lishi mumkin. Arzon resurslar talab qilib olingungacha resurslar hisoblanadi. Qimmat resurslarga muddatli va banklararo bozorda sotib olingan resurslarni kiritish mumkin. Masalan, 2020 yil 12 may holatiga banklararo bozorda 91-180 kun oralig'ida sotib olingan resurslar uchun banklar 20,0 foiz to'lashi kerak. Muddatli depozitlarning o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 1 yildan ortiq muddatli depozitlari uchun esa 18,3 foizni tashkil etmoqda⁴⁸. Bank resurslarining bahosi uning daromadlilikiga bevosita ta'sir qiladi, bank likvidligi esa ko'p hollarda mijozlar mablag'lari qanday shartlarda jalb qilinganligiga bog'liq bo'ladi va ularni bir vaqtda qaytarib olish ehtimoliga bog'liq bo'ladi.

⁴⁸ www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jalb qilingan resurslarni mijozlar turiga ko'ra tasniflash mumkin: banklar, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar.

Bank resurslarini tasniflash belgisi bo'lib, ularni shakllantirilgan valyutalar turlari bo'lishi mumkin: milliy va xorijiy valyutalar.

Bank resurs bazasi tarkibi to'g'risida shuni ta'kidlash zarurki, bank passivlari tarkibi xo'jalik sub'ektlari passivlari tarkibiga qaraganda o'ziga xos xususiyatga ega. Bankning o'z mablag'lari jalb qilingan mablag'larga qaraganda katta ulushni tashkil qilmaydi. Ushbu holat qator sabablarga bog'liq:

Birinchidan, banklar o'z faoliyati davomida mijozlarning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini qayta taqsimlab, asosan "o'zga" mablag'lardan foydalanadilar.

Ikkinchidan, bank aktivlari korxonalar aktivlariga qaraganda ancha likvidliroq, bank aktivlari asosan pul shaklida bo'ladi, korxona aktivlari esa asosiy vositalar va ishlab chiqarish zaxiralari sifatida saqlanadi. Ushbu holat bankka pul mablag'larini tezroq harakatlantirib, kreditorlar oldida o'z majburiyatlarini bajarish imkonini beradi va o'z mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi.

Omonat (depozit) – talab qilinishi bilanoq yoki to'lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to'lovni oluvchi shaxs yohud ularning qonuniy vakillari o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'lagan holda yohud bunday to'lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi.⁴⁹ Depozitlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir qancha guruhlarga bo'lish mumkin:

- talab qilib olungungacha depozitlar;
- muddatli depozitlar;
- jamg'arma depozitlari⁵⁰.

Talab qilib olingungacha depozitlarning asosiy xususiyati, ularning egalari bankni oldindan xabardor qilmasdan, ushbu mablag'lardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lib, ular hisobidan to'lovlar to'lashi va pul o'tkazishi, naqd ko'rinishida olishi, ularni saqlash uchun qo'yishi va to'liq qaytarib olishi mumkin. Bunday hisobvaraqlarni ochish tashabbusi mijoz tomonidan kelib chiqib, hisob-kitoblarni amalga

⁴⁹O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr. 6-modda.

⁵⁰ Saipnazarov Sh.Sh. "Moliyaviy injiniring metodologiyasini takomillashtirish"- 2024-yil i.f.d. dis. Avtoreferati TDIU.:2025-yil. 22-b.

o'shish uchun va to'lovlarni to'lash va pul mablag'i olish bilan bog'liq ehtiyoj yuzasidan kelib chiqadi. Mijozlar uchun ushbu hisobvaraqlar yuqori likvidliligi sababli juda qulay hisoblanadi, kamchiligi ushbu hisobvaraqlarga banklar yuqori bo'lmagan depozit foizlari hisoblashadi yoki umuman hisoblanmaydi. Ushbu depozitlarni banklar uchun asosiy noqulayligi, bir vaqtning o'zida qaytarib olishi mumkinligi va shunga o'xshash majburiyatlar bo'yicha to'lovlar uchun zaxira mablag'larini ushlab turish zarurligi bilan bog'liq yuqori riskni mavjudligidadir.

Depozit resurslarning barqaror qismi bo'lib, muddatli depozitlar hisoblanadi. Muddatli depozitlar – bu bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan muddat davomida depozit hisobvaraqlarda saqlanayotgan pul mablag'laridir.

Muddatli depozitlar turlicha va ular quyidagilarni tashkil etadi:

- minimal summa bilan chegaralangan va cheklanmagan miqdordagi omonat;
- chaqirilib olinmaydigan – bir tomonlama chaqirib olish imkoniyati mavjud bo'lmagan omonat;
- chaqirilib olinadigan – bir tomonlama chaqirib olish imkoniyati mavjud bo'lgan omonat;
- to'ldiriladigan (qo'shiladigan) – omonatchiga davriy ravishda to'ldirish badallar bilan to'ldirish imkoniyati mavjud;
- to'ldirilmaydigan omonat;
- to'liq muddatga fiksirlangan foiz stavkali omonat;
- fiksirlangan foizli ma'lum muddat davomida o'sib boruvchi omonat;
- fiksirlanmagan belgilangan muddat davomida suzib yuruvchi foizli omonat;
- kapitallashib boruvchi omonat asosiy summasiga hisoblangan foiz qo'shilib boruvchi omonat;
- konvertatsion (o'zgartiriladigan) omonat;
- xorijiy valyutaga o'tkazish imkoniyatini beruvchi omonat.

Bank uchun likvidlikni boshqarish nuqtai nazaridan muddatli depozitlar maqbul manba hisoblanib, ushbu mablag'larni egalariga qaytarish kelishilgan ma'lum muddatdan so'ng amalga oshirilib, ushbu muddat davomida ulardan foydalanish

imkoniyatiga ega bo'ladi. Muddatli depozitlarga talab qilib olingungacha depozitlarga qaraganda yuqori foizlar to'lanadi. Muddatidan oldin depozitlarni qaytarib olish mijozlarga sezilarli daromad yo'qotishlariga olib keladi.

Jamg'arma depozit muddatli depozitdan farqlanib, bank omonati shartnomasida belgilangan muayyan maqsadga yo'naltiriladigan yoki boshqa shartlar asosida jalb qilingan omonatlar – jamg'arma omonatlar hisoblanadi. Jamg'arma omonatlar bo'yicha bank bilan omonatchi o'rtasida bank omonati shartnomasi tuzilishi va omonatchi shartnoma tuzganidan so'ng, bank omonat shartnomasida ko'rsatilgan omonat summasi qo'yilishi shart. Jamg'arma omonatlar bo'yicha bank omonati shartnomasiga muvofiq qo'shimcha mablag' kiritilishi mumkin. Qo'shimcha mablag' kiritish tartibi bank omonati shartnomasida aniq belgilanishi lozim.

Tijorat banklar resurs bazasini shakllantirishning nodepozit manbalari qatoriga chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlarni kiritishimiz mumkin. Tijorat banklardagi qarz qimmatli qog'ozlarining tarkibiga depozit va jamg'arma sertifikatlar, obligatsiya, veksellarni kiritish mumkin. Depozit va jamg'arma sertifikatlar erkin aylanadigan qimmatli qog'oz hisoblanadi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra depozit va jamg'arma sertifikatlar bir biridan farqlanmaydi, moliyaviy instrument bo'lib, fond va depozit xususiyatlarini mujassamlashtirgan. Ushbu ikki turdagi qimmatli qog'ozning bir biridan farqi faqat bank qonunchiligining shartli sub'ektiv belgilariga ko'ra ajratiladi: "depozit sertifikatlar" – yuridik shaxslar uchun, "omonat sertifikatlar" – jismoniy shaxslar uchun.

Depozit (omonat) sertifikati – bankka qo'yilgan depozit (omonat) summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) depozit (omonat) summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy egasining nomi yozilgan qimmatli qog'oz⁵¹. Bank sertifikatlarini chiqarishdan asosiy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2008-yil 24-sentyabrda 1859-son bilan ro'yhatga olingan "Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risida"gi nizom.

1) bank resurslari salohiyatini oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslardan vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tezkor jalb etish.

2) belgilangan muddat va daromadlilik bilan bank likvidligini boshqarish.

3) xizmatlar diversifikatsiyasi orqali mijozlarni jalb qilish.

Bank tizimiga qo'shimcha bo'sh pul mablag'larini jalb etishning yana bir yo'li – bu bank obligatsiyalarini muomalaga chiqarishdir. Mablag'larni jamg'arishda obligatsiyalar yanada rivojlanib, o'zining qator ustunliklariga ega bo'lib, ular quyidagilar:

- qat'iy belgilangan daromad;
- daromadni hisoblash qulay va oddiy;
- obligatsiyaning erkin aylanishi;
- harakatchanligi, bitimlarni rasmiylashtirish oddiyligi;
- obligatsiya istalgan jismoniy shaxsga o'tkazib berilishi yoki boshqa shaxsga (ishonchnoma, vasiyat) taqdim eta olish imkoniyati mavjud.

Mablag'larni jalb qilishda sertifikatlar va obligatsiyalardan tashqari, bank veksellari chiqarilishi mumkin. Bankning oddiy vekseli – bu veksel ushlovchiga ko'rsatilgan muddatda va summada mablag'larni to'lash majburiyatini belgilovchi qimmatli qog'oz. Bank veksel summasiga diskont sifatida foiz yoki daromad to'lashi mumkin. Afsuski, hozirgi kunda bizning bank amaliyotimizda veksellardan foydalanilmaydi.

Tijorat banklarning depozitsiz resurslari tarkibida yirik manbalardan biri banklararo kreditlar hisoblanadi. Banklararo kredit xususiy banklarga qo'shimcha moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini zudlik bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. Bunday resurslar muddati jihatidan bankka barqaror manbalar hisoblanadi.

Tijorat banklarning resurslarni jalb qilishning maqbul usullaridan yana biri subordinar qarz majburiyatlarini jalb qilish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, hozirgi sharoitda bank resurslarining manbalari juda ko'p qirrali bo'lib, mamlakatda moliya bozorlarining keng ko'lamda ishlashini ta'minlash ularni yetarli va zarur darajada shakllantirish imkoniyatini beradi.

1.3-§. Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlashning xorij tajribasi

Xorijiy mamlakatlarda tijorat banklar aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning asosiy manbasi bo'lib, mijozlardan jalb etilgan muddatli va jamg'arma depozitlari hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, kapital tijorat banklarning faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanadi; ikkinchidan, tijorat banklar faoliyatining mohiyatiga ko'ra, aholi va korxonalarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini depozit hisobvaraqlariga jalb qilish va ularni kreditlar, investitsiyalar shaklida joylashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlari hisoblanadi; uchinchidan, banklararo kreditlar nisbatan qimmat moliyaviy resurs hisoblanadi, shu sababli, undan aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda foydalanish tijorat banklar foizli xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi; Butun dunyoda 2024-yil bo'yicha eng yaxshi xizmatlar ko'rsatagan banklar quyidagi jadvalda keltiriladi.

1.4-jadval

Eng yaxshi xizmatlar ko'rsatgan tijorat banklarning o'ntaligi⁵²

2024-yilda egallagan o'rni	Tijorat banklar ro'yxati	2023-yilda egallagan o'rni
1	UBS	1
2	Credit Suisse	2
3	JP Morgan	3
4	Citi	5
5	Julius Baer	7
6	BNP Paribas	4
7	Pictet	8
8	Santander	6
9	HSBC	10
10	Goldman Sachs	9

1.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dastlabki 3 ta bank 2024-yilda o'z o'rnini saqlagan holda, BNP Paribas 4 - o'rindan 6 - o'ringa, Santander esa 6 - o'rindan 8 - o'ringa tushib ketishdi, aksincha, pozitsion o'zgarish hisobiga qolaversa,

⁵² <http://www.ecb.europa.eu> - Euromoney yillik hisoboti (2024-yil) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

yangi bank xizmatlarini joriy qilish hisobiga Citi 5 - o'ndan 4 – o'ringa, Julius Baer esa 7 - o'ndan 5-o'ringa ko'tarildi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, top-10 ta bankning asosiylari AQSh va Yevropa hududida joylashgan banklarga to'g'ri kelmoqda. Ularning barchasi rivojlangan mamlakatlarda joylashganligi bilan ham ahamiyatlidir. Bu albatta, banklarning resurs bazasi mustahkam ekanligini hisobga olgan holda tuzilgan reyting hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar banklarining resurs bazasini o'rganish respublikamiz banklarining resurs bazasini boshqarish va uni mustahkamlash uchun juda muhim hisoblanadi. E'tirof etish lozimki, rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida banklarning resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha ma'lum darajada tegishli tajriba va andozalar mavjud bo'lib, ularning ijobiy jihatlarini mamlakatimiz banklariga tadbiq etish foydadan holi bo'lmaydi. Lekin shuni alohida aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda ham banklarning resurs bazasini mustahkamlash va boshqarish masalalari 1980-yillardan boshlab dolzarb vazifalardan biri sifatida maydonga chiqdi va hozirgi paytda ham doimiy takomillashib borish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz amaliyotida bank resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq masalalar iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasidan kelib chiqayotgan dolzarb vazifalar bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, banklarning qisqa muddatga mo'ljallangan stixiyali strategiyasi tarzda amalga oshirilmoqda. Zero, tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash va samarali boshqarish masalasi uzoq muddatga mo'ljallangan ma'lum strategiya va alohida siyosat asosida amalga oshirishni talab etadi. Bu strategiya albatta, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish borasidagi ishlab chiqilgan uzoq muddatli strategiyasi bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda yaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xitoy, AQSh va Yaponiya banklari resurs bazasining tarkibi (foizda)⁵³

№	Resurs bazasi tarkibi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
Xitoy banklari						
1	Muddatsiz depozitlar	20,2	20,4	21,7	22,5	21,2
2	Jamg’arma depozitlar	35,7	33,4	31,3	30,9	31,9
3	Muddatli depozitlar	18,5	17,4	16,0	15,2	15,0
4	Chet el valyutasidagi depozitlar	2,2	2,2	2,3	2,2	2,0
5	Boshqa depozitlar	0,7	2,1	2,4	2,0	2,5
6	Chiqarilgan qimmatli qog’ozlar	8,6	9,7	10,4	10,7	11,3
7	Xalqaro majburiyatlar	1,8	0,8	0,7	1,0	0,9
8	Markaziy banklarning kreditlari	1,9	2,0	4,6	5,0	4,6
9	Nobank kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar	7,9	9,4	8,2	8,0	8,2
10	Banklarning kapitali	2,6	2,6	2,4	2,5	2,4
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
AQSH banklari						
1	Muddatsiz depozitlar	9,6	9,3	9,2	10,3	9,7
2	Muddatli va jamg’arma depozitlar	65,2	65,4	64,9	63,9	64,9
3	Boshqa tashkilotlarning mablag’lari	6,3	6,6	6,7	6,9	7,1
4	Xalqaro majburiyatlar	1,2	1,2	1,2	0,9	0,9
5	Banklardan olingan kreditlar	4,1	4,2	4,4	4,4	4,0
6	Banklarning kapitali	13,7	13,3	13,7	13,7	13,3
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Yaponiya banklari						
1	Muddatsiz depozitlar	37,8	38,0	39,9	41,3	43,0
2	Muddatli va jamg’arma depozitlar	42,9	41,9	38,5	36,6	35,2
3	Boshqa tashkilotlarning mablag’lari	6,3	6,4	6,3	6,4	6,5
4	Boshqa majburiyatlar	1,4	1,4	2,0	2,0	2,1
5	Banklardan olingan kreditlar	3,8	4,5	5,0	4,8	5,4
6	Xalqaro majburiyatlar	1,1	1,2	1,5	1,4	1,5
7	Banklarning kapitali	6,7	6,6	6,8	7,6	6,5
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1.5-jadvalda iqtisodiyoti rivojlangan Xitoy, AQSh va Yaponiya mamlakatlari tijorat banklarining resurs bazasi manbalarining tarkibi va dinamikasi haqida

⁵³ www.imf.org - Xalqaro Valyuta Fondi rasmiy sayti statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ma'lumotlar keltirilgan. Xitoy, AQSh va Yaponiya banklarining jami resurs bazasi tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlari asosiy ulushni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich yuqoridagi mamlakat banklarida solmog'li ulushga ega ekanligiga guvoh bo'lmoqdamiz. AQSh va Xitoy banklarning jami resurs bazasi tarkibida muddatsiz depozitlari salmog'iga e'tibor beradigan bo'lsak, 2020-2024 yillarda AQSh banklarida 9,6-9,7 foizni va Xitoy banklarida esa bu ko'rsatkich 20,2-21,2 foiz atrofida tebranib turganini ko'rishimiz mumkin. Bu holat shundan dalolat beradiki, mazkur mamlakat banklarining resurs bazasi barqaror resurs manbalaridan shakllangan bo'lib, keskin tebranishlardan holi bo'lgan. Xitoy mamlakati tijorat banklari jami resurs bazasi tarkibida jami depozitlarning ulushi 73-77 foiz oralig'ida ekanligi, shundan dalolat beradiki, mamlakat aholisi va yuridik shaxslarining barcha mablag'lari banklarda saqlashga hamda bank tizimiga nisbatan ishonchning yuqoriligi bilan baholanadi.

Yaponiya amaliyotida esa bu ko'rsatkich nisbatan yuqoriroq hisoblanadi. Bunga sabab, Yaponiya tijorat banklarining aktiv operatsiyalari asosini depozitlar tashkil qiladi. Yaponiya bank amaliyotidan ma'lumki, tijorat banklarining aholi mablag'larini jalb qilish amaliyoti juda yuqori darajada rivojlangan. Hozirgi kunda Yaponiya Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati mamlakatda inflyatsiya darajasini sezilarli darajada oshirish orqali ishlab chiqarish sur'atlarini oshirishga qaratilgan. Bu esa tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda qo'l kelmoqda.

Iqtisodiyoti rivojlangan Xitoy va AQSh mamlakatlari banklarining resurs bazasi manbalari tarkibida muddatsiz depozitlari salmog'ining pastligi quyidagilar bilan izohlanadi:


- mamlakatda inflyatsiya darajasining pastligi;
- mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchining yuqoriligi;
- muddatli va jamg'arma depozitlari hisobidan barqaror daromad topish imkoniyatiga ega ekanligi.

Ayniqsa, AQSh tijorat banklarida muddatsiz depozitlarning ulushi juda past darajada bo'lgan. Chunki, AQShda tijorat banklari talab qilib olinguncha depozitlardan aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda resurs manba sifatida foydalanmaydi va ushbu

depozitlar uchun foiz to'lanmaydi. Bu esa tahlil qilinayotgan davrda, AQSh banklarining resurs bazasining barqarorligi yuqori darajada ta'minlanayotganidan dalolat beradi. Odatda, ularning asosiy qismi muddati tugagunga qadar mijoz tomonidan talab qilib olinmaydi. Agar mijoz muddatli yoki jamg'arma depozitni muddatidan oldin talab qilib oladigan bo'lsa, unga to'lanadigan foiz miqdori keskin kamayadi. Ya'ni, mijoz depozitdan oladigan daromadining sezilarli qismidan mahrum bo'ladi. Bu esa, mijozni muddatli yoki jamg'arma depozitini muddatidan oldin talab qilib olmaslikka undaydi. Muddatli va jamg'arma depozitlariga to'lanadigan foiz stavkalarining darajasi va barqarorligi ularni jalb qilishda muhim o'rin tutadi. Odatda, muddatli va jamg'arma depozitlarining foiz stavkalarini belgilashda ular hukumat qimmatli qog'ozlarining foiz stavkalari bilan taqqoslanadi.

Endi banklarning resurs bazasi tarkibidagi asosiy manbalardan biri hisoblangan bank kapitalini tahlil qiladigan bo'lsak, o'rganilayotgan davrda (2020-2024 yillar) Xitoy banklarida bu ko'rsatkich nisbatan kichik salmoqni tashkil etmoqda. Ya'ni 2,6-2,4 foiz oralig'ida bo'lgan bo'lsa, Yaponiyada bu ko'rsatkich 6,7-6,5 foizni va AQSh banklarida esa 13,7-13,3 foizdan iborat bo'lgan. Banklarning resurs bazasi tarkibida bank kapitalining salmog'i qanchalik katta bo'lsa bank resurs bazasi shunchalik mustahkam bo'ladi. Buning natijasida banklar o'z faoliyatini barqaror olib borishlari mumkin hisoblanadi.

Buni quyidagi 1.2-rasmda ham ko'rishimiz mumkin. Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi besh yil ya'ni, 2020-2024-yillarning boshlarida AQSh mahalliy banklari tomonidan jalb qilingan jami depozit mablag'lari tarkibida jamg'arma depozitlari salmoqli ulushga ega bo'lgan. Xususan, 2024-yil boshiga bu ko'rsatkich jami jalb qilingan depozitlarning 71,3 foizini tashkil etgan. Shuningdek, jami depozitlar tarkibida muddatli depozitlar 14,1 foiz hamda talab qilib olinguncha depozitlar esa 14,6 foiz ulushga ega. Bu holatni ijobiy baholasak bo'ladi. Chunki, bank amaliyotida muddatli va jamg'arma depozitlar bank uchun barqaror resurs manbai hisoblanadi.



1.2 - rasm. AQSh banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar tarkibi (yil boshiga, foizda)⁵⁴

Umuman, jamg'arma depozitlar tabiatiga ko'ra muddatli depozitlardan arzon resursligi va u bo'yicha tuziladigan bitimlarning egiluvchanligi bilan ajralib turadi. Shu bois, AQSh tijorat banklari aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ko'proq mazkur depozitlardan foydalanilishi bejiz emas. Chunki, AQShda tijorat banklari talab qilib olinguncha depozitlardan aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda resurs manba sifatida foydalanmaydi va ushbu depozitlar uchun foiz to'lanmaydi. Bu, o'z navbatida, AQSh banklariga barqaror depozitlar uchun yuqori darajada foiz to'lash imkonini beradi.

Jahon amaliyotida tijorat banklari depozit bazasining barqarorlik darajasini mustahkamlashda banklarga jalb qilinayotgan omonatlar va depozitlarning to'liq hamda o'z vaqtida qaytarilishini kafolatlovchi depozitlarni sug'urtalash tizimi samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Hozirgi kunda dunyoda depozitlarni sug'urtalash tizimining asoschisi sifatida AQShning Depozitlarni sug'urtalash Federal korporatsiyasi (Federal Deposit Insurance Corporation – FDIC)ni keltirish mumkin⁵⁵.

Banklar resurs bazasi hajmining o'sishi mamlakat bank tizimining mustahkamlanishiga yordam beradi. Shuni inobatga olgan holda, AQSh bank tizimi

⁵⁴ <https://fred.stlouisfed.org> - sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁵⁵ Private Banking and Wealth Management Survey 2024 <https://www.euromoney.com/article/b1jwyx6m1tt009>

uchun yirik tijorat banklardan biri bo'lgan JPMorgan Chase bankining resurs bazasi tarkibini o'rganib chiqamiz.

2000-yilda JPMorgan & Co va Chase Manhattan Bank banklari qo'shiluvidan hosil bo'lgan bu ulkan moliyaviy tashkilot nafaqat AQShda, balki dunyoning turli nuqtalarida o'z xizmatlarini ko'rsatadi. "Bu yirik JPMorgan Chase banki 2,623 trln dollar aktivga ega va uning hozirdagi bozor qiymati 390 mlrd dollarni tashkil qiladi"⁵⁶. Bu bankning hozirgi kunda butun dunyoda o'zing filiallari mavjud bo'lib, o'zining mijozlariga sifatli va o'z vaqtida xizmat ko'rsatib kelmoqda.

1.6-jadval

JPMorgan Chase banki resurs bazasi tarkibi⁵⁷ (foizda)

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Depozitlar	53,0	54,4	55,2	57,0	56,1
Federal Rezerv oldidagi majburiyatlar	7,5	6,5	6,7	6,3	7,0
Qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlar	2,6	0,7	0,5	2,0	2,6
Boshqa jalb qilingan mablag'lar	1,2	0,9	0,9	0,0	0,0
Savdo majburiyatlari:qarz va sarmoya vositalari	5,9	5,4	5,5	4,9	5,5
Hosilaviy qimmatli qog'ozlar ostidagi majburiyatlar	8,0	7,6	7,6	7,5	7,5
Boshqa qarz va majburiyatlari	2,0	1,8	1,6	1,0	0,8
Uzoq muddatli qarz majburiyati	10,7	12,3	11,9	11,2	10,8
Bank kapitali	9,0	10,5	10,2	10,1	9,8
Jami resurs bazasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0


1.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, JPMorgan Chase banki resurs bazasi tarkibida asosiy salmoqni bankning depozitlari tashkil etgan. 2024-yil boshiga depozitlar 2021-yil boshiga nisbatan 3,1 foizga o'sgan, shuningdek uning salmog'i 2020-yilda jami resurs bazasining 53 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 56,1 foizni tashkil qilgan. Keyingi o'rinda uzoq muddatli majburiyatlar 10,8 foiz salmoq bilan resurs bazasi tarkibida asosiy o'rinni egallab turibdi. Bundan tashqari,

⁵⁶ <https://www.jpmorganchase.com>. JP Morgan Chase & Co bankining rasmiy sayti, yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

⁵⁷ <https://www.jpmorganchase.com>. JP Morgan Chase & Co bankining rasmiy sayti, yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

bankning kapitalining salmog'i ham 2020-yilga nisbatan 0,8 foizga oshib, 2024-yilga kelib 9,8 foizni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, JPMorgan Chase banki uzoq muddatli investitsion operatsiyalar uchun resurs manbasini yaratishga alohida e'tibor qaratadi.

JPMorgan Chase banki depozitlar tarkibini tahlilidan ko'rish mumkinki, jami depozitlar tarkibida barqaror depozitlar salmog'i yuqori. Ammo, oxirgi yillarga kelib ushbu ko'rsatkich tushib borayotganini kuzatish mumkin. Shuningdek, depozitlar tarkibida muddatli depozitlarning salmog'ida ham pasayish tendentsiyasi yuz bergan, bu esa, o'z navbatida, resurslarni omonatlar jalb qilish orqali jamlashga qaratilmayotganligidan dalolat beradi.



1.4-rasm. JPMorgan Chase & Co banki depozitlari tarkibi (foizda)⁵⁸

1.4-rasmdan ko'rinadiki, JPMorgan Chase & Co banki depozitlari tarkibida muddatli depozitlar 2020-yil boshida jami depozitlarning 7,6 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich bor yo'g'i 2,8 foizni tashkil qilgan va qariyb 2 barobarga kam bo'lgan. Aksincha, jamg'arma depozitlari 2020-yil boshida 51,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil boshiga kelib 52,3 foizni tashkil qilgan. Bu esa, o'z navbatida, jamg'arma depozitlarni jalb qilishga e'tibor qaratilganini ko'rsatmoqda.

⁵⁸ <https://www.jpmorganchase.com>. JP Morgan Chase & Co bankining rasmiy sayti, yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Shuningdek, depozit bazasi etariligi 5 yil davomida o'rtacha 58 foizni tashkil etgan.

Tahlilimiz davomida yana, AQShning eng yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan Wells Fargo bankining resurs bazasi tarkibini mustahkamlash amaliyotini o'rganib tegishli xulosalarni shakllantiramiz. Wells Fargo banki 1852-yilda tashkil etilgan, qarorgohi San-Frantsiskoda joylashgan, 2023-yil yakuniga ko'ra 1,9 trln. AQSh dollari aktiviga ega hamda bank, investitsiya va ipoteka bilan bog'liq barcha xizmatlarni taqdim etuvchi yirik moliya-kredit muassasasi hisoblanadi. Shuningdek, bankning 37 ta davlatlarda o'z filialiga ega, 259 mingdan ortiq bank xodimlariga va 2023-yil 31-dekabr holatiga AQShda bank aktivlari yirikligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda, bank oddiy aksiyalari ichida bozor bahosi bo'yicha uchinchi o'rinni egallagan⁵⁹.

1.7-jadval

Wells Fargo bankining resurs bazasi tarkibi⁶⁰ (foizda)

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Depozitlar	68,5	67,6	67,7	68,4	67,8
Qisqa muddatli qarzlar	3,8	5,5	5,0	5,3	5,6
Derivativlar	0,7	0,8	0,8	0,5	0,4
Uzoq muddatli qarzlar	10,9	11,2	13,1	11,5	12,1
Boshqa majburiyatlar	5,1	4,1	3,0	3,6	3,7
Bank kapitali	11,0	10,8	10,4	10,7	10,4
Jami resurs bazasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1.7-jadval ma'lumotlarida Wells Fargo banki jami resurs bazasi tarkibi 2020-2024-yillar boshidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, unda depozitlar salmog'i ancha yuqori bo'lib, 2023 yil yakunida 67,8 foizni takshil etganligi ko'rinadi, bu esa mazkur tijorat bank resurs bazasi sifatida depozitlardan keng foydalanishi aniqlanadi. Shu bilan birga bankning so'nggi yillarda qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlari miqdori oshib borayotganligi kuzatiladi. Bu esa bankning depozitlarga qaraganda muddatli majburiyatlari oshib borayotganligidan dalolat beradi, bu esa tijorat banklari likvidligini boshqarish nuqtai nazaridan va banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ijobiy holat hisoblanadi.

⁵⁹ <https://www.wells.fargo.com>. Wells Fargo bankining rasmiy sayti, yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

⁶⁰ <https://www.wells.fargo.com>. Wells Fargo bankining rasmiy sayti, yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

Bank aktsiyadorlik kapitali bankning moliyaviy mustahkamligi va barqarorligini belgilovchi eng muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Bank kapitalining hajmi bankning to'lov qobiliyatiga, aktivlar sifatiga va risklarga chidamliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, global moliyaviy bozorda banklarning ishonchliligi ularning kapital yetarliligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jihat bank sektorini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar, jumladan, Bazel qo'mitasi tomonidan ham e'tirof etilgan.

Bazel qo'mitasi tavsiyalariga ko'ra, tijorat banklarining aktsiyadorlik kapitalining bank aktivlariga nisbati kamida 10 foiz bo'lishi talab etiladi. Ushbu me'yor banklarning moliyaviy xavflarni qoplash qobiliyatini oshirishga, aktivlarning sifati va likvidligini ta'minlashga xizmat qiladi. Agar bankning aktsiyadorlik kapitali yetarli darajada shakllangan bo'lsa, u iqtisodiy tebranishlarga bardosh bera oladi va noxush holatlardan zarar ko'rmasdan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bank kapitalining yetarliligi nafaqat bankning ichki moliyaviy salohiyatini belgilaydi, balki uning bozor ishtirokchilari, jumladan, mijozlar, investorlar va tartibga soluvchi organlar oldidagi ishonchliligini ham oshiradi. Kapital yetarliligini ta'minlash uchun banklar o'z aktivlarini diversifikatsiya qilishi, risklarni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqishi va kapital zaxiralarini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

Shuningdek, kapital yetarliligi yuqori bo'lgan banklar yirik kredit operatsiyalarini amalga oshirishda, korporativ mijozlar bilan hamkorlik qilishda va investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ustunlikka ega bo'ladi. Shu sababli, banklar o'z kapital tuzilmasini optimallashtirish, qo'shimcha aktsiyalar chiqarish yoki ichki daromadlarni reinvestitsiya qilish orqali kapital zaxiralarini kengaytirish strategiyasiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari aktsiyadorlik kapitalining me'yor darajasida bo'lishi nafaqat bankning moliyaviy barqarorligi, balki mamlakat moliya tizimining umumiy mustahkamligi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Bank kapitalining yetarliligi bo'yicha xalqaro me'yorlarga rioya qilish bank sektorining rivojlanishiga, xorijiy investorlar ishonchining ortishiga va bank xizmatlarining sifat jihatidan yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Germaniya va Qozog'iston tijorat banklari resurs bazasining tarkibi⁶¹ (foizda)

№	Resurs bazasi tarkibi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
Germaniya tijorat banklari						
1	Muddatsiz depozitlar	28,9	32,7	34,7	37,0	38,8
2	Muddatli va jamg’arma depozitlar	15,9	15,7	15,4	15,2	14,7
3	Boshqa tashkilotlarning mablag’lari	4,3	4,5	4,5	4,6	4,6
4	Boshqa majburiyatlar	14,7	13,8	13,1	12,7	12,1
5	Chiqarilgan qimmatli qog’ozlar	0,3	0,7	0,7	0,6	0,5
6	Xalqaro majburiyatlar	9,8	9,2	9,1	8,7	8,9
7	Moliyaviy derevativlar	15,3	12,5	11,2	8,3	7,4
8	Banklarning kapitali	10,8	11,0	11,2	12,8	13,0
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qozoqiston tijorat banklari						
1	Muddatsiz depozitlar	16,0	15,6	17,2	17,2	18,7
2	Muddatli va jamg’arma depozitlar	37,3	43,4	44,5	41,8	39,3
3	Boshqa tashkilotlarning mablag’lari	5,1	4,6	6,0	6,6	7,1
4	Boshqa majburiyatlar	20,8	13,1	10,0	13,6	13,2
5	Banklardan olingan kreditlar	3,4	3,0	3,6	3,3	2,5
6	Moliyaviy derevativlar	0,0	1,1	0,5	0,6	1,1
7	Banklarning kapitali	17,3	19,1	18,2	16,9	18,1
Jami		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1.8-jadvalda Yevropa va MDHga a'zo mamlakat banklarining resurs bazasi manbalarining tarkibi va dinamikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra, Yevropa va MDHga a'zo mamlakatlarning jami resurs bazasi tarkibida asosiy ulushni depozitlar va bank kapitali tashkil etmoqda. Bu albatta, mamlakat bank tizimi uchun ijobiy holat sifatida dastlabki baho berishga asos bo'ladi. Shu bilan birga, Yevropa va MDHga a'zo mamlakatlarning resurs bazasi tarkibidagi muddatli va jamg'arma depozitlarning ulushi rivojlangan mamlakatlarnikiga nisbatan pastroq ekanligini guvohi bo'lamiz. Germaniya amaliyotida esa judayam past darajadadir. Lekin qayd etish lozimki, Qozog'iston mamlakatlari banklarining jami resurs bazasi tarkibidagi muddatli va jamg'arma depozitlarining salmog'i yillar davomida o'sish tendentsiyasini ko'rsatmoqda. Qozog'istonda ko'rsatkichlar 37,3-39,3 foizgacha oshgan. Agarda bu

⁶¹ www.imf.org - Xalqaro Valyuta Fondi rasmiy sayti statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ko'rsatkichni mamlakatimiz tijorat banklari misolida ko'radigan bo'lsak, jami resurs tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlarning ulushi nisbatan past darajada bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. (2019-2023-yillarda 25-30 foizdan iborat bo'lgan⁶².)

E'tiborli jihati shundaki, MDHga a'zo mamlakatlar tijorat banklarining kapitali esa rivojlangan tijorat banklar kapitali miqdoriga nisbatan ancha yuqori. Fikrimizcha, MDHga a'zo mamlakatlar, shu jumladan, respublikamiz tijorat banklari kapitalining darajasini yuqori ulushga ega ekanligini mamlakatda Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati bilan bog'liq hisoblanadi. Bizga ma'lumki, rivojlangan davlatlarning, xususan, AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining qator davlatlarida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari banklar depozit bazasining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallaydi. Olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan arzon va uzoq muddatli resurs manbai hisoblanadi⁶³.

Shuni inobatga olgan holda, Yevropa Ittifoqi hududidagi ayrim yirik xususiy banklarning resurs bazani tahlil qilamiz. Shulardan eng yirigi hisoblangan UBS bankidir. 2008-yildagi Lehman Brothers inqirozidan oldin UBS eng yirik mulk boshqaruvchi edi, 10 yildan so'ng 2024-yilga kelib u yana o'z o'rnini qayta egalladi. Ya'ni uning jami aktivlari 2024-yil holatiga 1705,0 mlrd. AQSh dollariga teng bo'ldi⁶⁴.

Quyidagi 1.9-jadval jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Shveytsariyaning eng yirik banki hisoblangan UBS bankining resurs bazasi tarkibida asosiy ulushni depozitlar tashkil etgan hisoblanadi. Uning salmog'i 2020-yil boshida 38,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil boshiga kelib bu ko'rsatkich 43,8 foizgacha oshgan. Bundan tashqari, bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va ularning derevativlarining ulushi ham salmoqli hisoblanadi. Ya'ni 2024-yil boshiga kelib jami resurs bazasining 39,9 foizgacha yetib borgan. Bundan ko'rinadiki, UBS bankining asosiy strategik maqsadlari sifatida mijozlar bazasini oshirish va ular uchun turli xil

⁶² www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁶³ Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – 464 с.; Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела. – М.: ИНФРА-М, 1996. – 624 с.

⁶⁴ Private Banking and Wealth Management Survey 2020 <https://www.euromoney.com/article/b1jwyx6m1tt009>

jozibador depozit turlari va qimmatli qog'ozlar chiqarib fond bozorida faol ishtirok etish hisoblanar ekan. Bundan tashqari, bu ko'rsatkichlarning salmog'ining katta bo'lishiga Shveytsariyadagi qonunchilik tizimi va mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning qattiq sir saqlanishi ham sabab bo'la oladi. Ma'lumki, mijozga o'zining mablag'i to'g'risidagi ma'lumotning ishonchli joyda sir saqlanishi muhim bir mezon hisoblanadi. Natijada esa, mijozlarning bankka bo'lgan ishonchi ortib boradi. Ba'zi taraqqiy etgan davlatlarning ayrim tijorat banklari o'z mijozlari oldida katta majburiyatga egadirlar. Asosan mijozlarning depozit hisobvaraqlari kontseptsiyasiga asosan faoliyat yuritadilar.

1.9-jadval

UBS bankining jami resurs bazasi tarkibi⁶⁵ (foizda)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Depozitlar	38,6	41,4	45,3	44,7	43,8
2	Banklarning depozitlari	1,0	1,3	1,1	0,8	1,1
3	Repo bitimlari	1,1	1,0	0,7	1,7	1,8
4	Savdo majburiyatlari	2,6	3,1	2,4	3,3	3,0
5	Moliyaviy majburiyatlar	7,1	6,7	5,9	5,9	3,5
6	Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	9,4	10,7	11,4	15,4	22,8
7	Bank derevativlari	27,9	21,3	20,2	16,0	17,1
8	Boshqa majburiyatlari	7,1	8,5	7,1	6,6	1,3
9	Ustav kapitali	0,04	0,04	0,04	0,04	0,04
10	Qo'shilgan kapital	3,1	3,3	3,0	2,8	2,2
11	Taqsimlanmagan foyda	2,0	2,7	2,7	2,7	3,3
Jami resurs bazasi		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Tijorat banklari moliya bozorida asosiy o'rin tutuvchi vositachilar bo'lib, ular mijozlarning mablag'larini samarali boshqarish, investitsiya qilish va kredit berish orqali daromad olishga yo'naltirilgan. Banklarning asosiy vazifalaridan biri mijozlar ishonchini qozonish va ularning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Ayniqsa, Frantsiya tijorat banklari va umuman Yevrohudud banklari o'z mijozlariga yuqori

⁶⁵ <https://www.ubs.com> - UBS bankining rasmiy sayti, yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

sifatli bank xizmatlarini taqdim etish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga intiladi.

Bunday banklarda mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning xilma-xilligi va shaffofligi banklarning ishonchligini oshiradi. Xususan, overdraft va kontokorrent kreditlari bo'yicha banklar mijozlarning hisobvarag'idagi qoldiq mablag'lar asosida ularga moslashtirilgan foiz stavkalarini taklif qilishadi. Bu esa bank-mijoz munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Tijorat banklari depozit va kredit xizmatlarini taqdim etishda mijozlarning moliyaviy intizomiga ham katta e'tibor qaratadi, ya'ni mijoz hisobvarag'ida doimiy qoldiq mavjud bo'lsa, kelajakdagi kredit foizlari pasaytiriladi.

Shuningdek, banklar mijozlar bilan alohida ishlashni afzal ko'rib, omonatlarni jalb qilishda ommaviy reklamadan ko'ra individual yondashuvni ma'qul deb bilishadi. Aynan mana shunday siyosat bank tizimining barqarorligi va mijozlarning uzoq muddatli hamkorlikka qiziqishini oshiradi. Bu amaliyot global miqyosda ham keng qo'llanilayotgan bo'lib, BNP Paribas kabi yirik banklar depozit va kredit tashkilotlarining mablag'larini asosiy moliyaviy resurslar sifatida shakllantirish orqali o'z kapital bazalarini mustahkamlashga erishmoqdalar. Tijorat banklarining ushbu strategiyasi ularning raqobatbardoshligini oshirib, mijozlarga yuqori darajada qulaylik yaratishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining resurs bazasi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, kreditlash hajmlarini kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy manbalaridan biridir. Resurs bazasining yetarliligi va barqarorligi banklar uchun nafaqat likvidlilik darajasini saqlash, balki mijozlar ishonchini oshirish hamda uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkonini beradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, resurs bazasini mustahkamlash uchun diversifikatsiya qilingan depozit siyosati, kapitallashtirish darajasini oshirish, xalqaro moliya bozorlaridan mablag' jalb qilish va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajriba shuni tasdiqlaydiki, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Depozit diversifikatsiyasi,

kapital yetarliligi, xalqaro moliya bozorlariga integratsiya, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va davlat bilan samarali hamkorlik resurs bazasining barqarorligini oshirishda muhim omillardir. O'zbekiston bank tizimi uchun ushbu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, jumladan, mijozlar omonatlarining kafolat tizimini takomillashtirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda xorijiy moliyaviy manbalarga chiqishni kengaytirish strategik ahamiyat kasb etadi.

1.10-jadval

VNP Paribas bankining jami resurs bazasi tarkibi⁶⁶ (foizda)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Depozitlar	61,0	64,4	54,8	60,1	59,9
2	Markaziy bankning mablag'lari	0,1	0,4	0,1	0,1	0,04
3	Kredit tashkilotlar mablag'lari	5,6	8,3	11,7	13,2	11,6
4	Bank derevativlari	4,3	3,4	3,5	2,9	2,9
5	Moliyaviy instrumentlar	7,1	4,4	3,3	3,3	5,4
6	Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	4,4	4,1	4,5	4,5	4,5
7	To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	2,7	2,4	2,4	2,3	2,7
8	Joriy va kechiktirilgan soliq majburiyatlari	0,2	0,3	0,3	0,3	0,2
9	Subordinar qarz majburiyatlari	3,6	3,7	3,4	2,8	2,7
10	Boshqa majburiyatlar	1,7	0,0	7,2	0,3	0,7
11	Ustav va qo'shilgan kapital	3,5	3,5	4,0	4,3	4,1
12	Taqsimlanmagan foyda	5,3	4,7	4,3	5,2	4,6
13	Joriy yilning sof foydasi	0,5	0,6	0,6	0,7	0,7
Jami resurs bazasi		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Ularning ulushi 2024-yil boshida mos ravishda 59,9 va 11,6 foizlarni tashkil etgan. Jadvalda alohida e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihat bu bankning subordinar qarz majburiyatlarining salmog'li ulushga ega ekanligidadir. Bu majburiyat bankda

⁶⁶ <https://group.bnpparibas> - BNP Paribas bankining rasmiy sayti, yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

o'rganilayotgan davrda 3-4 foizni tashkil etib, bankning ustav va qo'shilgan kapitali miqdoriga yaqin ko'rsatkichga erishgan. Bu shundan dalolat beradiki, ko'pchilik Yevropa davlatlarida Xalqaro Bazel III talablarini bajarishning eng maqbul usuli sifatida subordinar qarz majburiyatini jalb etishni ma'qul ko'rishgan. Bizning xususiy banklarimizda subordinar qarz majburiyatlarida jalb qilish amaliyoti 2024-yil 1-yanvar holatiga umuman bo'lmagani muammoli holat sifatida baholanishi kerak deb hisoblaymiz.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijasiga xulosa sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

1. Tijorat banklarining resurs bazasi — bu bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshlik ustunligini saqlash, ijobiy institutsional imidjni mustahkamlash hamda balans likvidligini qo'llab-quvvatlash maqsadida shakllantiriladigan, bankning o'z mablag'lari manbalari bilan bir qatorda yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini qaytarishlik sharti bilan jalb etish orqali vujudga keladigan qarz va boshqa moliyaviy resurslar yig'indisidir. Ushbu resurslar bankning strategik rivojlanish salohiyatini kengaytiruvchi, aktiv operatsiyalar hajmini oshirishga xizmat qiluvchi fundamental moliyaviy poydevor hisoblanadi.

2. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari resurs bazasining asosiy qismini muddatli va jamg'arma depozitlar tashkil etadi. Bu holat banklarning moliyaviy vositachilik faoliyatida uzoq muddatli va barqaror moliyaviy manbalarni afzal ko'rishini anglatadi. Shuningdek, bunday depozitlar bankning aktiv portfelini uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlari bilan ta'minlaydi.

3. Resurs tarkibida qisqa muddatli depozitlar ulushi rivojlangan mamlakatlarda nisbatan yuqori bo'lib, bu tijorat banklarining kredit portfelida qisqa muddatli kreditlar ustunligini ifodalaydi. Bu holat banklar uchun likvidlik darajasini yuqori saqlash, tezkor qayta moliyalashtirish imkoniyatini ta'minlash hamda risklarni qisqa davr ichida boshqarish strategiyasi bilan izohlanadi.

4. Resurs bazasining yetarliligi taraqqiy etgan mamlakatlarda barqaror faoliyatning asosi bo'lib, u banklarga aktiv operatsiyalarni izchil rivojlantirish,

investitsion faoliyat hajmini kengaytirish va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish imkoniyatini beradi. Yetarli resurs bazasiga ega banklar iqtisodiy sikllarning salbiy ta'sirlariga bardoshlilik darajasini oshiradi.

5. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali mablag' jalb etish rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida resurs bazasini diversifikatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu usul bankning uzoq muddatli va arzon moliyaviy manbalarni shakllantirish imkonini beradi hamda kapital bozorlarida ishtirok etish orqali moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

6. Banklararo kreditlar ulushi taraqqiy etgan mamlakatlarda past bo'lib, bu ikki asosiy omil bilan izohlanadi: birinchidan, banklararo kreditlar bahosining yuqoriligi; ikkinchidan, tijorat banklarida yetarli depozit bazasining mavjudligi. Natijada, bunday banklar banklararo bozordan qimmat resurslarni jalb qilishga ehtiyoj sezmaydi.

7. Xorijiy tajribada resurs bazasini mustahkamlash strategiyalari qatorida depozit diversifikatsiyasi, kapital yetarliligini oshirish, moliyaviy resurslarni diversifikatsiyalash, innovatsion bank mahsulotlari va raqamli texnologiyalar orqali mijozlar bazasini kengaytirish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish kabi yo'nalishlar alohida o'rin tutadi.

8. O'zbekiston tijorat banklari uchun strategik vazifalar sifatida xorijiy ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish, depozitlar kafolat tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli bank xizmatlari ekotizimini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi normativ-huquqiy bazani mustahkamlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

II BOB. TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINING AMALIY HOLATI TAHLILI

2.1-§. Tijorat banklarning resurs bazasini shakllantirish manbalari va uning tahlili

Hozirgi paytda bank sohasini rivojlantirish va iqtisodiy jixatdan yuksaltirish uchun kredit muassasalarining barqarorligiga erishish juda muhimdir. Ma'lumki, qo'yilmalarni jalb etish va bank resurslarini ko'paytirishda uning obro'si hal qiluvchi omil sanaladi. Bu obro' tijorat banklari resurslarini boshqarish sifatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari tarmog'ini kengaytirish ular o'rtasida depozitlar, banklararo kredit va boshqa resurslarni jalb etish uchun raqobatni yuzaga keltiradi.


Keng ma'noda resurs bazasini boshqarish omonatchilar va boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb etish va mazkur bank uchun mablag'lar manbalari tegishli kombinatsiyasini belgilash bilan bog'lik faoliyatdir. Tor ma'noda esa, resurs bazasini boshqarish deganda zaruriyatga ko'ra qarz mablag'larini faol ravishda topish yo'li bilan likvidlikka bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan harakatlar tushuniladi. Depozit sertifikatlarini joylashtira olishi hamda yevro dollarlar yoki mablag'larni Markaziy bankdan qarzga olishi mumkinligi bankning kam daromadli ikkilamchi zaxira aktivlariga kamroq darajada qaram bo'lishiga imkon beradi. Bu esa, uning foyda olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Lekin bu operatsiyalar tavakkalchilik bilan bog'liqdir.

Tijorat banklari tomonidan jalb qilinayotgan mablag'lar o'z tarkibiga ko'ra turlicha bo'ladi. Banklar mijozlari bilan ishlash jarayonida jalb etilgan mablag'lar va boshqa kredit muassasalaridan qarzga olingan mablag'lar asosiy turdagi jalb etilayotgan mablag'lar hisoblanadi.

Depozit jalb qilish banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, depozit amaliyotisiz tijorat banklari o'zlarining boshqa asosiy vazifalarini bajarishlari mumkin emas. Banklarning bosh maqsadi bo'lgan foyda olishga erishish istiqbollari belgilovchi, ya'ni daromad keltiruvchi aktiv amallarni bajarish bilan bog'liq

faoliyatlarida jalb qilingan va jamg'arilgan mablag'lar yoki depozitlar muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari depozit bazasini kengaytirish borasida doimiy chora-tadbirlarni amalga oshirib boradilar.

Ma'lumki, aholi iste'molidan ortgan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini tijorat banklarida bexavotir saqlash kafolatlari mavjudligi hamda topshirilgan omonatlar bo'yicha foizli daromad olishdan manfaatdor bo'lsagina bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortadi va bu bilan bank depozit bazasi kengayoishiga erishiladi. Bunda banklar ushbu jalb qilingan mablag'lar hisobiga mijozlarga kreditlar berib yoki lizing, faktoring, trast, overdraft va overnayt kabi jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan xizmatlarni ko'rsatish orqali foizli daromadlar olish imkoniyatlarini oshirib boradilar. Shu yo'l bilan bo'sh pul mablag'larini bank orqali yig'ish va iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish, natijada pul aylanish tezligini o'stirishi evaziga milliy valyuta qadrsizlanishining oldi olinishiga erishish mumkin. Aynan, mana shu omil ham depozitlarning rivojlanishida asosiy o'rin tutadi.



2.1-rasm. ATB “Mikrokreditbank” balans ko'rsatkichlari dinamikasi, (mln. so'm)⁶⁷

⁶⁷ Muallif tomonidan ATB “Mikrokreditbank” ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Yuqoridagi 2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Mikrokreditbank" ATB balansi 2018–2022-yillar davomida 373 783 mlrd.so'mdan 1 060 416 mln. so'mga yoki 283,7 foizga ko'paygan. Bank balansining oshib borishi mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi mablag'larning ko'payishi (ya'ni, 2020-yildagi 373 873 mln.so'mdan 2022-yilda 1 060 416 mln.so'mgacha yoki 283,6 foizga oshgan), ichki va tashqi manbalardan qarz mablag'larini jalb etish (2018-yildagi 6 932 mln.so'mdan 2022-yilda 765 094 mln.so'mgacha yoki 110 barobarga oshgan) va xususiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2018-yildagi 166 690 mln.so'mdan 2022-yildagi 696 121 mln.so'mgacha yoki 417,6 foizga oshgan) hisobiga yuz bergan. Tahlil etilayotgan davrda ATB "Mikrokreditbank" tomonidan mijozlarga taqdim etilgan kreditlar hajmi 2022-yil yakunida 2 393 587 mln.so'mni tashkil etgan va 2018-yildagi nisbatan 375,6 foizga ko'paygan. Bankning joriy va uzoq muddatli likvidlilik pozitsiyasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan naqd aktivlar hajmi 2024-yil 1-yanvar holatiga 282 249 mlrd.so'mga teng bo'lgan.

ATB "Mikrokreditbank" balansida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlash uchun bir qator nisbiy ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi. Mazkur nisbiy ko'rsatkichlarning birinchi guruhi bevosita resurs bazasidagi o'zgarishlarni ifodalasa, ikkinchi guruhi ichki va tashqi kredit defolti risklari darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'larni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab barqaror va beqaror, ular uchun to'lanadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag'larga ajratish mumkin.

Moliyaviy jihatdan barqaror mablag'lar tijorat banklarining asosiy foyda manbasini tashkil etish bilan birga, ularni kutilmaganda vujudga keladigan zararlardan himoya qilish imkoniyatini ham beradi. Muddatli va jamg'arma depozitlar banklar uchun muddati jihatidan barqaror moliyaviy manba hisoblanadi. Chunki banklar ushbu mablag'lardan ma'lum muddatga kredit resurslari sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan bir qatorda, mazkur mablag'lar tijorat banklar uchun qimmat resurs manbalari bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklari resurslarining muddati jihatidan beqaror hamda arzon mablag'lar qatoriga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlardagi mablag'larni kiritishimiz mumkin.

Bank amaliyotidan ma'lumki, jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi. Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yimalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi. Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga banka ham manfaatli hisoblanadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo'yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag'ida ma'lum vaqitgacha saqlanadigan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya-kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlar yoki pul mablag'lari tushuniladi. Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi va bundan tijorat banklari turli shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qulay shartlar asosida kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradilar. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini yetarli darajada jalb etishi va ushbu mablag'larni samarali joylashtirishni boshqarish hozirgi kunda ularning muhim hamda asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi, O'zbekistonda bozor munosabatlarining tobora chuqurlashuvi va iqtisodiyotning yanada erkinlashtirilishi natijasida tijorat banklari o'rtasida resurslarga bo'lgan talabning yanada kuchayganligidadir. Natijada, banklarning arzon va muddati jihatdan uzun mablag'larga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi ushbu mablag'larni shakllantirish va ularni samarali boshqarish muhim masalalardan biri ekanligini ko'rsatib bermoqda. Mazkur holat mamlakat miqyosida mavjud bo'lgan vaqtincha bo'sh pul mablag'larni banklar o'rtasida taqsimlashda va moliya bozorlaridan qo'shimcha resurslarni jalb etishda banklar o'rtasidagi erkin raqobatni kuchayishiga ijobiy samara ko'rsatmoqda.

Xalqaro bank amaliyotidan hamda qisqa davrdagi bozor munosabatlari sharoitida orttirilgan bank tajribasidan ma'lumki, tijorat banklarining asosiy resurs bazasi ularning depozitli resurslari hisobidan shakllantiriladi.

Tijorat banklari tomonidan puxta ishlab chiqilgan resurs siyosati barqaror moliyaviy mablag'larni jalb qilish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning resurs bazasini kengaytirib, kredit berish amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlik yetishmovchiligi muammosining oldini oladi. Tijorat banklarining resurs bazasi moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning hajmi va sifati bank faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Banklar resurslarni shakllantirish jarayonida likvidlik talablarini inobatga olgan holda, foiz siyosati, mijozlarga qulay shartlar yaratish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ushbu jarayonni samarali tashkil etishga intilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda respublika bank tizimiga zamonaviy texnologiyalar joriy etila boshlandi. Xususan, tijorat banklarining tarkibiy tuzilmasida katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, yirik tijorat banklari filiallari tashqarisida tashkil etilayotgan yangi shoxobchalar – minibanklar, moliyaviy operatsiyalarni bajaruvchi turg'un va sayyor operatsion kassalar faoliyat yurita boshladi. Ushbu innovatsion yondashuv bank xizmatlarining aholiga yanada yaqinlashishiga, mijozlarga tezkor va qulay xizmat ko'rsatishga yordam bermoqda.

Tijorat banklari resurs bazasi tarkibini tahlil qilganda, bu jarayonda banklarning o'rni qanchalik muhim ekani alohida ahamiyat kasb etadi. Resurslarning sifati va hajmi nafaqat banklarning likvidligi, balki kreditlash faoliyatining barqarorligini ham belgilab beradi. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari majburiyatlari tarkibini chuqurroq tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki bank jami majburiyatlari tarkibida barqaror resurslarning ulushini aniqlamay turib, ularning holatini tahlil qilish to'liq natija bermaydi.

Banklar uchun resurs jalb qilish strategiyasini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib, bu jarayonda mijozlarning ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli resurslarni ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklarining resurs bazasi qanchalik mustahkam bo'lsa, bank sektori shunchalik barqaror bo'ladi. Shu

bois, tijorat banklari zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalangan holda o'z resurs siyosatini yanada takomillashtirish yo'nalishida izchil harakat qilmoqda.


2.1-jadval

Tijorat banklari majburiyatlari tarkibi va dinamikasi⁶⁸

Majburiyatlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Depozitlar	53,2	51,3	48,4	40,8	37,4
Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	0,37	0,45	0,4	0,4	0,21
Boshqa banklarning mablag'lari-rezident	4,7	4,1	5,3	3,9	3,4
Boshqa banklarning mablag'lari-norezident	0,0	0,0	0,0	0,08	0,3
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	32,1	33,6	35,7	49,9	55,6
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	1,3	0,9	1,4	0,1	0,01
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	0,7	0,6	0,5	0,7	1,1
Boshqa majburiyatlar	7,63	9,05	8,3	4,1	2,0
Jami majburiyatlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Yuqoridagi 2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, oldingi yillar davomida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari jami majburiyatlari tarkibida depozitlar salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2020-yil yakuni bo'yicha majburiyatlar tarkibida depozitlar ulushi 53,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yil yakuni bo'yicha 37,4 foizni tashkil qilgan. Lekin, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar miqdori yillar davomida o'sish tendentsiyasiga ega. Yuqoridagi jami majburiyatlar tarkibida depozitlar ulushining kamayish holatini banklar tomonidan xorijiy kredit liniyalari va banklararo olingan kreditlarning miqdor jihatdan oldingi yillarga nisbatan so'nggi yillarda ko'p jalb qilinishi bilan izohlashimiz mumkin. Shu bilan birga, keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning kengayishi natijasida xorijiy investitsiyalarning respublikamiz hududiga kirib kelishi ko'paydi.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. www.cbu.uz




2.2-rasm. ATB “Mikrokreditbank” balans ko’rsatkichlari dinamikasi, (foizda)⁶⁹

Birinchi guruh ko’rsatkichlari jumlasiga kiruvchi depozitlarning bank balansidagi salmog’i koeffitsienti tahlil etilgan davrda kamayib borish tendentsiyasini namoyon etgan. Xususan, mazkur koeffitsient 2023-yilda 36,1 fizga teng bo’lib, 2020-yildagiga nisbatan 17,6 foiz punktga, 2021-yildagiga nisbatan 33,6 foiz punktga, 2021-yildagiga nisbatan 26,0 foiz punktga kamaygan. Ushbu davrda ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag’larning bank balansidagi salmog’i 2023-yil 1 yanvar holatiga 25,9 foizni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 25,0 foiz punktga, 2022-yildagiga nisbatan 23,3 foiz punktga, 2020-yildga nisbatan 23,8 foiz punktga va 2021-yilga nisbatan 18,1 foiz punktga ko’paygan. Xususiy kapitalning bank balansini shakllantirishdagi salmog’i 2023-yil yakunida 23,6 foiz bo’lib, tahlil etilgan davrda ko’payshish va kamayish tendentsiyasiga ega bo’lgan.

Ikkinchi guruh ko’rsatkichlari ATB “Mikrokreditbank” balansida kredit risklari kontsentratsiyasi katta ekanligidan dalolat beradi. Xususan, mijozlarga ajratilgan kreditlarning jalb etilgan depozitlar bilan qoplanish darajasi 2023-yil yakunida 44,3

⁶⁹Muallif tomonidan ATB “Mikrokreditbank” ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

foizga (2021 yilda 81,1 foiz, 2020 yilda 92,6 foiz) kamaygan bo'lsa, olingan qarz mablag'lari hisobiga ajratilgan kreditlar salmog'i 2020-yildagi 1,1 foizdan 2023-yilda 31,9 foizgacha oshib borgan. Olingan qarzlarning bank kapitaliga nisbati 2020-yildagi 4,2 foizdan 2023-yilda 109,9 foizgacha ko'tarilgan.



2.3-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ayrim tijorat banklarining depozitlarni jalb qilish dinamikasi⁷⁰

Yuqoridagi 2.3-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2024 yil 1-yanvar holatiga Respublikamizdagi 29 ta tijorat banklari o'rtasida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha O'zmilliybank eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan. Bu ko'rsatkich mamlakatimiz banklari tomonidan jalb qilingan jami depozitlarning 16,8 % yoki 11,7 trln. so'mni tashkil etgan.

Respublikamizda eng ko'p filialga ega bo'lgan Xalq banki bu ko'rsatkich bo'yicha keyingi o'rinlarga tushib ketganligi salbiy holat hisoblanadi. Bank tomonidan depozitlar jalb qilish bo'yicha puxta o'ylangan strategiya ishlab chiqilishi bank resurs bazasining oshishiga olib keladi.

⁷⁰O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. www.cbu.uz

Mamlakatimiz tijorat banklari depozitlari tarkibi⁷¹

Depozitlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Muddatli	29,9	30,2	29,5	24,9	37,4
Jamg'arma	10,6	11,3	11,1	11,0	14,1
Talab qilib olinguncha	59,5	58,5	59,5	64,1	48,5
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Yuqoridagi 2.2-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2020-2024-yillar oralig'ida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan jami depozitlar tarkibida muddatli depozitlarning ulushi mos ravishda 29,9 foizdan 37,4 foizgacha o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Jamg'arma depozitlar ulushi esa yillar davomida 10,6 foizdan 14,1 foizgacha o'sgan. Jami depozitlar tarkibida eng yuqori ulush talab qilib olinguncha depozit mablag'lariga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni, bu ko'rsatkich 2024-yil yakuni bo'yicha 48,5 foizni tashkil qilgan. Talab qilib olinguncha depozitlarning jami bank depozit bazasi tarkibidagi ulushining yuqoriligi muddatli va jamg'arma depozitlar ulushlarining kamligi hisobiga to'g'ri keladi. Bu esa bank depozit bazasi tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlar yetarli emasligini ifodalaydi.

Tijorat banklaridagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlardagi pul mablag'larining yuqori harakatchanligi tufayli bu hisobvaraqlardagi qoldiq doimiy emas, ba'zida juda o'zgaruvchan. Hisobvaraqlar egasining istagan paytda mablag'larni olish ehtimoli bank faoliyatida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko'proq bo'lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlikka ega bo'lgan, biroq yuqori daromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. Shu sababli talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i egalariga past foiz to'laydilar yoki umuman to'lamasliklari mumkin. Biroq, talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlardagi mablag'larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan ularning minimal, doimiy qoldig'ini aniqlash va ulardan barqaror resursi sifatida foydalanish

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. www.cbu.uz

imkoniyatiga banklar ega bo'lishi lozim hamda mazkur mablag'lardan kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalanishlari mumkin.

Muddatli depozitlar, depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankning barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. Shu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim. Bunda, birinchi navbatda tijorat banklari oldiga har tomonlama puxta o'ylangan depozit siyosatini ishlab chiqish va bu orqali barqaror pul mablag'larni keng jalb qilish, bank tomonidan depozitlar jalb qilish bo'yicha maxsus strategiya ishlab chiqilishi natijasida bank resurs bazasini oshirish vazifalari qo'yiladi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan bir tarmoqda faoliyat yurituvchi va bir-biriga bog'liq yirik mijozlar guruhini jalb etish hamda mazkur mijozlarga xizmat ko'rsatishda vositachilik haqini pasaytirish va hisobvaraqlardagi qoldiqlarga o'zaro kelishilgan holda foiz to'lash bank depozit bazasini kengayishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz banklarining barqaror holati, bank tizimiga bo'lgan ishonchning oshishi hamda aholi real daromadlarining o'sib borayotganligi aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilishning mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning depozitlari oshishiga quyidagilar yordam berdi:

- bank omonatlarining to'liq kafolatlanganligi va ularning birinchi talabdayoq qaytarilishi;
 - aholining bank omonatlaridan olingan daromadlari soliqdan ozod qilingan hamda omonat mablag'larining kelib chiqishi deklaratsiya qilinmaydi;
 - banklar tomonidan turli omonatlar bo'yicha jozibador foiz to'lovlarining taklif qilinishi (250 dan ortiq omonat turlari);
 - aholining keng qatlamiga tushuntirishlar bo'yicha ommaviy axborot vositalarida reklama-targ'ibot ishlari olib borilayotganligi;
- “Bank siri to'g'risida”gi Qonunga qat'iy rioya etilishi;

Zamonaviy iqtisodiy muhit tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarning oldini olib, mamlakatimizda bank ishining samaradorligini oshirish asosida xalqaro bank amaliyotiga mos keluvchi bank tizimini yaratishni taqozo qiladi.

Bank tizimining jami resurslari tarkibida jalb qilingan mablag'larning, ya'ni majburiyatlarning ulushi sakson foizdan oshig'ini tashkil qiladi. "Majburiyatlar - shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir"⁷².

Yillar davomida bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortib borishi, tijorat banklarida depozitlar miqdorining ko'tarilishiga zamin yaratib kelmoqda. Bu esa banklar tomonidan resurslar yetishmasligi muammosini hal qilishga yordam beradi hamda jalb qilingan mablag'larni oqilona joylashtirish orqali bank daromadlilikini oshirishga xizmat qiladi.

2.3-jadval

Respublikamiz tijorat banklarining depozit mablag'lari tarkibi to'g'risida ma'lumot⁷³ (mlrd. so'm)

Ko'rsatkichlar	Jami depozitlar	Yuridik shaxslar depozitlari		Aholi omonatlari	
		jami	% da	jami	% da
2020-yil	28 500	19 754	69,31	8 746	30,69
2021-yil	35 600	28 634	80,43	6 966	19,57
2022-yil	44 600	36 069	80,87	8 531	19,13
2023-yil	59 579	47 447	79,64	12 132	20,36
2024-yil	70 001	55 297	78,99	14 704	21,01

E'tibor beradigan bo'lsak, jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi yillar davomida o'sish tendetsiyasiga ega. Jumladan, 2021-yilda

⁷² "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos" O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 14.08.1998 y. N 475

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. www.cbu.uz

tijorat banklari tomonidan 35 600 mlrd. so'm miqdorida depozit jalb qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilning 1-yanvar holatiga deyarli 2 barobarga oshgan hamda 70 001 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu holatni tijorat banklari tomonidan depozitlar jalb qilish va ularni samarali boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratayotganliklari bilan izohlash mumkin. Shuningdek, bu holat banklardagi aholi omonatlari va yuridik shaxslar depozitlari miqdorlarining oshishida ham o'z isbotini topadi. Lekin, yuridik shaxslar depozitlari va aholi omonatlarining jami depozitlar tarkibidagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda yuridik shaxslar depozitlari 80 foiz ulushga aholi omonatlari 20 foiz ulushga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Depozit jalb qilish banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, depozit amaliyotisiz tijorat banklari o'zlarining boshqa asosiy vazifalarini bajarishlari mumkin emas. Banklarning bosh maqsadi bo'lgan foyda olishga erishish istiqbollari belgilovchi, ya'ni daromad keltiruvchi aktiv amallarni bajarish bilan bog'liq faoliyatlarida jalb qilingan va jamg'arilgan mablag'lar yoki depozitlar muhim o'rin tutadi.

Shu bilan bir qatorda, banklar tomonidan vaqtincha bo'sh pul mablag'larni keng ko'lamda jalb qilish hamda ulardan oqilona foydalanish banklarning muhim vazifasi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, banklarning barqaror resurs mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda, ushbu mablag'larni shakllantirish, samarali boshqarish va ularning sifatini oshirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshiruvchi, mustahkamlovchi, birinchi navbatda, aholi omonatlari xavfsizligini va daxlsizligini ta'minlovchi omillardan foydalangan holda yangi "online" omonatlar xizmatini tashkil etish va depozit hisobvaraqdagi mablag'larni masofadan boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, ish yuritishda zamonaviy axborot-texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish davr talabi hisoblanadi.

ATB “Mikrokreditbank” balans ko’rsatkichlari dinamikasi,
(mln. so’m va foizda)⁷⁴

Ko’rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Bank balansi	790 712	1 116 326	1 333 645	1 807 253	2 942 920
Mijozlarning mablag’lari (depozitlar)	373 783	693 379	930 186	971 354	1 060 416
Chiqarilgan qarz qimmatli qog’ozlari	111 117	74 986	64 289	68 010	83 087
Olingan boshqa qarzlar	6 932	6 238	28 007	141 682	765 094
Xususiy kapital	166 690	183 387	187 880	602 397	696 121
Berilgan kreditlar	637 192	801 220	1 004 856	1 197 689	2 393 587
Naqd aktivlar	93 110	233 373	236 938	372 664	282 249
Depozitlarning bank balansidagi salmog’i	47,3	62,1	69,7	53,7	36,1
Chiqarilgan qarz qimmatli qog’ozlarining bank balansidagi salmog’i	14,1	6,7	4,8	3,7	2,8
Olingan qarzlarining bank balansidagi salmog’i	0,9	0,6	2,1	7,8	25,9
Xususiy kapitalning bank balansidagi salmog’i	21,1	16,4	14,1	33,3	23,6
Depozitlarning kreditlarga nisbati	56,6	86,5	92,6	81,1	44,3
Qarz mablag’larining kreditlarga nisbati	1,1	0,8	2,8	11,8	31,9
Xususiy kapitalning kreditlarga nisbati	26,2	22,9	18,7	50,3	29,1
Qarz mablag’larining xususiy kapitalga nisbati	4,2	3,4	14,9	23,5	109,9

2.4-jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, “Mikrokreditbank” ATB balansi 2020-2024-yillar davomida 373 783 mlrd.so’mdan 1 060 416 mln. so’mga yoki 283,7 foizga ko’paygan. Bank balansining oshib borishi mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi mablag’larning ko’payishi (ya’ni, 2020-yildagi 373 873 mln.so’mdan 2024-yilda 1 060 416 mln.so’mgacha yoki 283,6 foizga oshgan), ichki va tashqi manbalardan qarz mablag’larini jalb etish (2018 yildagi 6 932 mln.so’mdan 2024-yilda 765 094 mln.so’mgacha yoki 110 barobarga oshgan) va xususiy kapitalga kiritilgan

⁷⁴ www.Mikrokreditbank.uz ATB “Mikrokreditbank” moliyaviy hisobotlari asosida ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

investitsiyalar (2020-yildagi 166 690 mln.so'mdan 2024-yildagi 696 121 mln.so'mgacha yoki 417,6 foizga oshgan) hisobiga yuz bergan. Tahlil etilayotgan davrda ATB "Mikrokreditbank" tomonidan mijozlarga taqdim etilgan kreditlar hajmi 2024-yil yakunida 2 393 587 mln.so'mni tashkil etgan va 2020-yildagi nisbatan 375,6 foizga ko'paygan. Bankning joriy va uzoq muddatli likvidlilik pozitsiyasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan naqd aktivlar hajmi 2024-yil 1-yanvar holatiga 282 249 mlrd.so'mga teng bo'lgan.

ATB "Mikrokreditbank" balansida yuz bergan o'zgarishlarni aniqlash uchun bir qator nisbiy ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi. Mazkur nisbiy ko'rsatkichlarning birinchi guruhi bevosita resurs bazasidagi o'zgarishlarni ifodalasa, ikkinchi guruhi ichki va tashqi kredit defolti risklari darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Birinchi guruh ko'rsatkichlari jumlasiga kiruvchi depozitlarning bank balansidagi salmog'i koeffitsienti tahlil etilgan davrda kamayib borish tendentsiyasini namoyon etgan. Xususan, mazkur koeffitsient 2024-yilda 36,1 fizga teng bo'lib, 2020-yildagiga nisbatan 17,6 foiz punktga, 2020 yildagiga nisbatan 33,6 foiz punktga, 2022-yildagiga nisbatan 26,0 foiz punktga kamaygan. Ushbu davrda ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag'larning bank balansidagi salmog'i 2024-yil 1 yanvar holatiga 25,9 foizni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 25,0 foiz punktga, 2021-yildagiga nisbatan 23,3 foiz punktga, 2020-yildaga nisbatan 23,8 foiz punktga va 2023 -yilga nisbatan 18,1 foiz punktga ko'paygan. Xususiy kapitalning bank balansini shakllantirishdagi salmog'i 2024-yil yakunida 23,6 foiz bo'lib, tahlil etilgan davrda ko'payshish va kamayish tendentsiyasiga ega bo'lgan.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlari ATB "Mikrokreditbank" balansida kredit risklari kontsentratsiyasi katta ekanligidan dalolat beradi. Xususan, mijozlarga ajratilgan kreditlarning jalb etilgan depozitlar bilan qoplanish darajasi 2024-yil yakunida 44,3 foizga kamaygan bo'lsa, olingan qarz mablag'lari hisobiga ajratilgan kreditlar salmog'i 2021-yildagi 1,1 foizdan 2024-yilda 31,9 foizgacha oshib borgan. Olingan qarzlarning bank kapitaliga nisbati 2020-yildagi 4,2 foizdan 2024-yilda 109,9 foizgacha ko'tarilgan.

Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasi va siyosatlarini o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlash asosida tijorat banklarda resurslarni jalb qilish holatini tahlil qilish asosida ularning resurs bazasini kredit, qarz, depozit mablag'larni jalb qilish hamda bank kapitalini oshirish yo'li orqali mustahkamlash taklifi ATB "Mikrokreditbank" 2024-yilga mo'ljallangan tijorat banklarda resurslarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlarida o'z aksini topgan va bank amaliyotiga joriy etilgan. Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi tijorat banklarining tijorat banklarda resurslarni jalb qilish siyosati boshqa siyosatlar bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash, resurs bazasini samaradorligini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, tijorat banklarda resurslarni jalb qilish siyosatini amalga oshirish va joriy holatini tahlil etish hamda nazorat qilish tizimini takomillashtirish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda "Mikrokreditbank" ATB faoliyatiga uzoq muddatli davrda o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin bo'lgan quyidagi tendentsiyalarni qayd etish mumkin:

birinchidan, bankning resurs bazasida jismoniy va yuridik shaxslardan jalb etilgan omonatlar salmog'i kamayib bormoqda. Bunday vaziyat makroiqtisodiy vaziyatning salbiy ta'siri (inflyatsion jarayonlar kuchayib borishi sharoitida jismoniy va yuridik shaxslarning omonatlari milliy valyutadan xorijiy valyutaga o'tkazilishi, aholi o'rtasida kambag'allik holatlarining kuzatilishi hisobiga turli manbalardan olingan daromadlarni joriy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun naqdlashtirish holatlari kuchayib borishi va boshqalar), ichki va tashqi manbalardan taklif etilayotgan resurslar qiymatining omonatlar bo'yicha belgilanayotgan foiz stavkalariga nisbatan arzonligi va boshqa omillar ta'siri bilan izohlanishi mumkin;

ikkinchidan, ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag'lari hajmining kattaligi makro va mikrodarajagi iqtisodiy holatning yomonlashuvi sharoitida bankning joriy likvidlikni yo'qotish ko'rinishidagi defolt darajasini oshirib yuboradi;

uchinchidan, bank tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan depozit siyosati yuzaga kelgan vaziyatni yaxshilashga emas, balki mavjud holatni saqlab

qolishga yo'naltirilganligi, shuningdek, unda innovatsion xizmatlar paketining mavjud emasligi depozit operatsiyalarining bank balansidagi salmog'ini pasaytirib yuborishi ehtimoli katta;

to'rtinchidan, depozit siyosatini amalga oshirishda resurs bazasini omonatlar hajmini oshirish orqali deversifikatsiyalash imkoniyatlarining to'liq ko'rib chiqilmaganligi (ya'ni, depozit, kredit, likvidlikni ta'minlash va boshqa siyosatlar o'rtasida uzviy aloqadorlik yo'qligi) mavjud vaziyatni yomonlashtiruvchi omil, deb hisoblanishi mumkin;

beshinchidan, resurs bazasini shakllantirishda qarz qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish amaliyotining sustligi depozit operatsiyalarining samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin.

2.2. O'zbekistonda tijorat banklari depozit bazasi mustahkamligi darajasining tahlili.

O'zbekistonda tijorat banklari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Banklarning moliyaviy mustahkamligi, xususan, ularning depozit bazasining barqarorligi, jamg'arma va investitsiya jarayonlarining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Depozit bazasi banklarning uzoq muddatli likvidligi va kredit resurslarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat bank tizimida aholi va yuridik shaxslarning depozitlari doimiy o'sish tendensiyasiga ega. Bunga asosiy omil sifatida makroiqtisodiy barqarorlik, ishonchli bank tizimi va bank xizmatlarining raqamlashtirilishi xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, milliy valyutadagi depozitlarning ulushi ortib borayotgani ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Depozit bazasining mustahkamligi darajasini oshirish uchun foiz siyosatini optimallashtirish, mijozlarning ishonchini mustahkamlash va banklararo raqobatni rivojlantirish zarur. Shuningdek, sug'urta mexanizmlarini kuchaytirish va xalqaro standartlarga mos ravishda moliyaviy monitoringni yaxshilash ham depozit bazasining barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda tijorat banklarini barqaror resurs manbasi sifatida depozit sertifikatlarini misol qilishimiz mumkin. Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan depozit va jamg'arma sertifikatlari 2010-yil boshiga 205,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil boshiga tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan va joylashtirilgan depozit hamda jamg'arma sertifikatlari 1178,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

2.5-jadval

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlari dinamikasi⁷⁵

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlari, mlrd. so'm	922	1000	952	1054	1178,2
Jami depozitlar, mlrd. so'm	28500	35600	44600	58600	70001
Depozit sertifikatlarining jami depozitlardagi ulushi, foizda	3,2	2,8	2,1	1,8	1,7

Tijorat banklari tomonidan depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish ijobiy holat bo'lib, ular aniq muddatga chiqariladi va ushbu muddat davomida tijorat banklari uchun barqaror resurs sifatida xizmat qiladi. Tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlarining mijoz uchun afzalligi shundan iboratki, mijoz tomonidan bankka qo'yilgan mablag'ni mazkur bankning istalgan filialidan sertifikatning muddati kelgandan so'ng olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, depozit sertifikatlari chiqarish orqali jalb qilingan mablag'lar majburiy zaxiraga tortilmaydi.

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan so'nggi yillarda depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish amaliyoti rivojlanib borayotgan bo'lsada, ushbu noemissiyaviy qimmatli qog'ozning banklarning depozitlari tarkibidagi ulushi pasayish tendentsiyasini namoyon etmoqda.

⁷⁵ www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari depozit sertifikatlarining umumiy ulushi 2020-yilda depozitlar tarkibida 3,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 1,7 foizga pasaygan.

Rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan depozit sertifikatlarining asosiy qismi 3 yildan ortiq muddatga chiqarilib, ushbu sertifikatlar ikkilamchi bozorda erkin muomalada bo'ladi. Shuningdek, mazkur sertifikatlar FDIC (Depozitlarni sug'urtalash Federal Korporatsiyasi) tomonidan sug'urtalanadi.

Bundan tashqari, depozit sertifikatlari bo'yicha to'lanayotgan foizlarning miqdori inflyatsiya darajasidan ancha yuqori. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki har qanday jismoniy shaxs o'z aktivlarini yuqori darajada daromad keltiruvchi sohaga yo'naltirishga intiladi.

Shu sababli, sertifikatlarni emissiya jihatidan qulay joylashtirishni ta'minlash uchun banklar quyidagilarni hisobga olishlari kerak:

- investor uchun jozibador foiz stavkasi;
- omonatchilar uchun qulay bo'lgan sertifikat qiymatlari, shu jumladan minimal nominal qiymat;
- chiqarilishning standart shartlari (bir necha turdagi nominal va qulay muddat);
- nominal va hisoblangan foizlarni to'lashning ishonchli kafolatlari;

Mamlakatimizda so'nggi yillarda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimiga aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishonchi ortib borayotgan bo'lsada, banklar tomonidan jalb qilingan depozitlarga to'lanayotgan foizlarning darajasi inflyatsion daromadning yuqoriligi sababli o'z jozibadorligini yo'qotib qo'ymoqda.

Mamlakatimizda jami depozitlarning yuqori salmog'i davlat banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. O'z navbatida depozit sertifikatlari banklar uchun barqaror va qulay vosita hisoblanadi. Bank kapitali tarkibida davlat ulushi yuqori bo'lgan tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozit sertifikatlari chiqarish va ularga to'lanayotgan foizlar barqarorligini ta'minlash orqali bank tizimi depozit bazasini mustahkamlashga erishiladi.

Bank kreditlarining daromadliligi va riskliligiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilamiz.

Belgilanishlar.

1. D — Kreditlardan olingan foizli daromadlar.
2. R — Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar (risk).
3. A — Bankning brutto aktivlari.
4. r — Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarning brutto aktivlarga nisbati ($r=R/A$).

5. g_D — Kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati (31,5%).

6. Δr — Kreditlar bo'yicha yo'qotishlar nisbati pasayishi (0,27 foizli punkt).

Taklif natijalarining matematik tahlili quyidagicha bo'ladi.

1. Kredit daromadlarining o'sishi:

Kredit daromadlari o'sishi quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$D_{2023}=D_{2022}\times(1+g_D)$$

Berilgan qiymatlar bo'yicha:

$$g_D=31.5\%=0.315$$

2. Kreditlar bo'yicha yo'qotishlar nisbati:

Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarning aktivlarga nisbati 2023 yilda 0,27 foizli punktga pasaygan. Bu quyidagicha ifodalanadi:

$$r_{2023}=r_{2022}-\Delta r$$

Bu yerda:

$$\Delta r=0.27\%$$

3. Daromadlilik va risk o'rtasidagi bog'liqlik:

Bankning daromadliligini oshirish va risk darajasini pasaytirish bo'yicha qo'llanilgan strategiya model sifatida quyidagicha ifodalanadi:

$$f(D,r)=D-k\cdot r$$

Bu yerda k risk uchun og'irlik koeffitsienti bo'lib, u bank strategiyasiga mos ravishda aniqlanadi. Ushbu formulada daromadning ortishi D -ning o'sishi bilan, riskning kamayishi esa r - ning pasayishi bilan ko'rsatilgan.

Tijorat banklari resurs bazasini kengaytirish bo'yicha samarali mexanizmni matematik modellashtirishda quyidagi usullar va modellarni qo'llash mumkin:

Resurs bazasi tahlilining asosiy tenglamasi: Resurs bazasining umumiy hajmini ifodalash uchun quyidagi modelni taklif qilish mumkin:

$$RB_t = \alpha \cdot C_t + \beta \cdot D_t + \gamma \cdot L_t + \delta \cdot K_t \cdot RB$$

Bu yerda:

- RB_t : t - momentdagi resurs bazasining umumiy hajmi;
- C_t : kredit mablag'lari;
- D_t : depozitlar hajmi;
- L_t : qarz mablag'lari;
- K_t : bank kapitali;
- $\alpha, \beta, \gamma, \delta$: tegishli omillarning resurs bazasiga ta'sir koeffitsientlari. Ushbu koeffitsientlarni tahliliy usulda (masalan, regressiya tahlili orqali) aniqlash mumkin.

Strategiya natijadorligini baholash: Amalga oshirilgan strategiya natijasida resurs bazasidagi o'sishni baholash uchun nisbiy o'sish ko'rsatkichlari modeli ishlatiladi:

$$G_{RB} = \frac{RB_{t+1} - RB_t}{RB_t} \cdot 100\%$$

Bu yerda G_{RB} resurs bazasining o'sish sur'ati foiz hisobida ko'rsatiladi.

Dinamik modellashtirish: Agar strategiya o'rta muddatli rivojlanishni qamrab olsa, diskret vaqtli dinamik modellar qo'llanilishi mumkin:

$$RB_{t+1} = RB_t + (\alpha \cdot \Delta C_t + \beta \cdot \Delta D_t + \gamma \cdot \Delta L_t + \delta \cdot \Delta K_t)$$

Bu yerda Δ belgisi ma'lum davrdagi o'zgarishni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit operatsiyalarini optimallashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi sababli tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bazaviy stavka bo'lganligi sababli uning o'zgarishi tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Odatda, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining o'zgarishi quyidagi uch omilga bog'liq:

- inflyatsiya darajasiga;
- yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atiga;
- mamlakat bank tizimining barqarorligiga.

Odatda, inflyatsiya darajasining yuqori bo'lishi Markaziy bankka qayta moliyalash stavkasini pasaytirish imkonini bermaydi. Ammo, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini sekinlashishi Markaziy bankni qayta moliyalash stavkasini pasaytirishga majbur qiladi.

Mamlakat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining paydo bo'lishi, odatda, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini pasaytirilishiga olib keladi. Chunki, past qayta moliyalash stavkasida kreditlar berilishi tijorat banklaridagi likvidlilik muammosini hal qilishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, inflyatsiya darajasining oshishi ham tijorat banklarini kreditlarning foiz stavkasini oshirishga majbur qiladi. Chunki, inflyatsiya darajasining oshishi tijorat banklarining kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning real qiymatini pasayishiga sabab bo'ladi.

2.3. Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlashning ekonometrik tahlili.

Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashni baholash jarayonining iqtisodiy mohiyati va unda qo'llanilayotgan uslubiyatni takomillashtirish muammolari ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Resurs bazasini

mustahkamlashda qo'llanilayotgan uslubiy yondashuvlarni shartli ravishda uch guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Tijorat banklari faoliyatini baholashning reyting tizimiga asoslangan uslubiyat. Ushbu uslubiyat yordamida kredit tashkilotlarining ma'lum bir guruhi yoki faoliyati yo'nalishlari tahlil etiladi. O'z navbatida, tahlil protsedurasi buxgalteriya hisobotlari yoki ekspert baholash asosida amalga oshiriladi⁷⁶.

2. Tijorat banklari faoliyatini baholashda koeffitsientlar tizimiga asoslangan uslubiyat. Mazkur uslubiyat nisbatan keng tarqalgan bo'lib, bir qator ustuvorliklarga ega. "Xususan, ular turli hajmli banklar faoliyati natijalarini nisbiy ko'rsatkichlar orqali taqqoslash, o'rnatilgan me'yorlar (yoki me'yoriy cheklovlar) doirasida faoliyatining samaradorligini baholash imkoniyatini beradi. Shu bilan bir qatorda uslubiyatga xos bo'lgan ma'lum kamchiliklarni, jumladan olingan natijalarni interpretatsiya qilishning murakkabligi, tashqi muhitning ta'sirini baholash imkoniyatining cheklanganligini qayd etish mumkin"⁷⁷.

3. Tijorat banklari faoliyatini baholashda moliyaviy tahlilga asoslangan uslubiyat. Mazkur uslubiyatga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri bank faoliyati natijalarini tahlil etishda mutlaq ko'rsatkichlardan qo'llanilishi hisoblanadi. Shuningdek, tahlil protsedurasi ko'p bosqichli bo'lib, o'z tarkibiga:

a) so'nggi hisobot davrlarida moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladigan gorizonttal tahlil;

b) tadqiq etilayotgan moliyaviy ko'rsatkichlarda kuzatilayotgan tendentsiyalarni aniqlashga xizmat qiluvchi trendlar tahlili;

v) mutlaq moliyaviy ko'rsatkichlar tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan vertikal (tarkibiy) tahlil;

g) "amalda yuzaga kelgan moliyaviy koeffitsientlarni belgilangan me'yorlar bilan taqqoslashga asoslangan koeffitsientlar tahlili"⁷⁸.

⁷⁶ Rostami M. CAMELS' Analysis in Banking Industry. Global Journal of Engineering Science and Research Management, 2015, vol. 2, iss. 11, pp. 10–26. <https://www.researchgate.net/publication/283854804>

⁷⁷ Sahajwala R., Van den Bergh P. Supervisory Risk Assessment and Early Warning Systems. BIS Working Paper, 2000, no. 4, 53 p. https://www.bis.org/publ/bcbs_wp4.pdf

⁷⁸ Горбенко М.М. Депозитная политика современных коммерческих банков // Проблемы экономики и менеджмента. 2013. № 5. С. 85–90. http://icnp.ru/sites/default/files/PEM/PEM_21.pdf

Fikrimizcha, tijorat banklarining Resurs bazasini mustahkamlashda bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasida belgilangan parametrlarga ega bo'lsa, uni samarali deb hisoblash mumkin (bu masala ilmiy tadqiqot ishining birinchi bobida ko'rib chiqilgan). Buni e'tiborga olgan holda depozit siyosatining samaradorligini baholash uslubiyati quyidagi mezonlarga mos kelishi zarur:

birinchidan, uslubiyat resurs bazasini mustahkamlashda bank faoliyatining umumiy samaradorligidan ajratilgan holda mustaqil ob'ekt sifatida baholash imkoniyatini berishi zarur. Chunki bank faoliyatining kompleks tahlilini amalga oshirish murakkab jarayon hamda xususiy holatlar (depozit siyosati) yuzasidan aniq ob'ektiv xulosalar olinishi hamma vaqt ham mumkin bo'lmaydi;

ikkinchidan, resurs bazasini mustahkamlashda bank faoliyatini rivojlantirish strategiyasi nuqtai-nazaridan amalga oshirilishi zarur. Bu esa uslubiyat retrospektiv va strategik tahlilni qamrab olishi kerakligidan dalolat beradi;

uchinchidan, uslubiyat olingan natijalarning ob'ektivligini ta'minlab berishi zarur. Bunda koeffitsientlarga asoslangan tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu orqali turli hajmli hamda balans ko'rsatkichlari turli valyutalarda bo'lgan banklar faoliyatini taqqoslash imkoniyati yaratiladi;

to'rtinchidan, uslubiyat o'z tarkibiga zaruriy va yetarli darajadagi moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini olishi zarur;

beshinchidan, uslubiyat ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun depozit siyosati samaradorligi yoki aksincha vaziyat yuzasidan sodda, aniq va ishonarli ma'lumotlarni yetkazib berishi lozim.

Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash jarayonida sifatga ta'sir qiluvchi omillarning iqtisodiy ahamiyatini aniqlash maqsadida ekonometrik tahlil o'tkazdik. Mazkur ekonometrik tahlil ko'p omilli regression va korrelyatsion omillar yordamida mamlakatimiz tijorat banklarining 2013–2024-yillar oralig'idagi ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Natijaviy omil sifatida tijorat banklarining resurs bazasi tanlangan bo'lib, sabab omillar sifatida tijorat banklarining jami depozitlari, regulyativ kapitali, inflyatsiyaning yillik darajasi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi, milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi, banklar tomonidan milliy

valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi hamda so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan yillik devalvatsiya sur'ati tanlandi.

Mazkur omillarning ekonometrik tahlilida o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik matritsasi testi amalga oshirildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – erksiz o'zgaruvchiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi erkli o'zgaruvchilarning ta'sirini yo'qotmaslik uchun multikolinearlik muammosini aniqlash va minimallashtirishdir. Shuningdek, statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgan o'zgaruvchilar tanlab olinib, ko'p omilli ekonometrik model shakllantirildi. Olingan natijalar asosida tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar aniqlanib, ularning har birining ta'sir darajasi tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot tijorat banklari uchun resurs bazasini optimallashtirish bo'yicha strategik qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushu modelning matematik funktsiya ko'rinishi quyidagicha aks ettirilgan.

$$SF=F(DV, IF, CBDR, RF,)$$

Bunda;

SF-tijorat banklarining kreditlari, trln. so'm;

DV- so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan yillik devalvatsiya sur'ati;

IF- inflyatsiyaning yillik darajasi, foizda;

CBDR- Markaziy bankning milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi;

RF- Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi.

Yuqoridagi matematik formuladan kelib chiqqan holda, tadqiqotimizda ekonometrik modelimizni shakllantirdik. Ko'p omilli regression modelni tuzishda tijorat banklarining kreditlari (*sf*) va unga ta'sir qiluvchi omillar qilib, so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan yillik devalvatsiya sur'ati (*dv*), inflyatsiyaning yillik darajasi (*if*), markaziy bankning milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi (*cbdr*) va markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi (*rf*) holda ko'p omilli regression model tuzildi (2.6-jadval).

**Eviews dasturi asosida ko'p omilli regression va korrelyatsion tahlil
natijalari⁷⁹**

Bog'liq o'zgaruvchi: <i>lnsf</i>				
Metod: Eng kichik kvadratlar				
O'zgaruvchi	Koeffitsient	Standart xatolik	t-statistik	Ehtimoligi (P-qiymat)
<i>lndv</i>	-0.526657	0.239014	-2.203457	0.0634
<i>lnif</i>	5.696381	0.748973	7.605588	0.0001
<i>lncbdr</i>	-7.192244	3.700508	-1.943583	0.0930
<i>lnrf</i>	-7.538167	1.126020	-6.694521	0.0003
C	30.05568	9.828668	3.057960	0.0184
Determinatsiya koeffitsienti	0.914881	Bog'liq o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati		3.178156
Tug'irlangan determinatsiya koeffitsienti	0.866241	Bog'liq o'zgaruvchilarning standart chetlanishi		1.097259
Regressiyaning standart xatoligi	0.401301	Akaykening mezoni		1.306126
Qoldiqlarni kvadrat yig'indisi	1.127297	Shvarts mezoni		1.508171
Maksimal o'xshashlik funktsiyasining qiymati	2.836759	Xannan-Kuinn mezoni		1.231322
F-statistikasi	18.80940	Darbin-Uotson statistikasi		2.235296
Ehtimoligi(F-statistikasi)	0.000756			

Yuqoridagi keltirilgan hisob-kitoblar bo'yicha quyidagi ko'p omilli regression model shakllandi.

$$\widehat{lnsf} = 30.05568 + 5.696381lnif - 0.526657 lndv - 7.192244 ln cbdr - 7.538167 lnrf + \varepsilon$$

Shakllangan modelda to'g'rilangan determinatsiya koeffitsienti shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining kreditlari (*sf*)ni 86 foiz modelda shakllantirilgan omillar so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan yillik devalvatsiya sur'ati (*dv*), inflyatsiyaning yillik darajasi (*if*), markaziy bankning milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi (*cbdr*) va markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi (*rf*)ga bog'liqdir. Qolgan 14 foiz esa hisobga olinmagan

⁷⁹ Eviews dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

boshqa omillarga bog'liq hisoblanadi. Tijorat banklarining kreditlari (*sf*)ga ta'sir qiluvchi omil hisoblangan inflyatsiyaning yillik darajasi (*if*) va markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi (*rf*)ga ta'siri darajasini koeffitsientni 5 foizlik muhimlik darajasida aniqlandi. Regression modelining inflyatsiyaning yillik darajasi (*if*) va markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi (*rf*) koeffitsientlari P-qiymatining ehtimolligi 0,05 kichik bo'lib, ushbu koeffitsientlar tijorat banklarining kreditlarini (*sf*) o'zgarishiga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Qolgan o'zgaruvchilar hisoblangan so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan yillik devalvatsiya sur'ati (*dv*) va markaziy bankning milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi (*cbdr*) omillarini bank tijorat kreditlariga ta'siri ehtimolligi koeffitsienti 0,10 dan kichik bo'lib, ushbu koeffitsientlarning ta'sirini ishonchlilik darajasi 90 foizni tashkil etadi. Tuzilgan regression modelining Fisherning F-statistikasining P-qiymatining ehtimolligi 0,05 dan kichik bo'lib, so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan yillik devalvatsiya sur'ati (*dv*), inflyatsiyaning yillik darajasi (*if*), markaziy bankning milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi (*cbdr*) va markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi (*rf*) mustaqil o'zgaruvchi omillarning bog'liq o'zgaruvchi hisoblangan tijorat banklarining kreditlari (*sf*)ga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Tuzilgan modelning prognoz qilishini aniqlash uchun diagnostika tahlilini amalga oshirildi. Ushbu testda Breush-Godfri avtokorreliyasi testi hamda Breush-Pagan-Godfri geteroskedastik testlari o'tkazilib, o'zgaruvchilarda avtokorreliyasi va geteroskedastik muammolari mavjud emasligi aniqlandi.

Ekonometrik modelimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, boshqa omillarni hisobga olmagan holda, so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan yillik devalvatsiya sur'atining 1 foizga oshishi tijorat banklarining resurs bazasini 0,48 foizga kamayishiga, Markaziy bankning milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasining 1 foizga oshishi esa, tijorat banklarining resurs bazasini 6,85 foizga qisqarishiga olib keladi. Shuningdek, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1 foizga oshishi tijorat banklarining resurs bazasini 7,21 foizga kamaytiradi.

Biroq, inflyatsiyaning yillik darajasi 1 foizga oshishi, aksincha, tijorat banklarining resurs bazasini 5,42 foizga oshirishiga olib kelishi mumkin, chunki bu holat aholining omonat va investitsiya qilish tendensiyalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, so'mning yillik devalvatsiya sur'ati, inflyatsiyaning yillik darajasi, Markaziy bankning milliy valyutadagi depozitlarga nisbatan majburiy zaxira stavkasi hamda qayta moliyalash stavkasi bir vaqtning o'zida 1 foizga ohsa, tijorat banklarining resurs bazasi umumiy hisobda 9,12 foizga kamayishi prognoz qilinadi. Bu esa, banklar likvidligi hamda moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tijorat banki depozit siyosati samaradorligini baholash uslubiyati mezonlarining aniqlab olinishi ilmiy va amaliy manbalarda taklif etilgan uslubiyatlarni tahlil etish va shu asosda ushbu uslubiyatni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

A.Burya 'tijorat banklari resurslari barqarorligini ifodalovchi koeffitsientlar: depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'ining o'zgaruvchanligi, ushbu qoldiqlardagi o'zgaruvchanlikning turli turdagi depozitlar bo'yicha proportsionalligi va hisobvaraqlardagi qoldiqlarning barqarorligidan orqali baholashni taklif etgan'⁸⁰.

Bir guruh olimlar (A. Parasuraman, V.A. Zeytxaml va L.L. Berri) tomonidan depozit siyosatining samaradorligini baholashda SERVQUAL (service - "servis" va quality - "sifat" so'larining qisqartmasi) modelining standart algoritmidan foydalanish mumkinligi qayd etilgan.

$$S_{qi} = \sum W_j (P_{ij} - E_{ij}) \quad (2.1)$$

Bunda: S_{qi} – i stimulining qabul qilinishi sifati;

W_j – atributning muhimlilik darajasi;

P_{ij} – j atributga nisbatan yaratilgan i stimulni qabul qilish sifati;

⁸⁰ Буря, А. Методика анализа клиентских средств банка -Москва : Вагриус, 2008 - 154 с.

E_{ij} – i ko'rsatkich uchun me'yoriy hisoblanuvchi j atributi uchun kutilayotgan daraja/

Ushbu modelda raqamlarda ifodalangan beshta sifat indikatori (Q) qo'llaniladi. Har bir sifat indikatori 22 ta kichik mezonlardan iborat. Kichik mezonlarda qayd etilgan ko'rsatkichlar umumlashtirilib, tijorat banki depozit xizmatlarining sifati koeffitsienti aniqlanadi⁸¹.

Rus olimi N.G.Radchenko "Ukrsotsbank" resurs bazasini samaradorligini baholash uchun 4 bosqichdan iborat bo'lgan tahlil uslubiyanidan foydalangan. Birinchi bosqich – depozitlar va kredit hajmi dinamikasi tahlili; ikkinchi bosqich – kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari dinamikasi tahlili; uchinchi bosqich – bozor segmentlari va muddati bo'yicha kreditlar va depozitlar hajmi tahlili; to'rtinchi bosqich – depozit siyosati samaradorligi ko'rsatkichlarini baholash.

Tahlil jarayonida qo'llanilgan ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- aktivlardan olinadigan foydani maksimallashtirish mezoni (hisoblash formulasi $A_1 = (\text{foyda} - \text{xarajatlar}) / \text{aktivlar}$);
- mutloq likvidlilik koeffitsienti (hisoblash formulasi $L_1 = \text{likvid aktivlar} / \text{talab qilgunga qadar majburiyatlar}$);
- barqarorlik koeffitsienti (hisoblash formulasi $B_1 = \text{kapital} / \text{ishlovchi aktivlar}$);
- passivlarda kapitalning barqarorligi darajasi (hisoblash formulasi $B_2 = \text{kapital} / \text{jami majburiyatlar} * 100\%$);
- foyda hisobiga shakllantirilgan kapitalning salmog'i (hisoblash formulasi $B_3 = (\text{kapital} - \text{foyda hisobidan shakllantirilgan kapital}) / \text{kapital}$);
- jalb etilgan resurslardan foydalanish samaradorligi (hisoblash formulasi $S_1 = \text{foyda} / \text{jami majburiyatlar}$);
- bank operatsiyalari samaradorligi (hisoblash formulasi $S_2 = \text{foyda} / \text{ishlovchi aktivlar}$);
- kapitaldan foydalanish samaradorligi (hisoblash formulasi $S_3 = \text{foyda} / \text{kapital}$);
- aktivlar samaradorligi (hisoblash formulasi $S_4 = \text{foyda} / \text{jami aktivlar}$);

⁸¹ Gounaris, S. Measuring service quality in b2b services: an evaluation of the SERVQUAL scale vis-a-vis the INDSERV scale Journal of Service Marketing. - 2005. - № 19/6. - P. 421-435.

- jalb etilgan mablag'lardan foydalanish koeffitsienti (hisoblash formulasi $F = \text{likvid aktivlar} / \text{jami majburiyatlar}$)

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar hamda bank balansi ma'lumotlaridan foydalangan holda bank depozit siyosatining samaradorligi ko'rsatkichi aniqlanadi.

$$DSS = \frac{(Po - Pt) + (Ko - Kt) - Dh - Zh}{(Pb - K - Ai)} \quad (2.2.)$$

Tijorat banklari uchun resurs bazasining barqarorligi ularning moliyaviy mustahkamligi va uzoq muddatli likvidligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar mijozlarning omonatlar bilan bog'liq harakatlarini, depozitlarning aylanuvchanligi va barqarorligini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishi tijorat banklarining resurs bazasiga bevosita ta'sir qiladi.

Tahlil davrida mijozlar guruhleri bo'yicha omonatlar aylanmasi soni bank depozitlarining qanchalik faol aylanayotganini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi mijozlarning omonatlarni qisqa muddatga joylashtirish tendensiyasini ko'rsatadi, bu esa bankning uzoq muddatli resurslar bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Aksincha, ko'rsatkichning pastligi depozitlarning barqarorligini oshiradi va tijorat banklariga kredit resurslarini yanada samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Mijozlar guruhleri bo'yicha jalb etilgan depozitlar koeffitsienti bank tomonidan jalb qilingan omonatlar qanday yo'naltirilganini aniqlashga yordam beradi. Agar ushbu koeffitsient bank tomonidan kreditlash strategiyasiga mos kelmasa, bu resurs bazasining optimallashtirilmaganligini anglatishi mumkin. Bank omonatlarni uzoq muddatli kreditlash uchun jalb qilgan taqdirda, barqaror resurs bazasi shakllanishi ehtimoli oshadi.

Mijozlarning bankda omonatlarini saqlash muddati resurs bazasining mustahkamligi uchun hal qiluvchi omillardan biridir. Uzoq muddatli depozitlar bankning likvidlik riskini kamaytiradi va kredit siyosatini samarali yuritishga imkon yaratadi. Aksincha, qisqa muddatli omonatlar bank uchun qo'shimcha tavakkalchiliklarni yuzaga keltiradi.

**Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini ifodalovchi
koeffitsientlar⁸²**

Ko'rsatkich nomi	Hisoblash tartibi	Iqtisodiy mohiyati
Tahlil davrida mijozlar guruhlarini bo'yicha omonatlar aylanmasi soni	Tahlil davrida mijozlar guruhlarini qaytarilgan depozitlar summasining depozitlar bo'yicha mablag'lar qoldig'iga nisbati	Tahlil davrida mijozlar omonatlaridagi mablag'lar-ning aylanuvchanligini ko'rsatib beradi
Mijozlar guruhlarini bo'yicha jalb etilgan depozitlar koeffitsienti	Mijozlar guruhlarini bo'yicha jalb etilgan depozitlar va berilgan kreditlar summasi o'rtasidagi nisbat	Mijozlarning har bir guruhidan jalb etilgan depozitlar mijozlarning qanday guruhlarini kreditlashda ishlatilgan-ligini aniqlab beradi
Mijozlarning guruhlarini bo'yicha tuzilgan depozit shartnomalari koeffitsienti	Tahlil davri boshi va oxiriga mijozlar guruhi bo'yicha tuzilgan depozit shartnomalar o'rtasidagi farq	Mijozlar guruhlarini bo'yicha depozit shartnomalari soni ko'payganligi yoki kamayishini ko'rsatib beradi
Mijozlarning guruhlarini bo'yicha omonatlar qoldig'ining o'zgaruvchanlik koeffitsienti	Tahlil davrida har bir mijoz guruhi bo'yicha omonatlarning minimal va o'rtcha miqdori o'rtasidagi nisbat	Ko'rsatkichning 1 ga yaqinlashishi omonatlarning barqarorligidan dalolat beradi
Mijozlarning guruhlarini bo'yicha omonatlar qoldig'ining barqarorligi koeffitsienti	Tahlil davrining turli sanalarida har bir mijoz guruhi bo'yicha omonatlar qoldiqlar o'rtasidagi farq	Omonatlar qoldig'ining barqarorligi (favqulodda holatlardan tashqari) bankning moliyaviy barqarorligini ifodalaydi
Mijozlarning guruhlarini bo'yicha omonatlarni bankda saqlanishining o'rtacha muddati	Mijozlar guruhlarini bo'yicha tahlil davrida omonatlar qoldig'ining o'rtacha summasining qaytarib olingan omonatlar summasiga nisbati	

Shunday qilib, tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlash uchun depozitlarning tarkibi, mijozlarning xatti-harakati va omonatlarning aylanuvchanligini doimiy monitoring qilib borishi zarur. Uzoq muddatli depozitlarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish va mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish resurs bazasining mustahkamlanishiga olib keladi.

⁸² С.В.Рыков. Совершенствование формирования и реализации депозитной политики коммерческих банков в Российской Федерации. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10. Самара. 2019 г. 79-82 стр.

Tijorat banklari depozit siyosati samaradorligini ifodalovchi koeffitsientlar⁸³

Ko'rsatkich nomi	Hisoblash tartibi	Iqtisodiy mohiyati
Sof SPRED	$SSPRED = (Fk / K) \cdot 100 \% - Df / D \cdot 100 \%$, Bunda: SSPRED – sof SPRED; Fk – kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar; K – berilgan kreditlar summasi; Df – depozitlar bo'yicha hisoblangan foizlar; D – jalb etilgan depozitlar summasi	Kredit quyilmalari bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari va jalb etilgan depozitlar shartnomasidagi foiz stavkalari o'rtasidagi farq
Foiz marjasi	$FM = (Fk - Df) / DAo'rt. \cdot 100 \%$, Bunda: FM foizli marja; DAo'rt. – daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha qoldig'i	Foizli marjaning bank faoliyatiga rentabelligiga ta'siri darajasini aniqlashga xizmat qiladi
Jalb etilgan depozit resurslari o'rtacha qiymati koeffitsienti	$JX / Do'rt.$ Bunda: JX-depozit resurslarini jalb etishga qilingan jami xarajatlar; Do'rt. – jalb etilgan depozitlarning o'rtacha summasi	Jalb etilgan depozitlarga qilingan xarajatlar miqdorini aniqlash imkoniyatini beradi
Jalb etilgan depozit resurslaridan foydalanish koeffitsienti	$Kdrf = D / K \cdot 100 \%$, Bunda: Kdrfs – jalb etilgan depozit resurslaridan foydalanish koeffitsienti	Jalb etilgan depozitlar-ning kreditlarga yo'naltirish darajasini aniqlab beradi
Jalb etilgan depozit resurslaridan foydalanish samaradorligi koeffitsienti	$Kdrfs = X / FM \cdot 100 \%$, Bunda: Kdrfs – jalb etilgan depozit resurslaridan foydalanish samaradorligi koeffitsienti	Depozit resurslarini jalb etish bo'yicha qilingan xarajatlarning daromad keltirishi darajasini aniqlashga xizmat qiladi
Depozit operatsiyalari samaradorligi	$Sdo = Df / DQm$, Bunda: Sdo – depozit operatsiyalari samaradorligi; DQm – bank mijozlari depozit hisobvarqlaridagi mablag'larning o'rtacha qoldig'i	

Tijorat banklari depozit siyosatining samaradorligini baholash bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan koeffitsientlar tahlil etilayotgan bank faoliyat olib borayotgan muhit, uning hajmi va faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga qarab kamaytirilishi yoki qo'shimcha ko'rsatkichlar bilan to'ldirilishi mumkinligi S.V.Rikov tomonidan alohida qayd etilgan.

⁸³ С.В.Рыков. Совершенствование формирования и реализации депозитной политики коммерческих банков в Российской Федерации. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10. Самара. 2019 г. 93-94 стр.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsiya ishimizning ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillar natijasida mamlakatimiz bank amaliyotida tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash uchun quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Resurslar tarkibining diversifikatsiyasi: Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklarining resurs bazasini kengaytirishda asosiy vosita bo'lib, ularning diversifikatsiyasi moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

2. Depozit bazasining ahamiyati: Mijozlardan jalb qilingan depozitlar tijorat banklari uchun asosiy va nisbatan arzon resurs manbai bo'lib, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

3. Moliyaviy instrumentlarning roli: Bankning jalb qilingan mablag'larni kengaytirishi uchun obligatsiyalar, sertifikatlar va boshqa moliyaviy instrumentlardan foydalanish strategik ahamiyatga ega.

4. Bozor sharoitlariga moslashuvchanlik: Jalb qilingan mablag'larning miqdori va sifati bozor sharoitlari, iqtisodiy sikllar va mijozlarning ishonchi darajasiga bog'liq.

5. Mijozlar segmentatsiyasi: Mijozlarni segmentatsiya qilish va ularning yehtiyojlariga mos moliyaviy xizmatlarni taklif etish depozitlarni jalb qilish samaradorligini oshiradi.

6. Foiz siyosatining ta'siri: Foiz stavkalarining moslashuvchanligi va raqobatbardoshligi jalb qilingan mablag'larning hajmini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

7. Texnologik innovatsiyalar ta'siri: Bank xizmatlarini raqamlashtirish va onlayn platformalarni joriy qilish orqali mijozlar omonatlarini jalb qilishda innovatsion yechimlar muhim rol o'ynaydi.

8. Likvidlikni boshqarishning dolzarbligi: Jalb qilingan mablag'larning samarali boshqaruvi bank likvidligini ta'minlash va aktivlarning optimal taqsimlanishiga yordam beradi.

9. Tartibga solishning o'rni: Markaziy banklar tomonidan belgilangan normativ talablar va qonunchilik jalb qilingan mablag'lar strukturasi va hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI RIVOJLANTIRISH VA UNI MUSTAHKAMLASH ISTIQBOLLARI

3.1-§. Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Tijorat banklari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular o'z resurslari orqali moliyaviy vositachilik funksiyasini amalga oshiradi, korxonalar va jismoniy shaxslarga kreditlar ajratib, umumiy iqtisodiy faollikni oshiradi. Banklarning resurs bazasi ularning kredit berish imkoniyatlarini belgilaydi va moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Shu sababli, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari iqtisodiyotning barqarorligi va samaradorligi nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq muammolar, xususan, banklarning depozitlar va kredit resurslarini kengaytirishdagi qiyinchiliklar, likvidlik va barqarorlikni ta'minlashdagi murakkabliklar hamda bozordagi raqobat kuchayishi bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari tahlil qilinadi, mavjud cheklovlar va imkoniyatlar ko'rib chiqiladi hamda ushbu muammolarni hal qilish uchun tavsiyalar beriladi.

Tijorat banklarining resurs bazasi asosan o'z va jalb qilingan mablag'lardan iborat. O'z mablag'lari bankning asosiy kapitali bo'lib, aksiyadorlar tomonidan qo'yilgan ulushlardan tashkil topadi. Jalb qilingan mablag'lar yesa asosan depozitlar, kreditlar va boshqa moliyaviy instrumentlardan iborat bo'ladi. Depozitlar bankning yeng asosiy jalb qilingan mablag'laridir va ular bankning likvidligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.


Banklarning resurs bazasini kengaytirish va mustahkamlashda depozitlarning ahamiyati juda katta. Lekin depozitlarning hajmi asosan aholining daromad darajasi, moliyaviy tizimga ishonch va iqtisodiy barqarorlik kabi omillarga bog'liq. Shu bilan birga, tijorat banklari xalqaro bozorlar va moliyaviy tashkilotlardan ham mablag' jalb qilish orqali o'z resurs bazasini kengaytirishi mumkin. Biroq bunday mablag'larni jalb

qilishda valutar kursidagi o'zgarishlar, foiz stavkalaridagi farqlar va xalqaro moliyaviy inqirozlar kabi risklar mavjud.

Tijorat banklariga nisbatan Markaziy banklar tomonidan belgilanadigan iqtisodiy me'yorlar ham ularning birinchi darajali kapitaliga nisbatan o'rnatilgan.

Navbatda, biz G'arbiy Yevropa mamlakatlari bank tizimlari rentabellik darajasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Banklar faoliyatining samaradorligini baholash uchun eng avvalo, aktivlar rentabellik darajasi «ROA» o'rganiladi. Ushbu ko'rsatkichni tahlil qilish uchun biz Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya hamda Yevrozona mamlakatlari «ROA» o'rtacha ko'rsatkichlari ma'lumotlaridan foydalanamiz.



3.1-rasm. G'arbiy Yevropa mamlakatlari bank aktivlari rentabellik (ROA) darajasi o'zgarish dinamikasi⁸⁴, foizda


Tahlil qilingan davrlar ko'rsatkichning o'zgarish tendentsiyasi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida aktivlar rentabellik darajasi 1foizdan past bo'lganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Italiyada ushbu ko'rsatkich 2019-2024-yillarda faqat manfiy ko'rsatkichga ega, nazorat qiluvchi organlar Italiyada bank aktivlari strukturasi alohida e'tibor qaratmasa, risklilik darajasini, samarali boshqarish tizimini bank tizimiga joriy etmasa, banklar barqarorligiga putur yetadi va tizimli inqirozlar yuzaga kelish xavfi paydo bo'ladi.

⁸⁴ www.worldbank.org internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Umuman olganda, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida banklarning risklilik darajasi ancha yuqori ekanligi, uni samarali boshqarishda banklarda turli moliyaviy qiyinchiliklar vujudga kelganligi, aktivlar tarkibida ishlamaydigan va yomon aktivlar salmog'ining yuqoriligi bilan belgilanadi. Bu holat esa, ushbu mamlakatlar bank tizimi barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Bank tizimi aktivi rentabellik darajasi bilan birga bank kapitali rentabellik darajasini ham o'rganish zarur hisoblanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida u quyidagicha ko'rinishni oldi.

Bank tizimi barqarorligini belgilovchi indikatorlar sifatida bank aktivlari, kreditlari, aholi omonatlarining mamlakat YaIMga nisbati orqali baho berish mumkinligi yuzasidan to'xtalib o'tgan edik. Shu bois navbatda, ushbu indikatorlarning Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya va Italiya kabi rivojlangan davlatlarda tahlilimizni davom ettiramiz.




3.2-rasm. Bank aktivlarining YaIMga nisbati⁸⁵, foizda

Ushbu rasm ma'lumotlaridan, Buyuk Britaniyada yalpi aktivlarning YaIMga nisbati 500 foizdan yuqori ekanligi ko'rinadi, bu esa haqiqatdan ham London dunyo moliya markazi ekanligini va bank yalpi aktivlari mamlakat YaIMdan bir necha barobar yuqori ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, rasmdagi boshqa davlatlarda ham ushbu ko'rsatkich 200 foizdan kam emas, shu bois bank yalpi

⁸⁵ www.worldbank.org internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

aktivlarining YaIMga nisbatan salmog'i bank barqarorligiga, bank xizmatlari rivojlanganligiga baho berishda eng muhim ko'rsatkichlardan biri ekan deb bimalol ayta olamiz.


Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichga yaqin bo'lgan va yalpi aktivlar tarkibida turgan yalpi kreditlar hajmi ham bank tomonidan kredit resurslar ajratilishi va tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash, mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yalpi kreditlarning mamlakat YaIMga nisbati ham alohida o'rganiluvchi indikatorlardan biri hisoblanadi.



3.3-rasm. Bank kreditlarining YaIMga nisbati⁸⁶, foizda

Ushbu rasm ma'lumotlaridan tahlil etilayotgan davlatlarda, faqat Italiya va Frantsiya davlatlarida 100 foizdan bir oz kam bo'lsada, qolgan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 100 foizdan ortiq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, bank tizimi barqarorligini belgilashda yalpi kreditlar va uning hajmi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkich orqali empirik tadqiqotlarda eng maksimal chegara sifatida YaIMga nisbatan 90-100 foiz deb belgilanidan kelib chiqib, Germaniyada ushbu me'yorga biroz yaqinlashgani uning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ijobiy holat hisoblanadi.


⁸⁶ www.worldbank.org internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



3.4-rasm. Aholi omonatlarining YaIMga nisbati⁸⁷, foizda

Ushbu rasm ma'lumotlaridan, aholi omonatlarining mamlakat YaIMdagi salmog'i ham dunyo bank amaliyotida tahlil etiluvchi eng asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Ayrim iqtisodchilar, ushbu ko'rsatkich 20 foizdan kam bo'lmasligini ta'kidlashadi. Shu bois ushbu indikator Italiyada me'yordan kamida 3 barobar, Frantsiya va Germaniyada 4 barobarga, Buyuk Britaniyada 7 barobar yuqoriligi aniqlandi.

Yalpi kapitalning yalpi aktivlardagi ulushi orqali yalpi bank kapitali yetarliligini, banklar kapitallashish darajasi, shuningdek leveradjini aniqlashtirish mumkin. Jahon banki ekspertlarining fikricha, ushbu indikatorning minimal talabi 10 foiz qilib belgilangan.



3.5-rasm. Yalpi kapitalning yalpi aktivlarga nisbati⁸⁸, foizda

⁸⁷ www.worldbank.org internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁸⁸ www.worldbank.org internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3.5-rasm ma'lumotlaridan, Yevropa mamlakatlarida ushbu me'yor barchasida 10 foizdan past, lekin shu bilan birga ushbu ko'rsatkich yildan-yilga oshib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bizning fikrimizcha, bunga sabab Bazel qo'mitasining bank kapitali va uning yetarliligi yuzasidan yangi talablarining kuchaytirilganidir.

Navbatda, biz Buyuk Britaniyaning eng yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan «Barclays Bank» faoliyatini tahlil etishga harakat qilamiz.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari bank tizimi barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslarini takomillashtirish borasidagi tajribasining o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- * G'arbiy Yevropa mamlakatlarida AQShda bo'lgani kabi tijorat banklarini masofadan nazorat qilish, ular faoliyatini o'rganib borish «CAMELS» reyting tizimiga o'xshash, har bir davlatlar o'ziga xos reyting tizimlari orqali banklar faoliyatini tartibga solishi va masofadan turib o'rganib nazorat qilish amaliyoti mavjud. Masalan, bularga Germaniyada «BAKIS», Italiyada «PATROL», Frantsiyada «ORAP» reyting tizimlarini aytish mumkin;

- * G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish tizimining Bazel standarti talablariga asoslanganligi uning barqarorligini ta'minlashning bosh omili hisoblanadi;

- * Bazel standartining doimiy ravishda takomillashtirib borilishi, birinchi navbatda, banklar faoliyatida mavjud bo'lgan risklar darajasining oshishi bilan izohlanadi;

- * «Bazel II» standartini joriy qilinishi natijasida G'arbiy Yevropa mamlakatlari bank tizimida kredit riski va operatsion risklarning darajasini sezilarli darajada pasaytirishga muvaffaq bo'lindi (kredit riskiga qarshi qilingan zaxiralar me'yoriy darajadan yuqori emas);

- * «Bazel III» standartining amaliyotga tatbiqi natijasida, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bank tizimining likvidlilik va kapitallashtirish darajasini 2024-yilgacha bo'lgan davrda yuqori sur'atlarda oshirish imkoni yuzaga keladi;

- * Aktivlar rentabellik darajasi 2014-2024-yillarda yevrozonada ham alohida tahlil etilgan, ayrim Yevropa davlatlarida ham me'yor darajasidan 1 foizdan past

ekanligi kuzatiladi. Bu esa, ushbu mamlakatlarda banklar faoliyatida risklilik darajasi yuqoriligidan dalolat beradi va natijada, bank aktivlari rentabelligi me'yor darajasidan past bo'lishiga erishilgan. Bu esa, kelgusida ushbu davlat banklari barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

* Kapital rentabelligik darajasi 2024-yilda yevrozonada me'yor darajasidan yuqori bo'lgan bo'lsa, lekin 2015-2024-yillarda yevrozonada ham alohida tahlil etilgan ayrim Yevropa davlatlarida ham me'yor darajasidan, ya'ni, 10 foizdan past ekanligi kuzatildi. Bu esa, ushbu mamlakatlar banklari faoliyatida kapitallashish darajasining yetarli emasligi, mavjud mablag'lar esa asosan, risklilik darajasini qoplashga yoki turli zaxiralar shakllantirishga yo'naltirayotganligi bilan belgilanadi. Bu esa kelgusida ushbu davlat banklari barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi;

* Buyuk Britaniyaning «Barclays Bank» faoliyatining tahlili, yirik tijorat banklari asosiy e'tiborlarini qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan investitsion operatsiyalarga qaratishmoqda. Bu esa, ular faoliyatidagi risk darajasini oshirishga sabab bo'lishi mumkin. Chunki, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar ichida derivativlar nisbatan yuqori salmoqni egallaydi;

* Germaniyaning «CommerzBank» faoliyatida 2017-2024-yillarida kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining aktivlar o'rtacha summasiga nisbati me'yor darajasidan oshmagan. Bu esa, ushbu bank faoliyatida, bank turli risklarini boshqarish ishlari talab darajasida ekanligi, risklarni boshqarishning samarali tizimi yaratilganligidan dalolat beradi, sababi, aynan ushbu bankda kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari me'yor darajasidan oshmaganligi bilan belgilanadi. Bu esa, banklar barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashdagi muammolar:

1. Depozit bazasining noaniqligi: Aholi va korxonalar depozitlari banklarning asosiy resursi hisoblanadi. Lekin iqtisodiy barqarorlik yetishmovchiligi va moliyaviy inqirozlar paytida aholining banklarga bo'lgan ishonchi pasayishi mumkin. Bu holat depozitlarning kamayishiga va banklarning likvidlik muammolariga olib keladi.

2. Likvidlikni ta'minlashdagi qiyinchiliklar: Banklarning likvidlik darajasi ularning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatini belgilaydi. Agar bankning likvidlik darajasi past bo'lsa, bu bankning moliyaviy barqarorligiga xavf tug'diradi. Ko'plab tijorat banklari likvidlikni ta'minlashda markaziy bank kreditlaridan foydalanishga majbur bo'ladi, bu yesa ularning mustaqilligini cheklaydi.

3. Xalqaro moliyaviy bozorlarning ta'siri: Tijorat banklari xalqaro moliyaviy bozorlardan resurslar jalb qilishga harakat qiladi. Lekin xalqaro bozorlarning noaniqligi va valutar kursidagi tebranishlar bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, milliy valutada qarzдорlikning oshishi va valutar kursidagi keskin o'zgarishlar banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Foiz stavkalari bilan bog'liq muammolar: Banklarning resurs bazasini kengaytirishdagi muhim muammolardan biri foiz stavkalaridir. Agar markaziy bank foiz stavkalarini oshirsa, bu tijorat banklari uchun jalb qilingan mablag'larning narxini oshiradi va ularning kredit berish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash ular uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifa, ayniqsa, iqtisodiy barqarorlik va bank tizimining samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan dolzarbdir. Depozit bazasining kengayishi, likvidlikni ta'minlash, xalqaro moliyaviy bozorlardan resurslar jalb qilish, foiz risklarini boshqarish va raqobatni yengish kabi masalalar banklarning resurs bazasini mustahkamlashda asosiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil qilinayotgan muammolarni hal qilish uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish, markaziy bankning qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish, resurslarni diversifikatsiya qilish va innovatsion mahsulotlarni joriy yetish kabi strategiyalarni amalga oshirish zarur.

Shuningdek, banklar o'z faoliyatida zamonaviy moliyaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish orqali xavflarni kamaytirishi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

Mazkur tahlil tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq muammolarni chuqurroq o'rganishga yordam beradi va bank tizimining barqarorligini

oshirish uchun muhim tavsiyalarni beradi. Shu tariqa, tijorat banklari iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga va moliyaviy tizimning barqarorligiga o'z hissasini qo'shadi.

tizimining har tomonlama taraqqiy etishi, xalq farovonligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotimizni mamlakatimizning strategik hamkorlaridan biri hisoblanuvchi Qozog'iston Respublikasi bank tizimida jismoniy va Shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, chet el kapitali ishtirokidagi banklarning faolligini rag'batlantirish, yuqori sifatli va zamonaviy bank xizmatlarini taklif etish orqali bank tizimida raqobat muhitini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuni ta'kidlashimiz mumkinki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolar va kamchiliklarning bartaraf qilinishi istiqbolda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasining kengayishiga xizmat qiladi. Chunki, ushbu chora-tadbirlar muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri hisoblanib, mamlakatimiz tijorat banklari resurslari hajmini oshirish va barqarorligini taminlash doirasida qator imkoniyatlar yaratadi. Ulardan samarali foydalanish esa banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan bir qatorda, bank tizimiga nisbatan aholining ishonchini ortishiga hamda mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, Respublikamizda bank yuridik shaxslarning depozitlari faoliyati, shuningdek, mamlakatning eng yirik banki hisoblanuvchi Xalq banki tomonidan depozit siyosatini amalga oshirishning joriy holatini tahlil etish orqali undagi asosiy tendentsiyalarni aniqlashga harakat qilamiz.

Qozog'iston Respublikasi Milliy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga kelib, Respublikada 28 tijorat banki va bank operatsiyalarining alohida turlari bilan shug'ullanuvchi 7 tashkilot faoliyat yuritgan. 2023-yil davomida 5 tijorat banki o'z faoliyatini tugatgan. Ulardan. Bu davirda «Kazinvestbank», «Delta Bank» va «Qazaq Banki» tegishli sudlar qarori asosida faoliyatini to'xtatgan bo'lsa,

«Bank Astana» va «Eksimbank Kazaxstan» AJlarning faoliyatini olib borish bo'yicha litsenziyalari Milliy bank tomonidan qaytarib olingan⁸⁹.

3.1-jadval

Qozog'iston Respublikasi tijorat banklari jamlanma balansi dinamikasi⁹⁰, (mln.tanga)

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Jamlanma balans	18 239 255	23 784 427	25 561 157	24 220 516	25 240 959
Yil yakunida AQSh dollari / tanga kursi	182,35	339,47	333,29	332,33	384,20
AQSh dollarida ifodalangan jamlanma balans	100 023	70 063	76 693	72 881	65 697
Mijozlarga ajratilgan kredit va lizing	10 360 923	13 764 673	13 662 143	11 034 734	11 632 369
Kredit operatsiyalarining salmog'i, %	56,8	57,9	53,4	45,5	46,1
Mijozlar oldidagi majburiyatlar	11 430 551	15 829 587	17 471 404	16 779 346	17 164 724
Muddatli jamg'armalar	272 278	432 201	261 517	145 665	140 654
Jami depozitlar	11 702 829	16 261 788	17 732 921	16 925 011	17 305 378
Depozitlarsalmog'i, %	64,2	68,4	69,4	69,9	68,6
Depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbat, %	112,9	118,1	129,8	153,4	148,8
Bank kapitali jami	2 359 682	2 494 486	2 844 859	3 091 036	3 017 554
Bank kapitalining balansdagi salmog'i,%	12,9	10,8	11,2	12,7	11,9
Muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	1 215 103	2 100 933	1 778 127	1 321 077	1 665 143

⁸⁹ <https://nationalbank.kz/> ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

⁹⁰ <https://nationalbank.kz/> ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2024-yil yakuniga kelib, Qozog'iston Respublikasi bank sektorida jamlanma balansi 25 240 959 mln.tangani yoki yil yakunidagi tanganing AQSh dollariga nisbatan shakllangan kursi bo'yicha 65 697 mln.AQSh dollarini tashkil etgan. Banklarning jamlanma balansi 2020-yildagiga nisbatan 7 001 704 mln.tangaga yoki 138,4 foizga ko'paygan. Ammo AQSh dollarida ifodalangan balans hajmi 2020-yildagiga nisbatan 34 326 mln.AQSh dollariga kamaygan.

Tahlil davrida jismoniy va yuridik shaxslarning milliy va xorijiy valyutada jalb etilgan depozitlari hajmi kupayish tendentsiyasini namoyon etgan. Jumladan, bank sektoriga jalb etilgan depozitlar hajmi 2020-yilda 11 702 829 mln.tanga bo'lgan bo'lsa, 2024-yil yakunida depozit hisobvaraqlari qoldig'i 17 305 378 mln.tangani tashkil etgan. Bunga mos ravishda jamlanma balansdagi depozitlar salmog'i 2020-yildagi 64,2 foizdan 2024-yilga kelib, 68,6 foizgacha oshgan. Tijorat banklarining depozit portfelida xorijiy valyutadagi omonatlar hajmi ko'payish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2024-yil yakuniga kelib, yuridik shaxslarning AQSh dollarida ochilgan depozitlari salmog'i 49,3 foizni tashkil etib, 2023-yildagiga nisbatan 5,5 foiz punktga ko'paygan. Jismoniy shaxslarning depozitlari bo'yicha aksincha holat kuzatilgan: 2023-yilda AQSh dollarida ochilgan depozitlarning jami depozilardagi salmog'i 52,2 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2024-yil yakunlariga ko'ra 47,4 foizga tashkil etgan yoki 4,8 foiz punktga kamaygan. 2024-yilda yuridik shaxslarning milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari 7,1 foizni (2023-yilda 8,0 foiz) jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha 10,4 foizni (2023-yilda 11,7 foiz) tashkil etgan.

Bank tizimiga jalb etilgan depozitlar hajmining oshib borishi tijorat banklarining resurs bazasini nisbatan arzon va uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar bilan mustahkamlash imkoniyatini bergan. 2024-yil yakunida yuridik shaxslarga taqdim etilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari 11,7 foizni, jismoniy shaxslar ajratilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkasi 17,2 foizni (2024-yilda o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 18,5 foiz, 2023-yilda 18,8 foiz, kamayish 0,3 foiz punkti) tashkil etgan. Shu bilan bir qator banklarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri

hisoblanuvchi depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbat talab darajasida bo'lgan. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2020-yilda 112,9 foizga bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 153,4 foizni, 2024-yilda 148,8 foizni tashkil etgan.

Tijorat banklarining jamlanma balansidagi xususiy kapitalning salmog'i bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan o'rnatilgan me'yorlarga mos darajada bo'lgan; 2024-yil yakunida 11,9 foizni tashkil etgan.

Shuni e'tiborga olish zarurki, fikrimizcha Qozog'iston Respublikasi Milliy banki aholining vaqtinchalik bo'sh mablag'larini tijorat banklari va boshqa tashkilotlar orqali jalb etish bo'yicha kutilmagan qarorlarni qabul qilib bormoqda. Xususan, 2023-yilning may oyida aholiga oltin quymalarini sotish yo'lga qo'yilgan. 2024-yilning noyabr oyidan nafaqat tijorat banklari, shuningdek, naqd xorijiy valyuta bilan ishlash vakolatiga ega bo'lgan tashkilotlar ham oltin savdosi bilan shug'ullana boshlashgan. 2024-yil yakuniga kelib, sotuvga chiqarilgan oltin quymalari 5 turda bo'lgan: 5,10,20,50 va 100 gramm. Milliy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda aholiga 151 kilogramm vazndagi 3 962 oltin quyma 3 mlrd.tangaga sotilgan.

Fikrimizcha, yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammo va kamchiliklarning bartaraf qilinishi istiqbolda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari resurs bazasining kengayishiga xizmat qiladi. Chunki, ushbu chora-tadbirlar muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri hisoblanib, mamlakatimiz tijorat banklari resurslari hajmini oshirish va barqarorligini taminlash doirasida qator imkoniyatlar yaratadi. Ulardan samarali foydalanish esa banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan bir qatorda, bank tizimiga nisbatan aholining ishonchini ortishiga hamda mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, Respublikamizda bank tizimining har tomonlama taraqqiy etishi, xalq farovonligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

3.2-§. Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash istiqbollari

Bugungi kunda respublikamizda ikki pog'onali mukammal bank tizimi shakllandi va rivojlanmoqda, banklarning xizmat turlari hamda sifatida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda, chet el banklari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatildi

va takomillashib bormoqda. Biroq banklar resurslardan samarali foydalanishi hamda resurs bazasini mustahkamlash bilan bog'liq ayrim masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Bundan kelib chiqadiki, tijorat banklarning recurs bazasini shakllanishi jarayonining muhim jihatini uning tuzilishini optimallashtirish hisoblanib, recurslar optimal nisbatini aniqlash zarurligi normativ cheklovlar va bankning faoliyat olib borish maqsadlari orqali aniqlanadi.

Tijorat banklar faoliyatining o'ziga xos jihatini hisobga olgan holda, bank recurs bazasining optimal tuzilishi deganda, uning elementlarining shunday nisbatini ta'minlash hamda mablag'lar manbalarini bankning 3 maqsadiga: balans likvidligini ta'minlash, kapital yetarliligi va bank faoliyati samaradorligini ta'minlanishiga bir vaqtning o'zida erishish tushuniladi.


Resurs baza tuzilishini optimal baholash uchun iqtisodiy adabiyotlarda, odatda, bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi: rentabellik, bank kapitali multiplikatori, sof foyda, bitta aktsiyaga to'g'ri keluvchi aktsiyadorlik kapitali tomonidan tashkil etilgan qo'shilgan qiymat va boshqalar⁹¹.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bank resurslari tuzilishini optimallashtirish mezonlari tizimi yaxlitligi mavjud emas, banklarning o'zaro uzviy aloqasini aks ettiruvchi: "bank-omonatchi", "bank-korxona", "bank-aktsiyador"- bank resurslari holati va ulardan foydalanish samaradorligini har tomonlama baholashga imkon beradi. Shuning uchun, tijorat banklarning resurs bazasi tuzilishini optimal shakllanishiga turli xil omillarning ta'sirini hisobga olgan holda biz bank biznesi bahosini maksimallashtiruvchi va muqobil bank faoliyati talablarining bank recurslari tuzilishiga mosligini miqdoriy baholashga imkon beruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida optimallashtiruvchi mezonlar tizimini taklif etamiz.

Tijorat banklar resurs bazasini mustahkamlash borasidagi jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish asosida yaxlit, takomillashtirilgan mexanizm amaliyotimizda mavjud emasligi namoyon bo'ldi. Biz mazkur jarayonlarni umumlashtirgan holda banklarning resurs bazasini mustahkamlash mexanizmini ishlab chiqdik. Mazkur mexanizm asosan

⁹¹ Saipnazarov Sh.Sh. "Moliyaviy injiniring metodologiyasini takomillashtirish" i.f.d. dis. Avtoreferati TDIU.: 2024-yil. 23-b.

ikkita yirik yo'nalish asosida shakllanadi. Xususan, o'z mablag'larini mustahkamlash asosida bank depozit bazasini mustahkamlash hamda jalb qilingan mablag'larni mustahkamlash evaziga depozit bazasini mustahkamlash. Bu yerda bitta narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ikkala yo'nalish ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.



3.6-rasm. Tijorat bank resurs bazasi tuzilishini rivojlantirishning mezonlar tizimi⁹².

⁹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Endi, yuqoridagi har bir mezon bo'yicha tushuncha beradigan bo'lsak, "Mablag'larning manbalari yetarliligi" mezonining iqtisodiy ko'rsatkichlari bankka xos bo'lgan tavakkalchiliklarni qoplash uchun kapital mablag'larining yetarliligini aks ettiradi. Shu o'rinda, o'z mablag'lari yetarliligi ko'rsatkichining minimal talab qilinadigan qiymatiga muvofiqligi xususiy banklari faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi⁹³. Xalqaro Bazel qo'mitasining bank nazorati bo'yicha Bazel III standartida belgilangan asosiy va qo'shimcha kapitalning yetarlilik ko'rsatkichlarining minimal qiymatlariga muvofiqligi, kutilmagan yo'qotishlar paydo bo'lishi sababli bankni kapital yo'qotish xavfidan himoya qilish darajasini oshiradi.

Tadqiqot davomida banklarining resurs bazasini "likvidliligini va moliyaviy barqarorligini yo'qotish riski" mezonini bo'yicha baholash, bankning jalb qilingan va qarzga olingan mablag'lar bo'yicha mijozlar oldidagi majburiyatlarini bankning joriy operatsion faoliyatini buzmasdan bajarish qobiliyati to'g'risida tasavvur beradi. "Foiz xarajatlarini minimallashtirish" mezonini doirasida recurs bazani tuzilishini optimalligini xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni qarz mablag'lariga foiz stavkasi nuqtai nazardan qarashimiz kerak.

"Resurs baza sifati" mezonini esa resurs bazaning qarz, o'z kapitali manbalariga bog'liqligiga ta'sirini aniqlashga yordam beradi va keltirilgan koeffitsientning erishilgan qiymati bo'yicha tijorat banklarning resurslari shakllanishida "risk daromad" balansiga rioya qilish uchun mablag' aniq manbasini hajmini o'stirishi yoki kamaytirishi zarurligi haqida xulosa qilish mumkin.

"Rentabellik koeffitsienti" va bank faoliyati samaradorligi asosida xususiy bankning tashkil qilinishi samaradorligini baholash aniq bir bankda bo'lganidek, banklar guruhlar uchun recurs bazasi tizimining optimalliligini qiyosiy tahlilini o'tkazishga imkon beradi.

Resurs bazasini optimallashtirish iqtisodiy ko'rsatkichlariga asosan bank recurslarini yaratiladigan tizimining mulkdorlar uchun bank biznesi qiymati kattaligiga ta'sirini baholashga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, resurs baza mezonlari tizimi

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 6-iyuldagi "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2693 – sonli Nizomi

optimallashtirishning ierarxik tuzilishi darajasi, ya'ni tuzilma resurs bazasiga bo'lgan talabining oshib borishi tartibida joylashganlik tamoyili bo'yicha: "Zaruriy normativdan optimalgacha bo'lgan bank recurslarini tuzilmasini tashkil etish" ni ko'rib chiqamiz. Shunga ko'ra resurs bazasini mezonlariga ko'ra ya'ni ushbu tizimni "mablag'lar manbalarining yetarliligi, risklarni minimallashtirish" ning shakllantiruvchi boshlang'ich 2-bosqichi bank faoliyat yuritishi uchun zaruriy sharoit hisoblanib, unda bu vaqtda bankning bank biznes faoliyati qiymatining o'sishi mezon nafaqat uning joriy natijalariga balki bank biznesda qo'shilgan qiymatni shakllantirishi xususiyatiga yo'naltirilganlikni aks ettiradi.

Tijorat bank resurs bazasi tuzilishini optimallashtirishning mezonlar tizimi ichida "rentabellik va faoliyat samaradorligini maksimallashtirish" mezonni ular faoliyatida alohida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash kerak. Chunki, banklar faoliyati samaradorligi va rentabellik ko'rsatkichlariga amal qilishi qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p foyda ko'radi va natijada barqaror moliya institutiga aylanadi. Buning natijasida ular o'z resurs bazasi mustahkamligiga e'tibor qaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o'z mablag'lari va majburiyatlarini boshqarishga kompleks yondashuv tijorat banklarning recurs bazasini yaxshilashga yordam beradi. Buning natijasida esa, tijorat banklar o'zlarining mustaqilligini ta'minlashga, ichki manbalar hisobidan kapitalni ko'paytirishga, asosan, foyda olishga alohida e'tibor berishlikka olib keladi. Yakunda ularning resurs bazasi oshishiga va mustahkamlashishigi erishish mumkin bo'ladi. Qaysi bankning resurs bazasi mustahkam bo'lsa, o'sha bankning kreditlash salohiyati kengayi boraveradi.

Tijorat banklar resurs bazasini mustahkamlash borasidagi jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish asosida yaxlit, takomillashtirilgan mexanizm amaliyotimizda mavjud emasligi namoyon bo'ldi. Biz mazkur jarayonlarni umumlashtirgan holda tijorat banklarning recurs bazasini mustahkamlash mexanizmini ishlab chiqdik. Mazkur mexanizm asosan ikkita yirik yo'nalish asosida shakllanadi. Xususan, o'z mablag'larini mustahkamlash asosida bank resurs bazasini mustahkamlash hamda jalb qilingan mablag'larni mustahkamlash evaziga resurs bazasini mustahkamlash. Bu yerda bitta narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ikkala yo'nalish ham bir-biri bilan

chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash mexanizmi yo'nalishlar, usullar, metodlar va vosita (instrument)lar kabi muhim jihatlarini o'z ichiga oladi.

Mexanizmdagi mustahkamlash yo'nalishlari o'z ichiga oltita bosqichni oladi va ularni navbat bilan amalga oshirilsa xususiy bankning resurs bazasini mustahkamlashga zamin yaratilgan bo'ladi. Dastavval, bank resurs bazasini mustahkamlash maqsadlarini aniqlash, vazifalarni belgilash, recurslarni shakllantirishni boshqarish uchun zarur vositalar va metodlarni tanlash kerak. Undan keyin esa, bankdagi mavjud resurslarni baholash shartlari, uning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va risklarni baholash hamda resurslarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Shu jarayonni oxirgi bosqich bank faoliyati samaradorligini oshirish uchun bank resurslarini shakllantirish strategiyasiga zarur o'zgartirishlar kiritishga qadar amalga oshirish kerak. Bularning natijasida, tijorat banklar o'zlarining resurs bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor berishi mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda, ko'pchilik o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida uzoq muddatli recurslarning yetishmasligi muammosi mavjud. Xususan, O'zbekistonda uzoq muddatli depozitlarning, umumiy depozit hajmidagi salmog'i 30 foizdan oshmaydi⁹⁴. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda xususiy banklarning kapitali investitsion loyihalarni moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda, izlanishimiz davomida xususiy banklarning recurs bazasini mustahkamlash jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash bilan birga ularni imkon darajasida hal qilish orqali xususiy banklarning resurs bazasini mustahkamligini ta'minlash yo'llari aniqlandi. Fikrimizcha ular quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklar kapitalini oddiy aktsiyalarni doimiy emissiya qilish hisobiga oshirish orqali ularning recurs bazasini mustahkamlash kerak. Chunki ustav kapital bankning taqsimlanmagan foydasi bilan birga, bank kapitalining eng barqaror qismini tashkil etadi. Ular bank faoliyati rivojlanishining asosi bo'lib qoladi. Bundan tashqari, bizga ma'lumki Bazel III talablariga o'tishda ustav kapital va taqsimlanmagan foyda

⁹⁴ www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bank kapitalining yetarliligini oshirishning asosi hisoblanadi. Bank kapitali tarkibida, ustav kapitali ulushining barqarorligini ta'minlash uchun bizning fikrimizcha, yuqorida to'xtalib o'tilgan bankning yillik moliyaviy siyosatini tuzishda ustav kapitali qoldig'i va yillik o'sish darajasi doimiy ravishda bank taqsimlanmagan foydasining o'sish darajasidan kam bo'lmasligiga erishilishi lozim.

Bundan tashqari, tijorat banklarning kapitallashtirish darajasini oshirishning zamonaviy usullaridan hisoblangan IPOlarni tashkil etish kerak.

2. Tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash uchun qo'shimcha kapitalning hajmini oshirishning asosiy manbalaridan biri hisoblangan uzoq muddatli subordinar qarz majburiyatlarini kengroq chiqarish zarur. Xususiy banklar amaliyotida subordinar qarz majburiyatlarining mavjud emasligi ularning uzoq muddatli kreditlar bozoridagi mavqeining zaifligini bildiradi. Bizga ma'lumki, subordinar qarz majburiyatlari bank kapitali tarkibini tashkil etish bilan birga uzoq muddatli recurslarni jalb qilishning qulay va arzon vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, kelajakda xususiy bank ustav kapitalini oshirish uchun ishonchli mijozlarning subordinar qarz majburiyatlarini bank aktsiyalariga o'tkazish mumkin. Shuning uchun ham tijorat banklarimiz tomonidan subordinar uzoq muddatli qarz majburiyatlarini jalb etish amaliyotini joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Tijorat banklar resurs bazasini mustahkamlash uchun inflyatsion targetlash rejimini hisobga olib barqaror recurs jalb qilishda banklar tomonidan yangi, zamonaviy va jozibador depozit turlarini ko'paytirish kerak.

Tijorat banklar tomonidan aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning depozitlariga to'lanayotgan foizlarni belgilashda mamlakatdagi inflyatsiya darajasini inobatga olish lozim. Shuni hisobga olgan holda, respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiya darajasini 2021-yil 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023-yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion target o'rnatish yo'li bilan 2020 yil 1-yanvardan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o'tkazildi. Bunda albatta, tijorat banklar kelgusida ushbu mijozlarning yana bankka depozit qo'yishini rag'batlantirishda banklar tomonidan doimiy tarzda yangi, zamonaviy va jozibador uzoq muddatli depozit

xizmatlarni joriy etib borishlari lozim. Umuman, inflyatsion targetlash rejimida aholi va investorlar milliy valyutada jamg'armalarni shakllantirish uchun kafolat tizimi yaratib beriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikning yuqori darajada ta'minlanganligi banklar tomonidan depozitlar uchun to'lanayotgan foizlarni belgilashda asosan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan samarali foydalaniladi. Yaponiya, AQSh va G'arbiy Evropa davlatlarida banklarning depozitlari va kreditlari bo'yicha foizlarni belgilashda qayta moliyalashtirish stavkasidan foydalangan holda foiz stavkalariga sezilarli darajada ta'sir yuzaga keladi. Mamlakatimiz bank amaliyotida qayta moliyalashtirish stavkasi mamlakatdagi kutilayotgan inflyatsiya darajasiga qarab belgilanadi. Shunday ekan, inflyatsiya darajasi depozitlarning foizlarini belgilash uchun asosiy barometr vazifasini o'tashi lozim.

Tijorat banklari tomonidan depozitlar bo'yicha foizlarni belgilashda mamlakatdagi inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiya darajasini inobatga olishning yana bir muhim jihati, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmalanligidir. Mazkur bozorning rivojlanishi bank depozitlari bo'yicha foizlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida depozitlarning foizini belgilashda fond bozoridagi qimmatli qog'ozlarning o'rtacha daromadlilik darajasi inobatga olinadi.

4. Mijozlarga xizmat ko'rsatishda raqamli bank texnologiyalaridan foydalangan holda yangi online omonatlar xizmatini tashkil etish imkoniyatlarini oshirish.

2019-yilning 3-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832-sonli "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining e'lon qilinishi mamlakatimiz iqtisodiyotida, xususan, moliya-bank tizimida "raqamli texnologiyalarni" joriy qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Darhaqiqat, jahondagi yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish uchun milliy iqtisodiyotimizning "raqamli" sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilishi zarur. "Raqamli iqtisodiyot"ni rivojlantirish o'z navbatida axborot-

texnologik platformalarni takomillashtirishni, ayniqsa, shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratini taqozo etadi.

“Raqqamli banklar”ni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g’oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub’ektlarining yaqqin hamkorligi, ya’ni davlat-xususiy sektor hamkorligini ta’minlash zarur. Bunda, aholi va xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning talab va istaklarini o’rgangan holda zamonaviy talablarga javob beradigan, mijozlarning tushunishi qiyin bo’lmagan, raqqamli bank texnologiyalaridan foydalangan holda yangi turdagi “online” depozit xizmtlarini tijorat banklar tomonidan doimiy ravishda taklif qilinib borilishi hamda bu haqida keng jamoatchilikni xabardor qilib borish tijoratbanklar oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

5. Tijorat banklar depozit bazasi mustahkamligini va uni barqarorligini ta’minlash uchun ularning jalb qilingan mablag’lari ustidan doimiy nazorat yo’lga qo’yish zarur. Buning uchun esa quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo’lar edi:

- tijorat banklarning depozitlari barqarorligini ta’minlash bo’yicha strategiyani aniqlash lozim. Bunday strategiyaning asosiy qismi bo’lib, mijozlarga taklif etilayotgan depozitlar sifatini oshiruvchi marketing hisoblanadi. Ya’ni, mamlakat iqtisodiyotida inqiroz yuz bergan davrlarda ham mijozlarning banka bo’lgan yuksak ishonchi yo’qolmasligi lozim. Shuni aytib o’tish o’rinliki, jamg’arma depozitlar muddati oshishi depozitlar koldig’ining tebranishini sekinlashtiradi. Olib borilgan tahlillar natijasida ko’rinadiki, 2020-2024-yillarda tijorat banklarning jami depozitlari tarkibida jamg’arma depozitlarning ulushi bor yo’g’i 4 foiz atrofida bo’lgan. Bularni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak deb hisoblaymiz:

- tijorat banklarining depozit siyosatini yanada takomillashtirish zarur;
- tijorat banklar tomonidan depozit va omonatlarning shartnomada ko’rsatilgan muddatlarda to’liq qaytarilishi kafolatlarini mustahkamlash kerak;
- tijorat banklar bo’yicha foiz stavkalarini maqbullashtirish;
- tijorat banklarning umumiy depozitlari tarkibida uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirib borish.

6. Bank resurs bazasi tarkibida yuridik shaxslar uchun barqaror depozitlar hajmini oshirishga ularning foiz stavkasini muddati va miqdoriga mos ravishda o'sib borish tartibida belgilash kerak.

Banklarning 84 foizga yaqin depozitlari yuridik shaxslarga tegishli ekanligini oldingi boblarda ta'kidlagan edik. O'z navbatida, yuridik shaxslarning depozitlarining 70 foizi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit turiga to'g'ri kelmoqda. Tijorat banklarning jami depozitlari tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlar ulushini oshirish uchun yuridik shaxslarning muddatli va jamg'arma depozitlariga ularning muddati va miqdoridan kelib chiqqan holda differentsial foiz belgilash maqsadga muvofiqdir.

3.2-jadval

Tijorat banklar tomonidan yuridik shaxslarga taklif etiladigan muddatli depozitlarning asosiy shartlari⁹⁵

Depozit shartlari	3 oydan 6 oygacha	6 oydan 9 oygacha	9 oydan 12 oygacha	12 oydan 18 oygacha	18 oydan 24 oygacha	24 oydan ortiq
Amaldagi yillik foiz stavkasi	8 % gacha	10,0% gacha		11,0% gacha		
Taklif etilgan yillik foiz stavkasi	8-10% gacha	10-12% gacha	12-14% gacha	14-15% gacha	15-15,5% gacha	15,5-16% gacha
Depozit miqdori	10 mln. so'mdan 100 mln. so'mgacha	100 mln. so'mdan 500 mln. so'mgacha	500 mln. so'mdan 1 mlrd. so'mgacha	1 mlrd. so'mdan 3 mlrd. so'mgacha	3 mlrd. so'mdan 5 mlrd. so'mgacha	5 mlrd. so'mdan 10 mlrd. so'mgacha

3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, yuridik shaxslarning barqaror depozitlari ulushini oshirish orqali bank resurs bazasini mustahkamlash uchun xususiy banklar tomonidan mamlakatdagi mavjud inflyatsiya darajasini e'tiborga olgan holda muddatli depozitlar taklif qilinadi. Bunda, bank tomonidan depozitlar muddati bo'yicha qulay shartlar va muddatiga muvofiq turli foiz stavkalari belgilanadi. Ya'ni,

⁹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

qisqa muddatli davr uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan kamroq, uzoq muddatli davr uchun esa, stavkadan yuqori foiz belgilanadi.

Bunda bank alohida e'tibor berishi kerak bo'lgan jihat mavjud. Unga muvofiq xususiy bank mijozning harakatsiz turgan pul mablag'lari muddatli va jamg'arma depozitga o'tkazish va unga foiz to'lash to'g'risida shartnoma tuzadi. Mijoz esa, ma'lum bir muddat davomida bankdagi hisobvara qoldig'idagi kelishilgan summadan foydalanmaydi.

Bank resurs jalb qilishning bu usuli faqat bank uchun emas, balki mijoz uchun ham juda qulay hisoblanadi. Chunki, katta pul kirim chiqimiga ega bo'lgan yirik korxonalarning hisobvarag'idagi pul mablag'iga foiz to'lanadi. Ikkinchi tomondan esa, xususiy banklarning barqaror resurs bazasini kengaytirish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, bu usul orqali mijozlarning pul mablag'ini jalb qilish orqali banklar o'z resurs bazasini mustahkamlashga erishadi va bundan tashqari, bankning daromad olish imkoniyati kengayadi hamda to'satdan yuzaga keladigan likvidlilik muammosini oldini olish imkoniyati tug'iladi. Chunki, mijozga pul kerak bo'lgan paytda u o'zining bankini oldindan xabardor qilishi lozim va shartnoma muddatidan oldin o'z pul mablag'larini talab qilishi to'lanayotgan foiz stavkaning kamayishiga hamda ma'lum bir muddat davomida resurs qidirib topish imkoniyatini beradi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

1. Tijorat banklar resurs bazasini yanada mustahkamlash maqsadida bozor vositalari va mexanizmlaridan samarali foydalanish hisobiga, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda omonatlar va depozitlarning yangi turlarini muntazam joriy etib borish, muomalaga uzoq muddatli obligatsiyalar, depozit sertifikatlar va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishga, shuningdek, subordinarlangan qarzlarni faol jalb etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2. Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash uchun juda muhim. Bu jarayon banklarning

moliyaviy holatini yaxshilash, kapital yetarli darajada shakllantirish va mijozlarga kengroq xizmat turlarini taklif yetish orqali amalga oshiriladi. Banklar resurs bazasini mustahkamlashda nafaqat ichki moliyaviy manbalardan, balki xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali tashqi moliyaviy manbalaridan ham foydalanadi. Mazkur xulosa tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha asosiy masalalarni va istiqbolli yo'nalishlarni tahlil qiladi.

3. Tijorat banklarining resurs bazasi asosan jalb qilingan mablag'lardan iborat bo'lib, ular mijozlarning omonatlari, xalqaro moliyaviy institutlardan jalb qilingan kreditlar va bankning o'z kapitalini o'z ichiga oladi. Resurs bazasining mustahkamligi bankning likvidligi va barqarorligini belgilaydi. Shuningdek, moliyaviy bozorda raqobatbardosh bo'lishi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun ham muhimdir. Shu bois banklar resurs bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilishga intiladi.

4. Resurs bazasini kengaytirishning muhim yo'llaridan biri omonatlarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirishdir. Mijozlarning ishonchini qozonish orqali omonatlarni ko'paytirish mumkin. Bu jarayonda banklarning marketing strategiyalari, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish kabi omillar katta ahamiyatga ega. Xususan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan onlayn omonatlar, mobil banking va boshqa zamonaviy moliyaviy xizmatlar omonatchilarning sonini ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

5. Kapital yetarliligini ta'minlash ham resurs bazasini mustahkamlashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Banklar o'z kapitalini oshirish uchun aktsiyalar chiqarish, xalqaro moliyaviy bozorlar orqali obligatsiyalar joylashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan maxsus dasturlarda ishtirok etish kabi usullardan foydalanadilar. Kapitalning oshishi bankning tavakkalchiliklarni qabul qilish qobiliyatini oshiradi, bu esa kredit portfeli hajmini kengaytirishga va turli loyihalarni moliyalashtirishga imkon beradi.

6. Banklar resurs bazasini kengaytirish uchun tashqi moliyaviy manbalardan ham samarali foydalanishlari kerak. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali chet el investitsiyalarini jalb etish, kredit liniyalarini ochish va xalqaro

moliyaviy tashkilotlardan grantlar olish banklarning resurs bazasini kengaytirish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlar va xavflarni hisobga olish juda muhimdir, chunki bu omillar tashqi resurslar samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

7. Banklar resurs bazasini mustahkamlashda risklarni boshqarish va diversifikatsiya qilish masalalari ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, likvidlik riskini boshqarish, valyuta risklarini kamaytirish va kredit portfelining diversifikatsiyasini ta'minlash orqali banklar o'z resurs bazasining barqarorligini oshirishlari mumkin. Likvidlik riskini boshqarish uchun banklar qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlarni muvozanatli boshqarishlari lozim. Valyuta riskini kamaytirish esa chet el valyutasida jalb qilingan mablag'larni milliy valyutada balanslash orqali amalga oshiriladi.

8. Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanishlari kerak. Masalan, fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, moliyaviy texnologiyalarni joriy yetish orqali bank xizmatlarini kengaytirish va mijozlar bazasini kengaytirish imkoniyatlari oshadi. Zamonaviy texnologiyalar banklarga nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, balki operatsion xarajatlarni kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish imkonini ham beradi.

9. Omonatlarning sug'urtalanishi tizimini takomillashtirish ham resurs bazasini mustahkamlashda muhim omildir. Omonatlarni sug'urtalash tizimi mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchini oshirish orqali ularning bankka omonat qo'yishiga rag'batlantiradi. Shu ma'noda, davlat tomonidan omonatlarni sug'urtalash tizimini takomillashtirish, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va mijozlarning manfaatlarini himoya qilish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rilishi lozim.

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda korporativ boshqaruv tizimining samaradorligi ham katta ahamiyatga ega. Yaxshi rivojlangan korporativ boshqaruv tizimi bankning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, ichki nazoratni kuchaytirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv tizimi bankka tavakkalchiliklarni samarali

boshqarish va moliyaviy bozorlarning noaniqliklariga qarshi bardosh berish imkonini beradi.

Banklarning resurs bazasini mustahkamlashda xalqaro tajribadan foydalanish ham muhimdir. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda banklar resurs bazasini kengaytirish uchun uzoq muddatli omonatlar, davlat obligatsiyalari va pensiya fondlari kabi uzoq muddatli manbalardan foydalanadilar. Ushbu tajribalarni o'rganish va mamlakat sharoitlariga moslashtirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish mumkin.

Shunday qilib, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash istiqbollari ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon banklarning ichki moliyaviy salohiyatini oshirish, tashqi moliyaviy manbalar bilan ishlash, risklarni boshqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni o'rganish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat banklarning barqarorligini ta'minlaydi, balki umumiy iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy tizimning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois, tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlarimiz va tahlillar natijasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarning recurs bazasi mustahkamligini ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

1. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida tijorat banklarning recurs bazasi mustahkamligi xususida o'zimizning mualliflik ta'rifimizni ishlab chiqdik. Banklarning recurs bazasi - o'z mablag'lar manbalari, bundan tashqari, raqobatbardoshlikning yuqori darajasini va ijobiy imidjini saqlash, daromad olish va balans likvidligini ta'minlash maqsadida kelgusida moliyaviy recurslardan foydalanish salohiyatini oshirish va aktiv operatsiyalar hajmini kengaytirishda ishlatiladigan yuridik hamda jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'lari hisobiga qaytarishlik sharti bilan bank tomonidan jalb qilinadigan mablag'lar yig'indisidir.

2. Taraqqiy etgan mamlakatlarda banklar depozit bazasining yetarliligi ta'minlangan bo'lib, aktiv operatsiyalardan kenroq foydalanish imkoniyati mavjudligi hamda qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishdan olingan mablag'lar bankning recurs bazasini shakllantirishda muhim o'rin tutishini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, banklarning recurslari hajmida banklararo kreditlar salmog'ining sezilarli darajada past. Buning sababi banklararo kreditlar bahosi yuqori bo'lgan recurs hisoblanadi. Natijasida esa, depozit bazasi yetarli bo'lgan banklar banklararo kreditlardan recurs sifatida foydalanishga ehtiyoj sezmaydilar.

3. Tijorat banklar umumiy kapitalining bank sektorining umumiy kapitali hajmidagi salmog'ining past darajada ekanligi, qo'shilgan kapitalning umumiy kapital hajmidagi salmog'ining kichikligi, banklarda qo'shimcha kapitalni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar mavjudligi aniqlandi.

4. Tijorat banklari resurs bazasining barqarorligi moliyaviy tizimning umumiy barqarorligi va rivojlanishi uchun muhimdir. Resurs bazasining mustahkamligi bankning kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi, bu yesa iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Moliyaviy inqirozlar davrida resurs bazasining mustahkamligi bankning likvidligini ta'minlash va potentsial xavflarga qarshi kurashishda asosiy omil hisoblanadi.

5. Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar bankning moliyaviy barqarorligini oshirish va uning iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini kuchaytirishga qaratilgan. Jalb qilingan mablag'lar hajmini oshirish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish, kapitalni oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali banklar o'z resurs bazasini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, innovatsion bank xizmatlarini taklif etish va mijozlarga qulay sharoitlar yaratish orqali resurs bazasining barqarorligi ta'minlanadi.

6. Tijorat banklari resurs bazasining mustahkamligi nafaqat bankning o'ziga, balki butun moliyaviy tizim va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim omildir. Shu sababli resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha strategik chora-tadbirlar va siyosatni shakllantirish tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

7. Banklar resurs bazasini kengaytirish uchun tashqi moliyaviy manbalardan ham samarali foydalanishlari kerak. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali chet el investitsiyalarini jalb etish, kredit liniyalarini ochish va xalqaro moliyaviy tashkilotlardan grantlar olish banklarning resurs bazasini kengaytirish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlar va xavflarni hisobga olish juda muhimdir, chunki bu omillar tashqi resurslar samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

8. Banklar resurs bazasini mustahkamlashda risklarni boshqarish va diversifikatsiya qilish masalalari ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, likvidlik riskini boshqarish, valyuta risklarini kamaytirish va kredit portfelining diversifikatsiyasini ta'minlash orqali banklar o'z resurs bazasining barqarorligini oshirishlari mumkin. Likvidlik riskini boshqarish uchun banklar qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlarni muvozanatli boshqarishlari lozim. Valyuta riskini kamaytirish esa chet el valyutasida jalb qilingan mablag'larni milliy valyutada balanslash orqali amalga oshiriladi.

9. Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlashda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanishlari kerak. Masalan, fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, moliyaviy texnologiyalarni joriy yetish orqali bank xizmatlarini kengaytirish va mijozlar bazasini kengaytirish imkoniyatlari oshadi. Zamonaviy

texnologiyalar banklarga nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, balki operatsion xarajatlarni kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish imkonini ham beradi.

Omonatlarning sug'urtalanishi tizimini takomillashtirish ham resurs bazasini mustahkamlashda muhim omildir. Omonatlarni sug'urtalash tizimi mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchini oshirish orqali ularning bankka omonat qo'yishiga rag'batlantiradi. Shu ma'noda, davlat tomonidan omonatlarni sug'urtalash tizimini takomillashtirish, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va mijozlarning manfaatlarini himoya qilish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rilishi lozim.

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda korporativ boshqaruv tizimining samaradorligi ham katta ahamiyatga ega. Yaxshi rivojlangan korporativ boshqaruv tizimi bankning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, ichki nazoratni kuchaytirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv tizimi bankka tavakkalchiliklarni samarali boshqarish va moliyaviy bozorlarning noaniqliklariga qarshi bardosh berish imkonini beradi.

10. Banklarning resurs bazasini mustahkamlashda xalqaro tajribadan foydalanish ham muhimdir. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda banklar resurs bazasini kengaytirish uchun uzoq muddatli omonatlar, davlat obligatsiyalari va pensiya fondlari kabi uzoq muddatli manbalardan foydalanadilar. Ushbu tajribalarni o'rganish va mamlakat sharoitlariga moslashtirish orqali banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish mumkin.

Shunday qilib, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash istiqbollari ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon banklarning ichki moliyaviy salohiyatini oshirish, tashqi moliyaviy manbalar bilan ishlash, risklarni boshqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni o'rganish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat banklarning barqarorligini ta'minlaydi, balki umumiy iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy tizimning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois, tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasmiy materiallar

1.1. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.: “O'zbekiston”, 2017. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – Toshkent. Adolat, 1996. – 287 b.<http://lex.uz/docs/111189> 24-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuni. – T.: “O'zbekiston», 2019-y. 5-noyabr. <http://lex.uz/ru/docs/4590452>.
4. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. – T.: “O'zbekiston”, 2019-y. 5-noyabr. <http://lex.uz/pdfs/4581969>
5. O'zbekiston Respublikasining “Xususiy banklar va moliya institutlari hamda ularni faoliyatini kafolatlash to'g'risida”gi Qonuni – T.: “O'zbekiston”, 2012-y. 17-dekabr. <http://lex.uz/pdfs/2361969>
6. O'zbekiston Respublikasining “Bank siri to'g'risida”gi Qonuni. –Toshkent, 2003.
7. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to'plami. –Toshkent: O'zbekiston, 2003.
8. O'zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. Toshkent: O'zbekiston, 2002-yil 5-aprel. <http://lex.uz/docs/42074>

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Farmon va Qarorlari

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli farmoni. 2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish staregiyasi to'g'risida //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2020. – № 6 (766). – 32-b
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-martdagi PF-5953-sonli

farmoni. Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to’g’risida //O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – Toshkent, 2020. – № 6 (766). – 32-b

11. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o’tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to’g’risida”gi PF-5877-sonli Farmoni

12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida//O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b

13. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora–tadbirlari to’g’risida” PQ-670–sonli Qarori, 2007-yil 12-iyul.

14. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo’sh pul mablaglarini bank aylanmasiga jalb etish chora–tadbirlari to’g’risida”gi PQ-726–sonli Qarori, 2007 yil 7 noyabr.

15. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora tadbirlari to’g’risida”gi Qarori, 2010-yil 6-aprel.

16. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko’rsatkichlariga erishishning ustuvor yo’nalishlari to’g’risida”gi PQ-1438-sonli Qarori.

17. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning recurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2344-sonli Qarori.

18. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 3620 sonli Qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyulda "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli Qarori

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 mayda "Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4325-sonli Qarori.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24-sonli Qarori, 1999-yil 15-yanvar.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bank tizimi faoliyati asosiy ko'rsatkichlari ustidan monitoring o'rnatish to'g'risida"gi Qarori, 2000-yil 6-iyul.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni amalga oshirish chora tadbirlari haqida"gi Qarori. 2002-yil 19-sentyabr.

25. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2008-yil 24-sentyabrda 1859-son bilan ro'yhatga olingan "Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risida"gi nizom.

26. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi "Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar(omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to'g'risida"gi nizom

27. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 6-iyuldagi "Tijorat banklari kapitali monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi 2693-sonli Nizom

28. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 22-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi

to'g'risida"gi 2711-sonli Nizomi

29. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2015-yil 13-avgustdagi "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2709-sonli Nizom

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoevning asarlari

30. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

31. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.

32. Mirziyoev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.

33. Mirziyoev Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.

34. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

35. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 25-oktyabrdagi "Bank tizimini isloh qilish va banklarning investitsiyaviy faolligini oshirish borasidagi ustuvor vazifalariga bag'ishlangan yig'ilishi"dagi ma'ruzasi.

2. Kitob va turkum nashrlari

2.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami:

36. Azizov U.O'. va b. Bank ishi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2016.768 b.

37. Azizov U.O'., Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. 1-qism. –Toshkent: Moliya-iqtisod, 2019. 486-b.

38. Batrakova L.G. Ekonomicheskii analiz deyatelnosti kommercheskogo banka. Uchebnik dlya vuzov M.: Logos, 2005.- 325 s.

39. Bankovskoe delo: uchebnik dlya SPO/ Т.М.Костерина. – 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Izdatelstvo Yurayt, 2019 g. 332 s.
40. Банковское дело. Под редакцией Е.Ф. Жукова, Н.Д. Эриашвили. 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. стр. 163–164.
41. Банковское дело. Экспресс-курс: учебное пособие / кол. авторов; под ред. О.И. Лаврушина. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2016. – 352 с.
42. Банковское дело. Под редакцией О.И. Лаврушина. – М.: КРУНОС, 2019 г. стр. 10–14.
43. Банковский менеджмент: учебное пособие / Е.Г. Шершнева, Е.С. Кондюкова. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2017. – 748 с.
44. Деньги, кредит, банки: учебник / коллектив авторов; под ред. Л.П. Кроливецкой. – Москва: КРОНУС, 2019. – 414 с.
45. Долан Э. Дж. и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. Пер. с англ. – Москва–Ленинград, 1991. – 446 с.
46. Каткало В.С. Эволюция теории стратегического управления. – Высшая школа менеджмента СПбГУ. – 3-е изд. – СПб.: Издательство «Высшая школа менеджмента»; Издат. дом С.-Петербур. гос. ун-та, 2011. – 548 с.
47. Киселёв В.В. Управление банковским капиталом (теория и практика). – М.: Экономика, 1997. – 256 с.
48. Коммерческие банки / Э. Рид, Р. Коттер, Э. Гилл и др. – М.: Космополис, 1991. – 501 с.
49. Лаврушин О.И. Роль кредита и модернизация деятельности банков в сфере кредитования: монография / коллектив авторов. – М.: КНОРУС, 2012. – 146 с.
50. Omonov A.A. Tijorat banklarining moliyaviy recurslarini boshqarish. Monografiya. –Toshkent, Fan va texnologiya. –2008. –257 b.
51. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКС «ДИС», 1997. – 194 с.
52. Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела. Перевод с англ. – М.: Инфра, 1996. – 247 с.

53. Рид Э., Коттер Р. и другие. Коммерческие банки. Пер. с англ. под ред. Усоскина В.М. 2-е издание. – М.: Космополис, 1991. – 478 с.

54. Родэ Е.М. Банки, биржи, валюты современного капитализма. – М.: Финансы и статистика, 1986. – 358 с.

55. Youssef Cassis, Philip Cottrell. The World of Private Banking. Ashgate Publishing, Ltd., 2009 – pp 302

56. Youssef Cassis, Philip Cottrell, Iain L. Fraser// The World of Private Banking. Studies in Banking and Financial History //. Routledge, 2016 – pp 328

3. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

57. Бабаев Б.Б. Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использование: автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Tashkent: BFA. 2002.– 21

58. Jo'raev I.I. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi O'zR TMI.–T., 2020. -128 b

59. Mirzaev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, –T.: BMA, 2009. 11 b

60. Omonov A.A. “Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari” mavzusidagi i.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent: 2008 y. 264 b.

61. Rahimov A.M. Tijorat banklari depozit bazasi va uni kengaytirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati,–T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. -54 b

62. Ruzmetov Sh.B. “O'zbekiston tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash yo'llari” mavzusidagi i.f.n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent: 2009 y. 116 b.

63. Ortiqov O.A. Banklararo raqobat muhiti sharoitida bank xizmatlari va ularni

takomillashtirish yo'llari. I.f.n. dissertatsiyasi avtoreferati - T.: 2009. -B.5-8.

64. Ortiqov U.D. Bank resurslari va ularni boshqarish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat.—T., 2008.-20 b

4. Jurnallardagi maqolalarga havolalar

65. Aleksey Mints, Viktoriya Marhasova, Hanna Hlukha, Roman Kurok and Tetiana Kolodizieva // Analysis of the stability factors of Ukrainian banks during the 2014–2017 systemic crisis using the Kohonen self-organizing neural networks. // Banks and Bank Systems, Volume 14, Issue 3, 2019, 86-98. doi:10.21511/bbs.14(3).2019.08

66. Герасимов В.Г. Корпоративное управление и риск-менеджмент в коммерческом банке. Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. – 2013. – № 3 (47). – С. 167–174.

67. Жировов В.И. Стратегии и современные модели управления в сфере денежно-кредитных отношений. – Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление. – 2015. – № 1. – С. 100–105.

68. Зубова Н.Г. Особенности отражения в бухгалтерском учёте отдельных операций коммерческого банка. – Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. – 2012. – № 2. – С. 272–275.

69. Prahalad, C.K., Hamel, G., (1990) The core competence of the corporation, Harvard Business Review, vol. 68, no. 3.-PP.79-91.

70. Sattarov O.B. Bank tizimi barqarorligini ta'minlash: nazariy va amaliy jihatlar. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2018 yil

71. Сергеев И., Пономаренко Т. Методологические аспекты ресурсного подхода в стратегическом управлении. Management theory and studies for rural business and infrastructure development. – 2011. – № 4 (28). – С. 118–126.

72. Сыройко В.В. Содержание, формы и виды регулирования экономики. Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. – 2012. – № 2. – С. 53–66.

73. Tsyhanyuk, D. Effective ways to making strong resource base for Ukrainian

banks in terms of unstable economy // Středoevropský věstník pro vědu a výzkum. – 2014. – №7. - P. 94-106

74. Чорба П.М. Стратегия развития банков с государственным участием. Вестник Белгородского университета потребительской кооперации. – 2010. – № 2. – С. 119–123.

75. Wernerfelt V. 1984. A Resource-Based View of the Firm // Strategic Management Journal. No. 5 (2). P. 171–180.

76. Private Banking and Wealth Management Survey 2020
<https://www.euromoney.com/article/b1jwyx6m1tt009>

77. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-2019 yillar uchun statistik ma'lumotlari.

78. Rossiya Federatsiyasi bank tizimi sharhi. Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki statistik ko'rsatkichlari. №214 fevral 2020 yil.

79. Финансово-кредитный словарь. – М.: Финансы и статистика, 1986. – 368 с.

80. Узбекско-русский словарь. Гос. изд-во иностранных и национальных словарей. – М., 1959. – 343 с.

81. ATB “Mikrokredit bank” yillik hisobot ma'lumotlari. 2019-2024 y.y.

82. AT “Turonbank” yillik hisobot ma'lumotlari. 2019-2024 y.y.

5. Internet Veb sahifalariga havolalar

83. <http://www.fdic.gov> - AQSh Federal Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi (FDIC) rasmiy sayti

84. <http://www.ecb.europa.eu> - Euromoney rasmiy sayti.

85. <https://www.jpmorganchase.com>. - JP Morgan Chase & Co bankining rasmiy sayti

86. <https://www.imf.org> - Xalqaro Valyuta Fondi rasmiy sayti

87. <https://www.federalreserve.gov> - AQSh Federal rezerv tizimi rasmiy sayti

88. <https://www.wellsfargo.com> - Wells Fargo bankining rasmiy sayti

89. <https://www.ubs.com> - UBS bankining rasmiy sayti

90. <https://group.bnpparibas> - VNP Paribas bankining rasmiy sayti
91. <https://www.cbr.ru> - Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankining rasmiy sayti
92. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal.
93. <http://www.cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti.
94. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti.